


Barqaror o‘sish

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning
Integratsiyalashgan yillik hisoboti / 2025

Mundarija



Bank Kuzatuv kengashi Raisining murojaati 04
Bank Boshqaruv Raisining murojaati 06
Asosiy ko'rsatkichlar 08
Bank profili 12

Strategik sharh

Makroiqtisodiyot va bank sektori tahlili 18
Rivojlanish strategiyasi 22
Biznes jarayonlari transformatsiyasi 24
Xalqaro hamkorlik 26

Barqaror moliyalashtirish

Barqaror moliyalashtirish sohasidagi yondashuv va mahsulotlar 56
Muhim voqealar 60
Xizmat ko'rsatish sifati va mijozlar qoniqish darajasini oshirish 68
Mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va kiberxavfsizlik 72
Mijozlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash 74

Xodimlar va tashkiliy rivojlanish

Xodimlarni boshqarish siyosati 126
Xodimlar tarkibi 128
Xodimlarni tanlash 132
Iqtidorlilarni jalb etish va sodiqlikni oshirish 134
Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash 135
Rivojlanish va o'qitish 138
Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash 140
Mehnat va sog'liqni muhofaza qilish 142

Ekologik barqarorlik

Chiqindilar (emissiyalar) 158
Energiya resurslariga mas'uliyatli yondashish 164
Chiqindilarga nisbatan oqilona yo'l tutish 168
Suv iste'moli 170
Bioxilma-xillik 172

Bankning operatsion va moliyaviy natijalari

Asosiy faoliyat yo'nalishlari sharhi 32
Korporativ biznes 33
O'rta biznes 35
Mikro va kichik biznes 36
Chakana biznes 38
Raqamli biznes 42
Filial tarmog'ini rivojlantirish 46

Korporativ boshqaruv

Korporativ boshqaruv tizimi 78
Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish 82
Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi 92
Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati 96
Boshqaruv tuzilmasi va faoliyati 105
Korporativ boshqaruv organlari a'zolarini rag'batlantirish 109
Korporativ maslahatchi 111
Ichki audit tizimi 112
Risklarni boshqarish 115

Bankning jamiyat oldidagi mas'uliyati

Iqtisodiy qiymat yaratish 148
Respublika hududlarida biznes rivojiga ko'maklashish 150
Bankning ijtimoiy tashabbuslari 154

Biznesni etik yuritish

Korporativ etika 176
Korrupsiyaga qarshi kurashish 178
Komplayens-nazorat 181
Soliq shaffofligi va byudjetga hissa 184

Ilovalar

1-ilova. Hisobot haqida 186
2-ilova. Glossariy 190
3-ilova. GRI ko'rsatkichlari jadvali 192
4-ilova. SASB ko'rsatkichlari jadvali 200
5-ilova. IFRS S2 ko'rsatkichlari jadvali 201
6-ilova. 2025-yil uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar (mustaqil auditorning hisobotii bilan birga) 208
7-ilova. Aloqa ma'lumotlari 222

2025-yil hisobotining PDF shakli va o'tgan yillar hisobotlari bizning veb-saytimiz sqb.uz da "Aksiyadorlar va investorlar uchun / Yillik hisoboti" bo'limlarida mavjud.

Bank Kuzatuv kengashi Raisining murojaati

Odilbek Rustamovich Isakov

Kuzatuv kengashi Raisi



10,2
trln so‘m
Umumiy kapital

1 543,8
mlrd so‘m
Sof foyda

Hurmatli aksiyadorlar, investorlar, mijozlar va hamkorlar!

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020–2025-yillarda isloh qilish strategiyasi doirasida sohada keng ko‘lamli va tizimli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bank faoliyatida bozor mexanizmlari izchil mustahkamlandi, korporativ boshqaruv, shaffoflik va halol raqobat tamoyillari joriy etildi. Raqamli xizmatlar ko‘lami sezilarli darajada kengaydi, mijozga yo‘naltirilgan yondashuv sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi, moliyaviy xizmatlar ommabopligi sezilarli darajada oshdi. Natijada bank tizimi mamlakat iqtisodiy rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy va barqaror moliyaviy institutga aylandi.

Mazkur Strategiyani amalga oshirish doirasida SQB asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish hamda raqamli transformatsiyani tizimli ravishda ilgari surishni belgiladi. 2025-yil yakunlari tanlangan yo‘nalishning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

Xususan, SQBning jami aktivlari 97,2 trln so‘mdan oshdi, umumiy kapital 10,2 trln so‘mga yetdi. Kredit portfeli 71 trln so‘mni, depozitlar hajmi esa 32,1 trln so‘mni tashkil etdi. Sof foyda 1,5 trln so‘mga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 38 foizga oshdi. Kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash zaxiralari, foizlarni ham inobatga olgan holda, 4,2 trln so‘mga yetdi va 29 foizga oshdi. Bank kapital rentabelligi (ROE) va aktivlar rentabelligi (ROA) ko‘rsatkichlari bo‘yicha davlat banklari orasida yetakchi o‘rinlarni saqlab qoldi.

Bankning strategik faoliyati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, jismoniy shaxslar va tadbirkorlar uchun qulay hamda ommabop moliyaviy mahsulotlar taqdim etish, shuningdek, xalqaro moliya bozorlarida ishtirokini kengaytirishga qaratildi.

Shu bilan birga, Bank risklarni boshqarish tizimini hamda muammoli aktivlar bilan ishlash yondashuvlarini takomillashtirishni davom ettirdi. Axborot texnologiyalari sohasida ishonchlilik, faoliyat uzluksizligi va kiberxavfsizlikning yuqori talablariga javob beruvchi zamonaviy infratuzilma yaratildi. Raqamli xizmatlar operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlar tajribasini yaxshilashning asosiy strategik drayverlaridan biriga aylandi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq ESG yondashuvlari SQB faoliyatiga izchil integratsiya qilinmoqda, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tashabbuslar kengaytirilmoqda.

Alohida ta’kidlash joizki, yil davomida Bankning xalqaro maydondagi pozitsiyalari yanada mustahkamlandi, bu esa o‘ttizdan ortiq nufuzli xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lish bilan tasdiqlandi.

SQBning barqaror rivojlanishi va uning xalqaro obro‘sining mustahkamlanishi nafaqat jamoaning professionalligi, balki sizning ishonchingiz va qo‘llab-quvvatlashingiz bilan ham bog‘liqdir. Ishonchim komilki, hamkorligimiz bundan buyon ham Bankning strategik maqsadlariga izchil erishish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bank Boshqaruv Raisining murojaati

654,3
mln AQSH dollari
“yashil” kredit portfeli hajmi

99%
avtomatlashtirilgan bank tizimining mavjudlik darajasi



Akbarjonov Aziz Akbarjon o‘g‘li

Boshqaruv Raisi

Hurmatli aksiyadorlar, investorlar, mijozlar va hamkorlar!

Jahon iqtisodiyoti jadal transformatsiyalanayotgan sharoitda raqamli texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv amaliyotlari va innovatsion yechimlar bank sektorining barqarorligi hamda raqobatbardoshligining asosiy omillariga aylanmoqda. Ushbu haqiqatni anglagan holda, biz operatsion samaradorlikni oshirish, xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mijozlar va hamkorlar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan tizimli transformatsiya strategiyasini izchil amalga oshirmoqdamiz.

2025-yil Bank uchun barqaror o‘sish va muhim yutuqlar davri bo‘ldi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kredit siyosati izchil amalga oshirildi. Yil davomida 26,8 trln so‘m miqdorida kreditlar ajratildi, bu esa korporativ sektor, o‘rta, kichik va mikro biznesni moliyalashtirish hamda aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan kirishini kengaytirishga xizmat qildi. Qarz oluvchilarga ko‘rsatilgan manzilli qo‘llab-quvvatlash natijasida qariyb 50 mingta ish o‘rni saqlab qolindi.

Bankning xalqaro moliya bozorlaridagi ishtiroki yanada mustahkamlandi, xususan, yetakchi xalqaro moliya institutlaridan 932 mln AQSH dollaridan ortiq mablag‘ jalb etildi. Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor 300 mln AQSH dollari miqdoridagi “Additional Tier 1” xalqaro obligatsiyalarining chiqarilishi va London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirilishi muhim voqea bo‘ldi.

Raqamli transformatsiya Bankning asosiy strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. 2025-yilda SQBning avtomatlashtirilgan bank tizimi to‘liq zamonaviy Intel arxitekturasiga o‘tkazildi, bu esa xarajatlarni optimallashtirish va tizimlarning 99,9 foiz darajadagi mavjudligini ta’minladi. “SQB Mobile” ilovasi foydalanuvchilari soni 3,5 millionga yetdi, raqamli kanallar esa barqaror daromad o‘sishining muhim drayveriga aylandi. “SQB Business” mobil ilovasi ham yuqori dinamikani namoyon etib, biznes mijozlari o‘rtasida kreditlash va depozitlar hajmining oshishiga xizmat qildi.

Barqaror rivojlanish tamoyillari Bank strategik kun tartibiga mustahkam integratsiya qilingan. ESG mezonlari barcha asosiy faoliyat yo‘nalishlariga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2025-yil yakuniga ko‘ra “yashil” kredit portfeli hajmi 654,3 mln AQSH dollariga yetdi, Bankning 39 ta binosi EDGE xalqaro sertifikatiga ega bo‘ldi, shuningdek, “Sustainable Fitch” agentligi tomonidan SQBga ESG reytingi “3” (59 ball) berildi. Bundan tashqari, Bank ekologik menejment sohasida ISO 14001 xalqaro sertifikatini qo‘lga kiritdi.

Shuningdek, boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va korporativ madaniyatni mustahkamlash orqali tashkiliy samaradorlikni oshirishda davom etmoqdamiz. Ushbu chora-tadbirlar kelajak chaqiriqlariga tayyor, zamonaviy, moslashuvchan va barqaror institutni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida SQB milliy iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo‘shishni davom ettirishni maqsad qilgan. Raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, mijozga yo‘naltirilgan xizmatlarni kengaytirish hamda tadbirkorlar uchun yetakchi raqamli biznes bankiga aylanish maqsadiga izchil intilish davom ettiriladi. Ishonchim komilki, jamoamizning professionalligi, mijozlar ishonchi va hamkorlar qo‘llab-quvvatlashi Bankning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy ko‘rsatkichlar

Moliyaviy ko‘rsatkichlar

Jami aktivlar

97,2 trln so‘m

2025	97,2
2024	84,8

Sof foyda

1 543,8 mlrd so‘m

2025	1 543,8
2024	1 115

Kapital rentabelligi

15,7%

2025	15,7
2024	13,9

Kapital yetarlilik koeffitsienti

17,0%

2025	17,0
2024	15,6

Operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbati koeffitsienti (CIR)

42,7%

2025	42,7
2024	38,7

Sof foiz marjasi (NIM)

4,7%

2025	4,7
2024	4,9

Aktivlar rentabelligi

1,7%

2025	1,7
2024	1,6

Depozitlar

32,1 trln so‘m

2025	32,1
2024	21,1

Kredit portfeli

71,0 trln so‘m

2025	71,0
2024	69,8

Birinchi darajali kapital yetarlilik koeffitsienti (Tier 1)

14,0%

2025	14,0
2024	10,6

Ko‘rsatkichlar MHXS (IFRS) talablariga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar asosida hisoblangan.

Asosiy ko‘rsatkichlar

Ijtimoiy ko‘rsatkichlar

Xodimlarning amaldagi soni

3 965 nafar

2025	3 965
2024	4 054

Imkoniyati cheklangan xodimlar soni

102 nafar

2025	102
2024	28

Kuzatuv kengashi tarkibida ayollar ulushi

33%

2025	33
2024	33

Xodimlar o‘rtasidagi o‘rtacha ish haqi miqdori

11,8 mln so‘m

2025	11,8
2024	9,7

Umumiy o‘quv soatlari soni

4 445 soat

2025	4 445
2024	3 600

Xodimlarni o‘qitish bo‘yicha yillik xarajatlar

15 558 mln so‘m

2025	15 558
2024	15 509

Ekologik ko‘rsatkichlar

Qisqartirish bo‘yicha tashabbuslar natijasida energiya iste’molining kamayishi (Scope 1)

1,900 ming tonna CO_2-ekv

2025	1,900
2024	1,982

Gaz iste’moli (metan, propan)

12 211,0 GJ

2025	12 211,0
2024	17 721,8

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (QTM) energiya iste’moli

6 684,7 GJ

2025	6 684,7
2024	5 786,5

Iste’mol uchun xarid qilingan elektr energiyasi miqdori

22 500,3 GJ

2025	22 500,3
2024	26 053,2

Hosil bo‘ladigan chiqindilar

770,6 tonna

2025	770,6
2024	3 748,3

Umumiy suv olish hajmi

67,197 ming m^3

2025	67,197
2024	74,725

Bank profili

GRI 2-1, 2-6

SQB 1922-yilda tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi uzoq tarixga ega banklardan biri hisoblanadi. Bank an’anaviy ravishda sanoat qurilishi, infratuzilma loyihalari hamda iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan.

Turli davrlarda Bank qayta tashkil etish va transformatsiya bosqichlaridan o‘tib, ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini kengaytirdi hamda energetika va neft-gaz sektori kabi strategik tarmoqlarni qo‘llab-quvvatladi. 2018-yildan boshlab raqamli va operatsion transformatsiya dasturi amalga oshirilmoqda, shuningdek, barqaror moliyalashtirish va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari rivojlantirilmoqda, jumladan yevroobligatsiyalarni joylashtirish hamda energiya samaradorligi sohasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlayapti.

Bank o‘z asosiy faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021-yil 25-dekabrda berilgan 17-sonli umumiy litsenziya doirasida amalga oshiradi.

Ushbu litsenziya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan bank operatsiyalari va boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish huquqini beradi.

Mijozlarga quyidagi bank xizmatlarini ko’rsatadi:

- bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlarini jalb qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash;
- hisob-kitob va kassa xizmatlari, jumladan masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari;
- bank kafolatlari va boshqa hujjatli operatsiyalarni taqdim etish.

Bankning sho‘ba tashkilotlari quyidagilardan iborat:

SQB Ventures

SQB Capital



SQB Insurance

SQB Tower

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritgan:

72
ta filial

173
xizmat ko‘rsatish markazi

>29,9
mingdan ortiq terminal

Korporativ va chakana mijozlar uchun

>2,9
milliondan ortiq bank kartalari chiqarilgan

Bank “SQB Mobile” mobil ilovasini takomillashtirishni davom ettirib, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirmoqda, mijozlar uchun qulaylik darajasini oshirmoqda.

GRI 201-4

Hisobot davrida Bank subsidiyalar, grantlar, dotatsiyalar yoki boshqa bevosita budjet to‘lovlari ko‘rinishidagi davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlashini olmagan.

Hisobot davrida Bank aksiyadorlari tarkibida o‘zgarishlar yuz berdi: oddiy aksiyalarning 40 foizi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkazildi va keyinchalik ushbu aksiyalar paketi Milliy investitsiya jamg‘armasiga topshirildi.

GRI 206-1

SQB erkin bozor raqobati tamoyillarini hurmat qiladi va antimonopol qonunchilik talablariga rioya etadi. Hisobot davrida SQBga nisbatan raqobatni cheklash yoki antimonopol qonunchilikni buzish bo‘yicha sud da’volari kiritilmagan va ko‘rib chiqilmagan. Hisobot sanasiga ko‘ra, Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida tan olinmagan.

GRI 415-1

Hisobot davrida Bank siyosiy partiyalar, tashkilotlar yoki siyosiy xarakterdagi tadbirlarga moliyaviy yordam ko‘rsatmagan, shuningdek lobbistik tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlamagan. Bank siyosiy faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishdan o‘zini tiyadi.



40%

Bankning oddiy aksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya jamg‘armasiga topshirildi



Strategik sharh



924,8

trln so‘m


2026-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston bank sektorining aktivlari

Makroiqtisodiyot va bank sektori tahlili

* Ko‘rsatkichlar BHMS asosidagi hisobotlar asosida taqdim etilgan.

YaIM

O‘zbekiston Respublikasi YaIM dinamikasi




2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi 1 849,7 trln so‘mni tashkil etdi, bu taxminan 147 mlrd AQSH dollariga tengdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistika byulleteniga muvofiq, real YaIM o‘sish sur’ati 7,7 foizga yetdi (2024-yilda 6,5 foiz). Iqtisodiy o‘sishga asosiy hissa xizmatlar sektori (3,9 foiz punkt) va sanoat (1,7 foiz punkt) tomonidan qo‘shildi.

Markaziy bankning bazaviy ssenariysiga ko‘ra, real YaIM o‘sish sur’ati 2026-yilda 5,5–6,5 foiz, 2027–2028-yillarda esa 6–7 foiz darajasida prognoz qilinmoqda.[1]

Inflyatsiya

O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiya dinamikasi, %



2025-yil yakunlariga ko‘ra, yillik inflyatsiya pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Rasmiy ma’lumotlarga muvofiq, 2025-yil dekabr oyida iste’mol narxlari indeksi yillik hisobda 7,3 foizni tashkil etdi, bu 2024-yil dekabridagi ko‘rsatkich (9,8 foiz)dan pastdir.

Markaziy bank inflyatsiya bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichni 5 foiz darajasida saqlab qolmoqda. Regulyator prognozlariga ko‘ra, inflyatsiya 2026-yil yakuniga kelib taxminan 7 foiz atrofida bo‘lishi kutilmoqda, 2027-yilda esa bosqichma-bosqich 5 foizlik maqsadli darajaga yaqinlashadi hamda 2028-yildan boshlab ushbu daraja atrofida barqarorlashadi.

Mazkur prognozlar xususiylashtirish jarayonlarining davom etishi, ichki va tashqi investitsiyalar barqaror o‘sishi hamda iqlim bilan bog‘liq risklarning kuchaymasligi haqidagi taxminlarga asoslanadi.

[1] Monetary Policy Guidelines for 2026-2028.

Tashqi savdo

81,2 mlrd AQSH dollari


O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi, bu 2024-yilga nisbatan 20,7 foizga ko‘p (67,2 mlrd AQSH dollari). Eksport hajmi 24 foizga oshib, 33,8 mlrd AQSH dollariga yetdi, import esa 18,5 foizga o‘sib, 47,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo salbiy balansi 13,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 844 mln AQSH dollariga ko‘paydi.

* Ko‘rsatkichlar BHMS asosidagi hisobotlar asosida taqdim etilgan.

Depozitlar

O‘zbekiston Respublikasi bank sektori jami depozitlari dinamikasi, trln so‘m



10,7 trln so‘m

2025-yil yakunlariga ko‘ra, SQB depozitlar o‘sishi bo‘yicha (+51,6% y/y) O‘zbekiston banklari orasida uchinchi o‘rinni egalladi

Depozitlar o‘sishi yuqori dinamikani saqlab qoldi. 2025-yil depozit mablag‘larining jalb etilishi bo‘yicha yangi rekord yil bo‘ldi: banklarning jami depozit portfeli 417,3 trln so‘mga yetdi, yil davomida 108,7 trln so‘mga oshdi. Yillik o‘sish 35,2 foizni tashkil etdi.

Yirik depozit bazasiga ega banklar soni kengayganiga qaramay, bozor yuqori darajada konsentrlashgan bo‘lib qolmoqda: 2025-yil yakunlariga ko‘ra jami depozitlarning qariyb 68 foizi 10 ta yirik bank hissasiga to‘g‘ri keladi.


2025-yilda depozitlarni jalb qilish bo‘yicha yetakchi banklar:

- Agrobank — +14,1 trln (+72,5% yiliga);
- NBU — +13,6 trln (+36,9% yiliga);
- O‘zsanoatqurilishbank — +10,7 trln (+51,6% yiliga);
- Oktobank — +8,9 trln (+472,7% yiliga);
- Kapitalbank — +7,7 trln (+21,0% yiliga).

* Ko'rsatkichlar BHMS asosidagi hisobotlar asosida taqdim etilgan.


Kreditlar

O‘zbekiston Respublikasi bank sektori kredit portfeli dinamikasi, trln so‘m




O‘zbekiston Respublikasi bank sektori kredit portfeli tarkibi, trln so‘m

jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar



Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar



+13%

jami kredit portfelining o‘sishi

2025-yilda bank sektori kredit portfeli barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etishda davom etdi. Berilgan kreditlarning umumiy hajmi 2025-yil boshida 533,1 trln so‘mdan 2026-yil boshida 604,0 trln so‘mga yetdi, bu 13 foizlik o‘sishga mos keladi. O‘sish asosan chakana kreditlash hajmining kengayishi hisobiga ta’minlandi, bu esa sektor kredit faolligining asosiy drayveri bo‘lib qoldi.

Kredit portfelining yillik o‘sishiga eng katta hissa chakana kreditlar hisobidan kelib tushdi, ular 24%ga oshdi. Chakana kreditlarning tez o‘sishi iste’mol moliyalashtirish imkoniyatlarining oshishi va raqamli kreditlash kanallarining faol rivojlanishi fonida sodir bo‘ldi.

Chakana savdo segmentida yuqori o‘sish sur’atlari quyidagilarda kuzatildi:


- Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar, ular 20,95 trillion so‘mga (+107%) oshdi;
- Ipoteka kreditlari, ular 11,67 trillion so‘mga (+17%) oshdi;
- Mikrokreditlar, ular 6,49 trillion so‘mga (+15%) oshdi.

Korporativ kreditlar ham ijobiy dinamikani namoyish etdi, ammo ularning umumiy o‘sishga qo‘shgan hissasi chakana savdo sektoriga nisbatan unchalik katta emas edi. Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hajmi 28,1 trillion so‘mga (+8%) oshdi. Korporativ segmentga eng katta hissa moliya institutlari bo‘lmagan tashkilotlarga berilgan kreditlar hisobidan qo‘shildi: ularning hajmi 29,6 trillion so‘mga oshdi, bu 9% o‘sishga to‘g‘ri keladi.

* Ko'rsatkichlar BHMS asosidagi hisobotlar asosida taqdim etilgan.

Aktivlar

O‘zbekiston Respublikasi bank sektori jami aktivlari dinamikasi, trln so‘m




+11,1%

SQB ulushiga jami aktivlarning 11,1 foizi to‘g‘ri keladi

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, bank sektori aktivlari 924,8 trln so‘mni tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 20,2 foizga o‘sishni anglatadi. SQB ulushiga jami aktivlarning 11,1 foizi to‘g‘ri keladi. Aktivlar hajmi bo‘yicha SQB bank tizimida uchinchi o‘rinni egallaydi, faqat O‘zbekiston Milliy banki (15,6%) va Agrobank (11,2%)dan keyin turadi.

Kapital

O‘zbekiston Respublikasi bank sektori jami kapitali dinamikasi, trln so‘m



+9,8%

SQB kapitalining yillik ko‘rsatkichdagi o‘sishi

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, bank sektori kapitali 135,3 trillion so‘mni tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilga nisbatan 18 foizlik o‘sishni anglatadi. SQB o‘z kapitali hajmi bo‘yicha eng yirik banklardan biri sifatidagi mavqeini saqlab qoldi. SQB kapitali o‘tgan yilga nisbatan 9,8 foizga o‘sib, 10,2 trillion so‘mga yetdi va bank O‘zbekiston Milliy banki hamda “Agrobank”dan keyin uchinchi o‘rinni egalladi.

Rivojlanish strategiyasi

SQB 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan Rivojlanish strategiyasini amalga oshirmoqda. Mazkur strategiya Bankning raqobat ustunliklarini rivojlantirish, biznesning universal xususiyatini saqlagan holda innovatsion-texnologik va mijozga yo‘naltirilgan modelga o‘tishga qaratilgan. Strategiya biznes barqarorligini oshirish, daromadlar va aktivlar sifatini yaxshilash, raqamli kanallarni rivojlantirish hamda ESG tamoyillarini faoliyat va risklarni boshqarish tizimiga joriy etishni nazarda tutadi.



Missiya

Mijozlarni zamonaviy va ishonchli moliyaviy yechimlar bilan ta’minlash, iqtisodiyot rivojini qo’llab-quvvatlash, texnologik va barqaror yondashuvlar orqali bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bank qadriyati

An’anaviy bank modelidan innovatsion-texnologik va mijozga yo‘naltirilgan faoliyat formatiga o‘tish, yuqori operatsion samaradorlikka erishish hamda zamonaviy risklarni boshqarish vositalarini joriy etish — Bank qadriyatidir.

Strategiyaning asosiy ustuvor yo‘nalishlari

- Aksiyadorlik kapitali qiymatini maksimal darajada oshirish
- Jarayonlarni raqamlashtirish
- Operatsion samaradorlikni oshirish
- Natijaga yo‘naltirilgan korporativ madaniyatni rivojlantirish

Raqamlashtirish Strategiyani amalga oshirishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bank “Digital Bank 1.0” va “Digital Bank 2.0” dasturlarini rivojlantirmoqda, onlayn kanallarni kengaytirmoqda, jarayonlarni avtomatlashtirmoqda (jumladan CRM va kredit konveyeri), ma’lumotlarni tahlil qilish vositalarini joriy etmoqda hamda risklarni baholash modellarini takomillashtirmoqda. Bu operatsiyalarni qayta ishlash tezligini oshirish va boshqaruv jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, Bank aktivlar rentabelligi (ROA) 1,7% va o‘z kapitali rentabelligi (ROE) 15,7% ko‘rsatkichlariga erishdi, bu hisobot yiliga belgilangan strategik maqsadli ko‘rsatkichlardan yuqoridir. 2025-yil davomida mahsulot yechimlarini rivojlantirish, ichki loyihalar va biznes jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan 140 dan ortiq tashabbus amalga oshirildi.

2025-yilda Bank mahsulotlar liniyasini rivojlantirishni davom ettirdi. Korporativ segmentda yangi kredit (jumladan “yashil” kreditlar) va depozit mahsulotlari, shuningdek raqamli mahsulotlar joriy etildi. Kichik va mikro biznes yo‘nalishida asosiy e’tibor paketli takliflar va mobil POS terminallar joriy etish orqali ommaviy segmentlarni qamrab olishga qaratildi. Chakana segmentda biznes kartalar va “yashil” mahsulotlar, jumladan quyosh panellarini o‘rnatish uchun kreditlar rivojlantirildi.

Yashil moliyalashtirish va ESG kun tartibi Bank strategiyasiga uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishi sifatida integratsiya qilingan. 2025-yil yakuniga ko‘ra “yashil” kreditlar hajmi 101 mln AQSH dollaridan oshdi. Shuningdek, mahsulotlar qatorida “Green Energy Microloan” hamda “Bioinvest” depoziti kabi korporativ va chakana “yashil” mahsulotlar rivojlantirildi, bunda daromadning 0,5 foizi shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, Bank Fitch tomonidan ESG bahosini oldi, filiallar esa EDGE standartiga muvofiq binolarning energiya samaradorligi bo‘yicha ESG sertifikatidan o‘tdi. Moliyalashtirilayotgan emissiyalarni kamaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar hamda Parij kelishuviga rasmiy bog‘liqlik hozircha belgilanmagan bo‘lib, ushbu masala ESG yondashuvini keyingi rivojlantirish doirasida ko‘rib chiqmoqda.

2025-yilning muhim bosqichlaridan biri, SQB Ventures venchur kompaniyasining tashkil etilishi bo‘ldi. Bu daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va texnologik loyihalarga investitsiya kiritish orqali mahsulot ekotozimini kengaytirishga xizmat qiladi. SQB Ventures bank biznesini to‘ldirishi va chakana mijozlar va kichik va o‘rta biznes uchun mahsulot ekotizimini kengaytirishi mumkin bo‘lgan yuqori o‘sish salohiyatiga ega startaplarga sarmoya kiritadi. Bozor hajmi cheklanganligi sababli “yashil” startaplar uchun rasmiy ustuvorlik hali belgilanmagan. Bunday ustuvorlikni belgilashning maqsadga muvofiqligi hozirgi bozor sharoitlariga qarab baholanmoqda.

Raqamli biznes yo‘nalishida Bank chakana mijozlar uchun mobil xizmatlar va investitsion funksionallikni rivojlantirmoqda, korporativ segment uchun esa kapital bozoridagi xizmatlar (obligatsiyalarni anderrayting qilish), xedjirlash vositalari va strukturaviy bitimlar taklif etilmoqda.

Biznes jarayonlari transformatsiyasi

SQB yetakchi xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalari bilan hamkorlikda transformatsiya dasturini amalga oshirmoqda. Mazkur jarayon korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, zamonaviy risk-menejment standartlarini joriy etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan. Transformatsiya Bankning asosiy biznes yo‘nalishlarini qamrab oladi va operatsion modelni tizimli ravishda yangilashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv barqarorlikni ta’minlash hamda mijozlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratishga yo‘naltirilgan.

Bank jarayonlarini transformatsiya qilishda ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish, global moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda investitsion bank xizmatlari sohasida eng yaxshi amaliyotlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda yetakchi xalqaro banklar va moliyaviy tashkilotlar vakillari bilan strategik ahamiyatga ega tashriflar va uchrashuvlar tashkil etildi.

2025-yilda transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari

Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini rivojlantirish

- Mijozlar operatsiyalarini onlayn formatga o'tkazish hamda masofaviy bank xizmatlari (DBO) tizimlarini rivojlantirish.

Operatsion modelni optimallashtirish

- Asosiy biznes jarayonlarini qayta ko‘rib chiqish va raqamlashtirish;
- Shaffoflikni oshirish hamda xizmat ko‘rsatish tartib-tamoyillarini standartlashtirish.

Raqamli transformatsiya

- Onlayn kreditlash va avtomatlashtirilgan kredit konveyerini ishga tushirish;
- Yuridik shaxslar uchun skoring modellarini joriy etish;
- Process Mining (jarayonlarni tahlil qilish) va Task Mining (vazifalarni tahlil qilish) raqamli texnologiyalarini joriy etish.

Tashkiliy tuzilmani transformatsiya qilish

- O'rta biznes segmentini alohida yo'nalish sifatida ajratish: 2025-yilda Bank ushbu segmentga ixtisoslashgan yondashuvni shakllantirish hamda mahsulotlar liniyasini takomillashtirish maqsadida o'rta biznesni mustaqil yo'nalish sifatida ajratdi.
- Qarzdorlikni undirishning yagona markazini shakllantirish: 2025-yilda Bank muammoli qarzdorlikni boshqarishning yagona modelini joriy etdi, bu operatsiyalar shaffofligini oshirish, riskli holatlarga tezkor javob berish hamda kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligini kuchaytirishga xizmat qildi, shu bilan birga mijozga yo‘naltirilgan yondashuv saqlab qolindi.

Xalqaro hamkorlik

GRI 2-28

2025-yilda SQB xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirishni davom ettirdi, bu esa tashqi moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan mijozlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ilg‘or bank amaliyotlarini joriy etishga xizmat qildi. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar bilan hamkorlik Bankning resurs bazasini kengaytirish, xalqaro operatsiyalarni rivojlantirish hamda mijozlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda muhim omil bo‘ldi.

2025-yilda jalb qilingan resurslar turlari bo‘yicha, mln AQSH dollari


300
AT1 obligatsiyalarini chiqarish

8,9
Postmoliyalashtirish (akkreditivlar) va boshqalar

47,8
EKA (Eksport kredit agentliklari) kafolati ostida jalb qilingan mablag‘lar

50
Yevroobligatsiyalar

93,1
Xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan resurslar



732
Bilaterial kreditlar

Hisobot davridagi asosiy voqealar:

1 IFC bilan hamkorlikni kengaytirish

2025-yilda Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC)ning Global Trade Finance Program doirasidagi Bank limiti 20 mln dollardan 40 mln dollarga oshirildi. Bu mijozlarning eksport-import operatsiyalarini kengroq qo‘llab-quvvatlash hamda SQBning xalqaro savdodagi mavqeini mustahkamlash imkonini berdi.

2 Germaniya banklari DZ Bank va AKA Bank bilan bitimlar imzolash

Germaniya-O‘zbekiston biznes kengashi doirasida SQB 100 mln yevro miqdorida shartnomalar imzoladi. Ushbu hamkorlik savdo moliyalashtirish, g‘aznachilik operatsiyalari hamda mikro, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

3 Fransiya moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish

Parijdagi xalqaro uchrashuvlar davomida Societe Generale bilan 150 mln yevro miqdorida bitim imzolandi, shuningdek, ODDO BHF bilan (70 mln AQSH dollari) investitsion va savdo loyihalarini moliyalashtirish, ESG tashabbuslarini rivojlantirish hamda tajriba almashish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

4 SIBOS 2025 konferensiyasida ishtirok etish

Global moliyaviy konferensiya doirasida Bank J.P. Morgan, Citi, ICBC, Deutsche Bank va boshqa yetakchi institutlar bilan muzokaralar olib bordi hamda xalqaro hisob-kitoblarni rivojlantirish va innovatsion yechimlarni joriy etishga qaratilgan 150 mln dollarlik bitimlar imzoladi.

5 Xalqaro moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish tashabbuslarida ishtirok etish

SQB YTTB, YIB, Jahon banki va boshqa institutlar ishtirokidagi xalqaro platformalar va muloqotlarda qatnashib, xalqaro kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Qolaversa, yangi moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirishga hissa qo’shdi.

6 Xalqaro kapital bozorida yuqori e’tirof

2025-yilda Bank GlobalCapital tomonidan “CEE Deal of the Year” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ushbu e’tirof Bankning xalqaro kapital bozori operatsiyalaridagi ishtiroki va zamonaviy kapital jalb qilish instrumentlarini joriy etishdagi yutuqlarini aks ettiradi.

Hamkor banklarning vakillik tarmog‘i



52 Nostro hisobvaraqlar

1	Singapur	8	Pokiston
2	Buyuk Britaniya	9	BAA
3	Xitoy	10	Shveysariya
4	Avstriya	11	Germaniya
5	Yaponiya	12	Koreya
6	Qozog‘iston	13	Turkiya
7	Qirg‘iziston	14	AQSH

66 Loro hisobvaraqlar

1	Turkiya
2	Buyuk Britaniya
3	Qirg‘iziston
4	Gruziya
5	BAA
6	O‘zbekiston
7	Tojikiston

Bankning operatsion va moliyaviy natijalari



89 950

yuridik mijoz*

2025-yilda filiallar tarmog‘i orqali bank xizmatlaridan foydalangan

*Ushbu ko'rsatkich hisoboti davrida faol mijozlarni ham, bank xizmatlaridan bir martalik foydalangan mijozlarni ham o'z ichiga oladi.

Asosiy faoliyat yo‘nalishlari sharhi

2025-yilda SQB biznes-model transformatsiyasini yakunladi va to‘rtta asosiy yo‘nalishni shakllantirdi: korporativ biznes, o‘rta biznes segmenti, mikro va kichik biznes hamda chakana biznes.

Mijozlar bazasini segmentatsiya qilish har yili amalga oshiriladi, bu esa har bir mijoz toifasining ehtiyojlariga mos ravishda mahsulot takliflari, xizmat ko‘rsatish modellari va rivojlanish strategiyasini aniqroq moslashtirish imkonini beradi.

Yil davomida muhim texnologik bosqichlardan biri sifatida onlayn kreditlash joriy etildi hamda yuridik shaxslar uchun skoring parametrlarini avtomatlashtirilgan baholashga ega kredit konveyeri ishga tushirildi. Ushbu yondashuv qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, arizalarni qayta ishlash samaradorligini oshirish va operatsion yuklamani kamaytirishga xizmat qildi. Bankning asosiy strategik yo‘nalishi mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini rivojlantirish hamda mijozlarni bosqichma-bosqich onlayn muhitga o‘tkazishga qaratilgan.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, operatsiyalarning qariyb 63 foizi masofaviy bank xizmatlari shaklga o‘tkazildi. 2026-yilda SQB raqamli platformalarining funksionalligini kengaytirishda davom etish va mijozlar jarayonlarini optimallashtirish orqali bu ko‘rsatkichni 97% ga yetkazishni rejalashtirmoqda. Rivojlanishning keyingi bosqichi mijozlarning xatti-harakatlarini chuqurroq tahlil qilish, xizmatlarni yanada individuallashtirish va uzoq muddatli mijozlar bilan munosabatlarning qiymatini oshirishga qaratilgan mijozlar qiymatini boshqarish yondashuvini joriy etishdir.



63%

operatsiyalar

masofaviy bank xizmati formatiga o‘tkazildi

Korporativ biznes

2025-yilda SQB korporativ biznesi rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘zining muhim rolini saqlab qoldi. Ushbu segment mijozlar bazasining barqaror o‘sishini, kredit portfelining diversifikatsiyasini hamda korporativ mijozlar uchun taklif etilayotgan yechimlar ko‘lamining kengayishini ta’minladi. Yo‘nalish xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ichki jarayonlarni takomillashtirish va yangi mahsulot tashabbuslarini joriy etishga alohida e’tibor qaratgan holda izchil rivojlantirildi.

Korporativ markazning tashkiliy tuzilmasi funksional tamoyil asosida shakllantirilgan bo‘lib, mijozlarga kompleks va uzluksiz xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Korporativ markaz operatsion, tranzaksion va valyuta bloklarini birlashtiradi hamda hisob-kitob operatsiyalarining uzluksiz bajarilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va tranzaksion xizmatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Alohida kredit tahlili xizmati bitimlarni dastlabki ekspertizadan o‘tkazib, asosli kredit qarorlarini qabul qilish uchun zamin yaratadi.

Mijozlar bilan o‘zaro hamkorlikda asosiy rolni korporativ segment bilan ishlash bo‘yicha menejerlar (Relationship Management) bloki bajaradi. Ushbu blok uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va biznes-reja ko‘rsatkichlariga erishish uchun mas’ul hisoblanadi. Mahsulot bo‘linmasi esa mijozlarga taklif etilayotgan xizmatlar qiymatini oshiruvchi yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan.

Biznesni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash biznes-tahlil, kredit portfelini monitoring qilish, undirish va muammoli qarzdorlik bilan ishlash bo‘linmalari tomonidan ta’minlanadi. Ularning faoliyati operatsion samaradorlikni oshirish va risklarni boshqarish tizimini kuchaytirishga qaratilgan.

2025-yil holatiga ko‘ra, Bankning korporativ biznesi 1 360 nafar mijozga xizmat ko‘rsatmoqda, shundan 667 tasi faol mijozlardir. Yil davomida mijozlar bazasi 68 dan ortiq korporativ mijozlar hisobiga kengaytirildi, ular orasida davlat tashkilotlari hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi xususiy sektor vakillari mavjud.

1 360

mijozga

2025-yil holatiga ko‘ra, Bankning korporativ biznesi tomonidan xizmat ko‘rsatiladi

36,5

trln so‘m

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, korporativ segment kredit portfelining jami hajmi (Bankning umumiy kredit portfelining 51,4 foizi)

Portfelning eng katta ulushi quyidagi tarmoqlarga to‘g‘ri keladi



9%
Qurilish materiallari

14%
To‘qimachilik sanoati

6%
Energetika

55%
Boshqa yo‘nalishlar

10%
Neft-gaz va kimyo sanoati

6%
Qishloq xo‘jaligi sohasi

Qolgan mijozlar kimyo sanoati va boshqa tarmoqlar o‘rtasida taqsimlangan. Bunday diversifikatsiya portfelni yanada muvozanatli boshqarish imkonini berib, risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi hamda iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega sektorlariga e’tiborni kuchaytiradi.

Korporativ biznesning moliyaviy ko‘rsatkichlari barqaror dinamikani namoyon etdi:

2025-yil uchun kredit portfeli bo‘yicha reja

100% bajarildi,

depozit bazasi bo‘yicha esa

124% ga yetdi.

Umumiy daromad rejalashtirilgan darajaning 96%ini tashkil etdi, bunda foizli daromad

100%

foizsiz daromad esa

90% bajarildi.

O‘rta biznes

2025-yil boshida SQBda kichik va o‘rta biznes yo‘nalishidan ajratilgan alohida O‘rta biznes segmenti (O‘rta biznes markazi) shakllantirildi. Ushbu ixtisoslashgan bo‘linmaning tashkil etilishi Bank amaliyotidagi dastlabki shunday qarorlardan biri bo’lib, mazkur toifadagi mijozlarga yanada moslashuvchan va maslahatga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish zarurati bilan bog‘liq edi. Mijozlar bilan ishlashda ularning individual ehtiyojlarini chuqur o’rganish, tahlil qilish, bu uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini shakllantirish va sotuvlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish O‘rta biznes markazi doirasida markazlashtirilgan bo‘lib, operatsion xizmat ko‘rsatish, kreditlash, bitimlarni monitoring qilish va muammoli qarzdorlik bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. Markaz tashkil etilgandan so‘ng mijozlar bazasi 738 tadan 809 tagacha oshdi, bu segmentning kengayganini ko‘rsatadi.

2025-yil yakuni holatiga ko‘ra, O‘rta biznes markazining kredit portfeli 16,3 trln so‘mni tashkil etdi va quyidagi tuzilma bilan tavsiflanadi:

Muddati bo‘yicha:

- Uzoq muddatli kreditlar — 13,2 trln so‘m (81%);
- Qisqa muddatli kreditlar — 3,1 trln so‘m (19%).

Valyuta bo‘yicha:

- Xorijiy valyutadagi kreditlar — 76%;
- Milliy valyutadagi kreditlar — 24%.

Tarmoq diversifikatsiyasi bo‘yicha:

- Ishlab chiqarish sanoati — 37% (67 ta kompaniya);
- Savdo va umumiy ovqatlanish — 26% (48 ta kompaniya);
- Qishloq xo‘jaligi — 11% (20 ta kompaniya);
- Qurilish sohasi — 11% (20 ta kompaniya);
- Boshqa tarmoqlar — 15% (27 ta kompaniya).

Segment bo‘yicha jami qarz oluvchilar soni 182 ta kompaniyani tashkil etadi.

Yil davomida Bank raqamli depozit mahsulotlarini faol rivojlantirdi. Mablag‘larni to‘ldirish va qisman yechib olish imkoniyatiga ega moslashuvchan onlayn depozit joriy etilishi resurs bazasini sezilarli darajada oshirish va mijozlar sodiqligini kuchaytirishga xizmat qildi.

O‘rta biznes segmenti depozit bazasi dinamikasi:

- Jami depozit qoldiqlari 746 mlrd so‘mdan 1.54 trln so‘mga oshdi (+106% o‘sish);
- Talab qilib olinguncha hisobvaraqlar 64% ga ko‘paydi;
- Muddatli depozitlar 263 foizga o‘sishni ko‘rsatdi.

Yilning asosiy yutuqlaridan biri mijozlar bilan ishlash sifatini oshirish va rentabellikni kuchaytirishga qaratilgan chuqur intervyular asosidagi konsultativ sotuvlar tizimini joriy etish bo‘ldi.

16,3
trln so‘m

O‘rta biznes markazining kredit portfeli

2026-yilda SQB sotuv triggerlarini shakllantirish va mijozlarga xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt vositalarini joriy etish orqali tahliliy funksiyalarni kuchaytirishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, xorijiy mijozlarga xizmat ko’rsatish yo’nalishini kengaytirish va foizsiz daromadlar ulushini oshirish ko’zda tutilgan.

Mikro va kichik biznes

2025-yilda SQB mikro va kichik biznes yo‘nalishini ilgari o‘rta biznes bloki tarkibida bo‘lgan segmentdan ajratib, mustaqil segment sifatida shakllantirdi. Ushbu transformatsiyaning asosiy maqsadi xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish hamda mahsulotlar liniyasini ommaviy tadbirkorlik segmenti ehtiyojlariga yanada moslashtirishdan iborat bo‘ldi. Yil davomida Bank biznes jarayonlarini kompleks tahlil qildi, jumladan milliy va xorijiy valyutadagi operatsiyalarni o‘rganish natijasida mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish va tranzaksiyalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirishga erishildi. Xususan, valyuta nazorati jarayonlari optimallashtirildi hamda Toshkent shahrida avtomatlashtirilgan depozit mashinalari (ADM) joriy etildi. Ushbu yechim hisob-kitob hisobvaraqlari va kartalarni 24/7 rejimida to‘ldirish imkonini ta’minladi.

Segmentning faol mijozlar bazasi barqaror o‘sish dinamikasini namoyon etdi: 2025-yil boshida 37 837 nafarni tashkil etgan mijozlar soni hisobot davri yakuniga kelib, qariyb 47 ming nafar faol mijozga yetdi. Yil davomida jami 15 500 dan ortiq yangi mijozlar jalb etildi.



2025-yil yakunlariga ko‘ra, mikro va kichik biznes segmentining asosiy ko‘rsatkichlari

5 984
mlrd so‘m
kredit portfeli

3 667
mlrd so‘m
kredit ajratish

55%
valyuta kreditlash ulushi

1 097
mlrd so‘m
foizli daromad
(umumiy daromadning 76%)

338
mlrd so‘m
foizsiz daromad

1 980
mlrd so‘m
depozit portfeli
(2025-yil fakt)

~47
ming kishi
faol mijozlar soni

1 209
mlrd so‘m
talab qilib olingunga qadar depozitlar

Yil davomida onlayn kreditlashning skoring modeli yordamida rivojlanishi segment o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shdi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkonini berdi. Qo‘shimcha ravishda 2025-yilda SQB ixtisoslashtirilgan mahsulotlar qatorini, jumladan, tadbirkor ayollar uchun “Hamroh Dasturi” kredit dasturini kengaytirdi.

SQB yosh tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida YeTTB va Yosh tadbirkorlikni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi bilan hamkorlikda “Yoshlar biznesda” kredit mahsulotini amalga oshiradi. Dastur mikro va kichik biznesga qaratilgan: yosh yakka tartibdagi tadbirkorlar va ≥51% ulushi va/yoki rahbari O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan 18–30 yoshdagi (ayrim dasturlarda — 35 yoshgacha) yuridik shaxslar.

Moliyalashtirish so‘mda taqdim etiladi va aylanma kapital hamda investitsion maqsadlarga (binolar, uskunalar, texnika/transport, savdo va xizmat ko‘rsatish ob’yektlari, ta’lim, qishloq xo‘jaligi va boshqalar) yo‘naltirilishi mumkin.

Chakana biznes

SQB Chakana biznes departamenti O‘zbekiston aholisi ehtiyojlariga yo‘naltirilgan hamda raqamli xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli moliyaviy yechimlarni taklif etadi. Yangilangan mahsulot portfeli kredit va nokredit mahsulotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular Bank bo‘limlarida ham, masofaviy kanallar orqali ham taqdim etiladi. Bu esa mijozlar uchun qulaylik yaratadi va moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshiradi.

Kredit yechimlari o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlar uchun mikrokreditlarni (jumladan, “Agroko‘makchi”, “Biznesga birinchi qadam-2” va “Biznesga ikkinchi qadam” dasturlari), onlayn overdraftlarni, SQB Mobile ilovasi orqali rasmiylashtiriladigan kredit kartalarini, ipoteka dasturlarini, avtokreditlarni, iste’mol va ta’lim kreditlarini qamrab oladi.

Nokredit xizmatlar UzCard, Humo, Visa, Mastercard va UnionPay kabi bank kartalarining keng turini, depozit mahsulotlarini, xalqaro pul o‘tkazmalarini, qimmatbaho metallar bo‘yicha investitsiya yechimlarini hamda moliyaviy majburiyatlarni o‘tkazish xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Bank shaffoflik va mas’uliyatli kreditlash tamoyillarini izchil mustahkamlab bormoqda, mijozlarga moliyaviy mahsulotlar shartlarini to‘liq va tushunarli tarzda yetkazilishini ta’minlaydi. Kredit yechimlarini ishlab chiqish va taqdim etishning barcha jarayonlari Markaziy bankning 3030-sonli yo‘riqnomasi talablariga muvofiq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu qarz oluvchilar huquqlarini himoya qilishga, moliyaviy savodxonlikni oshirishga hamda mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yil davomida 92 mingdan ortiq mijozga jami 3,7 trln so‘m miqdorida kreditlar ajratildi, jumladan, qariyb 1,3 trln so‘m ipoteka kreditlari va 1,6 trln so‘m mikrokreditlar. Segmentning foizli daromadi 2,2 trln so‘mni tashkil etib, bu Bank umumiy daromadining taxminan 20 foiziga to‘g‘ri keladi.

Chakana biznesning foizsiz daromadlari 368,4 mlrd so‘mga yetdi (Bank umumiy daromadining 14 foizi), bu o‘tgan yil ko‘rsatkichidan 89,2 mlrd so‘mga ko‘pdir. O‘sish kartochka va investitsiya mahsulotlarini faol rivojlantirish, oltin savdosining yo‘lga qo‘yilishi hisobiga ta’minlandi. Chakana segmentning faol mijozlar bazasi 1,312 mln nafarga yetib, 9,1 foizga (+110 ming mijoz) o‘sdi.

Yil davomida SQB qator muhim tashabbuslarni ham amalga oshirdi, jumladan, developerlar bilan hamkorlikda qurilish bosqichida ipoteka kreditlashni joriy etish, ochiq kredit liniyasiga ega mikrokreditlarni ishga tushirish, xalqaro pul o‘tkazmalarini rivojlantirish hamda riskka asoslangan narxlash (risk-based pricing, RBP) yondashuvini joriy etish.

2026-yilga mo‘ljallangan rejalar

2026-yilda chakana biznesning ustuvor yo‘nalishlari kartochka biznesini rivojlantirish, foizsiz daromadlarni yanada oshirish hamda yangi imtiyozli dasturlarni, jumladan, elektromobillarni kreditlashni yo‘lga qo‘yishdan iborat bo‘ladi. Bank, shuningdek, talab qilib olinguncha mablag‘lar hajmini oshirishni hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish qulayligi va tezligini ta’minlovchi raqamli xizmatlarni rivojlantirishni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

Chakana kredit portfelining tuzilmasi, trln so‘m



2,6
mikrokreditlar

0,2
avtokreditlar


0,6
ta’lim kreditlari

6,5
ipoteka kreditlari

10,1
trln so‘m
Chakana kredit portfeli

99,3%
uzoq muddatli kreditlar ulushi portfelning

Jismoniy shaxslarning depozit portfelining tuzilmasi, trln so‘m



4,3
muddatli depozitlar

2,0
talab qilib olinguncha mablag‘lar

4,4
jamg‘arma omonatlari

10,7
trln so‘m
jismoniy shaxslarning depozit portfeli

1,312
mln mijoz
chakana segmentning faol mijozlar bazasi

Premium yo‘nalishni ishga tushirilishi

2025-yilda SQB mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida premium xizmat ko‘rsatish bo‘yicha alohida yo‘nalishni ishga tushirish to‘g‘risida strategik qaror qabul qildi. O’z mustaqil falsafasi, professional jamoasi va ixtisoslashtirilgan mahsulotlariga ega Private Banking modeli shakllantirildi.

Premium yo‘nalish yuqori darajadagi xizmat sifati, tezkor qaror qabul qilish, individual yondashuv hamda maksimal maxfiylikka ehtiyoj sezuvchi mijozlar segmentiga yo‘naltirilgan. Ushbu yo‘nalishning asosiy maqsadi — moliyaviy xizmatlar mijozlarning turmush tarzi va ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan, xalqaro standartlarga mos premium xizmatlar ekotizimini yaratishdan iboratdir. Yo‘nalish doirasida Toshkent shahrining tarixiy qismida ilk yopiq Premium ofis ochildi. Ushbu manzil tanlovi konsepsiyaning mazmunini — an’anaviy qadriyatlar, yuqori maqom va zamonaviy moliyaviy yechimlarning uyg‘unligi ifodalaydi. Ofis oddiy bank bo‘limi sifatida emas, balki ishonchga asoslangan shaxsiy muloqot maydoni sifatida tashkil etilib, mijozlarga yuqori darajadagi maxfiylik bilan individual xizmat ko’rsatadi.

Shu bilan birga, Bank premium xizmatlarni mintaqaviy darajada kengaytirishni rejalashtirmoqda. Xususan, Samarqand shahrida ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu hudud biznes faolligi yuqori bo‘lgan hamda individual yondashuvga ehtiyoji mavjud mijozlar kontsentratsiyasi bilan ajralib turadi. SQB uchun premium banking xizmatlarining nafaqat Toshkentda, balki mamlakatning asosiy iqtisodiy markazlarida ham mavjud bo‘lishi strategik ahamiyatga ega. Premium yo‘nalish doirasida alohida raqamli ekotizim shakllantirilmoqda. Premium veb-sayt yaratilishi bilan bir qatorda, Bank mobil ilovasiga ushbu segment uchun moslashtirilgan interfeys va funksionallik integratsiya qilinmoqda. Raqamli yechimlarda qulaylik, tezkorlik va ma’lumotlar xavfsizligi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Yaratilayotgan premium taklif O‘zbekiston bank bozoridagi an’anaviy xizmat ko‘rsatish modellaridan farq qiladi. U kompleks moliyaviy yechimlar, shaxsiy xizmat ko‘rsatish hamda investitsiya imkoniyatlariga asoslangan. Modelni ishlab chiqishda mijozlarning kutishlari va Private Banking sohasidagi ilg‘or xalqaro tajribalar chuqur o‘rganilgan va inobatga olingan.

Shuningdek, premium yo‘nalish doirasida yuqori darajadagi mijozlar uchun yopiq klub tashkil etilmoqda. Klubga a’zolik Bank bilan shakllangan ishonch darajasi va uzoq muddatli hamkorlik asosida belgilanadi. Ushbu hamjamiyat doirasida individual tadbirlar, yopiq uchrashuvlar, maxsus takliflar hamda hamkorlik dasturlariga kirish imkoniyati yaratiladi, shuningdek, yuqori darajadagi maxfiylik va shaxsiy xizmat ko‘rsatish ta’minlanadi.

2025-yil Premium ofis faoliyati natijalari

2025-yil yakunlariga ko‘ra, Premium ofis faoliyatida quyidagi ko‘rsatkichlarga erishildi:


1 350
faol mijozlar umumiy soni

91
talab qilib olinguncha hisobvaraqlari va muddatli depozitlarda qoldiq mablag‘larga ega mijozlar soni

148
hisobvaraqlarda qoldiq mablag‘larga ega shartnomalar soni

879
faqat to‘lov kartasidan foydalanadigan mijozlar

465
qo‘shimcha bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar



Raqamli biznes

2025-yilda SQB raqamli transformatsiya strategiyasini izchil davom ettirdi, natijada raqamli kanallar mijozlar bazasining o‘sishi, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. SQB Mobile va SQB Business ilovalari bozordagi o‘z pozitsiyasini mustahkamlab, chakana segmentda ham, yuridik shaxslar orasida ham mijozlarning Bank bilan o‘zaro aloqasini ta’minlovchi asosiy vositalarga aylandi.

Raqamli faollikning o‘sishi va mijozlar bazasining kengayishi

2025-yilda ikkala raqamli kanal ham barqaror o‘sishni va reja ko‘rsatkichlaridan yuqori natijalarni qayd etdi.

SQB Business

45,2
ming
Foydalanuvchilar

221
mlrd so‘m
Umumiy daromad

215,2
mlrd so‘m
Komission daromad

404,9
mlrd so‘m
Onlayn depozitlar

121,6
mlrd so‘m
Onlayn kreditlar portfeli

SQB Mobile

3,5
mln
Foydalanuvchilar

798
ming
MAU

2,9
trln so‘m
Onlayn depozitlar

620
mlrd so‘m
Onlayn kreditlar portfeli

874
mln so‘m
Sadoqat dasturi
cashback

861,4
mln so‘m
bonuslar

2025-yilning asosiy yutuqlari

Biznes uchun onlayn xizmatlar

2025-yilda Bank yuridik shaxslar uchun to'liq raqamli xizmat ko'rsatish konturini yaratdi:

Kichik va o'rta biznes (KOB) uchun to'liq onlayn kredit — mablag' ajratish vaqti **5 daqiqagacha** qisqartirildi

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) va yuridik shaxslar uchun hisob raqamlarini onlayn ochish — 1–2 soat o'rniga **10 daqiqa**; filiallarga tashriflar **60%** ga kamaydi

Onlayn tariflar: **5 ta paket** ishga tushirildi, **297** ta sotuv amalga oshirildi

Onlayn depozitlar: **5 ta mahsulot** joriy etildi, **2,0 trln so'm** mablag' jalb qilindi

Ish haqi kartalarini onlayn ochish: **2 000 ta karta**, rasmiylashtirish vaqti **1–2 daqiqagacha** qisqartirildi

Bankka onlayn murojaat (xat yuborish): hujjat topshirish vaqti **1 soatdan 3 daqiqagacha** qisqartirildi

Aholi uchun raqamli xizmatlar

Chakana raqamli bank xizmatlari SQB Mobile funksionalligini sezilarli darajada kengaytirdi:

Oltin sotib olish/sotish — **114 mlrd so'mdan** ortiq aylanma

Bank kartalarini emissiya qilish va yetkazib berish — **2 329 ta karta**

Kreditga layoqatlilikni to'liq onlayn tekshirish — filialga tashriflarsiz

Gibrid depozit boshqaruvi (oflayn omonat, onlayn nazorat)

Yangilangan "Mening uyim" xizmati va avtomatik to'lovlar:
- **15 mlrd so'm** to'lov amalga oshirilgan
- **3,7 mingta** avtomatik to'lov ishga tushirilgan

Ushbu yechimlar mavjud onlayn xizmatlar sonini sezilarli darajada kengaytirish hamda mijozlarning jismoniy filiallarga bog'liqligini kamaytirish imkonini berdi.

SQB Business — 2026-yil uchun ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar

Korporativ segmentda e'tibor masofaviy xizmatlarni yanada rivojlantirish hamda KOB va o'rta biznes uchun mahsulotlar liniyasini kengaytirishga qaratilmoqda.

2026-yil davomida SQB onlayn xizmatlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, oltin savdosi, eksport-import shartnomalarini masofadan boshqarish, QR va internet-ekvayringni rivojlantirish, korporativ kartalarni masofadan chiqarish va qayta chiqarish hamda ish haqi loyihalarini onlayn ulash kabi yo'nalishlar rivojlantiriladi.

Ushbu tashabbuslar qog'ozsiz operatsiyalar ulushini oshirish hamda asosiy jarayonlarni raqamli muhitga to'liq o'tkazishga qaratilgan. Shuningdek, raqamli kreditlashni rivojlantirish davom ettiriladi — bu boshqa banklar mijozlari hamda murakkab tuzilmaga ega kompaniyalar uchun yechim bo'lib, kredit vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni olish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.

Yuridik shaxslarni onlayn jalb qilish jarayonini soddalashtirishga alohida e'tibor qaratiladi: 2026-yilda birlamchi va ikkilamchi hisob raqamlarini onlayn ochish hamda platformaga to'liq masofaviy ulanish imkoniyati joriy etiladi.

SQB Mobile — 2026-yil uchun ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar

Chakana raqamli biznesda mobil kanal ko'lamini kengaytirish va uni mijozlarga xizmat ko'rsatishning asosiy vositasiga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2026-yil uchun quyidagi reja ko'rsatkichlari belgilangan:

Komission daromad o'sishining asosiy hissasi kengaytirilgan transchegaraviy pul o'tkazmalari (UPT, SWIFT, MoneyGram, AliPay, Western Union, RIA, "Zolotaya Korona"), kartalarni yetkazib berish xizmatini yo'lga qo'yish, SQB Plus obuna modeli joriy etilishi, oldindan to'langan kartalarni qayta chiqarish va tezkor emissiya qilish hamda SQB Bill xizmatini kommunal va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan integratsiya qilish orqali ta'minlanadi.

Sadoqat dasturlari keshbek mexanizmlarini va bonus tizimini yanada rivojlantirish hisobiga kuchaytiriladi. Foizli daromad yo'nalishida asosiy e'tibor BNPL mahsulotlariga (Open Nasiya, WinGo, Cred IT) hamda kengaytirilgan imkoniyatlarga ega yangi kredit kartasini joriy etishga qaratiladi. Shuningdek, mijozlar faolligini oshirish maqsadida SQB Plus yangilangan obunasini ishga tushirish (ikki baravar keshbek, imtiyozli P2P operatsiyalar), referal dasturini rivojlantirish hamda ko'p valyutali hisob raqamlarini (EUR, dirham, yuan va boshqalar) ochish rejalashtirilgan.

Bank ekotizim xizmatlarini rivojlantirishni davom ettiradi, mobil ilovaning funksionalligini kengaytiradi hamda keng ko'lamli moliyaviy instrumentlarga qulay va tezkor kirishni ta'minlaydi.

Filial tarmog‘ini rivojlantirish

Filial tarmog‘ini optimallashtirish

2025-yilda SQB filial tarmog‘ini transformatsiya qilishni davom ettirdi. Asosiy maqsad samaradorlikni oshirish va yanada “yengil” operatsion modelga o‘tishdan iborat bo‘ldi. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, bank tarmog‘i O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida 72 ta Bank filialini o‘z ichiga oldi. Ushbu nuqtalar quyidagi formatlarda tashkil etilgan:

- **Hududiy markazlardagi flagman ofislar**
- **Kichraytirilgan maydon va xodimlar soniga ega ikkinchi toifadagi ofislar**
- **Korxona va savdo tashkilotlarida joylashgan kassadan tashqari operatsion kassalar**

72 ta Bank filiali

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning barcha hududlarida

Optimallashtirish doirasida past rentabelli 13 ta ofis yopildi, ularning bir qismi xizmat hududini qisqartirmasdan ko‘chirilgan yoki birlashtirilgan. Asosiy e’tibor operatsiyalarni onlayn kanallar va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish qurilmalariga o‘tkazishga qaratildi. Ofislar funksiyasi bosqichma-bosqich operatsion xizmat ko‘rsatishdan maslahat berish va bank mahsulotlarini sotish yo‘nalishiga o‘zgartirilmoqda.



Filial tarmog‘i mijozlari va hududiy dinamika

Hisobot davri yakuniga ko‘ra, filial tarmog‘i orqali quyidagi mijozlarga xizmat ko‘rsatildi:

89 950
ta yuridik shaxs

2024-yildagi 87 435 taga nisbatan o‘sish

1 720 456
nafar jismoniy shaxs

2024-yildagi 1 545 102 nafarga nisbatan o‘sish

Mijozlar bazasining kengayishi quyidagi omillar hisobiga ta’minlandi:

- **yopilgan ofislar mijozlarini amaldagi bo‘linmalarga o‘tkazish;**
- **hududiy qamrovni saqlab qolish;**
- **masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini kuchaytirish.**

Yuklama qayta taqsimlanishi va xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanishi hisobiga mamlakatning deyarli barcha hududlarida o‘sish kuzatildi.

Xodimlar kompetensiyalarini oshirish

2025-yilda filial tarmog‘i xodimlarining chakana va KOB yo‘nalishlari bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan kompleks ishlar amalga oshirildi. Savdo samaradorligini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan oflayn treninglar tashkil etilib, ular amaliy keyslar, e’tirozlar bilan ishlash hamda mijozlar bilan samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni qamrab oldi. Hududiy o‘quv dasturlari xizmat ko‘rsatish va savdo jarayonlariga jalb etilgan barcha xodimlarni qamrab olish imkonini berdi.

Shu bilan birga, iSpring platformasida masofaviy o‘qitish va test sinovlari yo‘lga qo‘yildi, asosiy bank mahsulotlari hamda bazaviy raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha elektron kurslar ishlab chiqildi. Bilimlarni standartlashtirish maqsadida Bankning asosiy mahsulot va xizmatlari bo‘yicha yagona bilimlar bazasi yaratildi, shuningdek savdo jarayonlariga jalb etilgan xodimlar uchun test sinovlari o‘tkazildi.

Qo‘shimcha ravishda, “Samarali savdolar”, “Samarali rahbar” va “Telemarketing” nomli oflayn dasturlar tashkil etildi. Ushbu dasturlar savdo natijadorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda xodimlarning boshqaruv va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt va raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha maxsus kurslar joriy etildi.

2025-yilning asosiy yutuqlari

Savdo modelining keng ko‘lamli transformatsiyasi amalga oshirildi — chakana va KOB segmentlarida faol savdolar modeliga o‘tildi.

Digital KOB loyihasi amalga oshirildi: mobil ilova rivojlantirildi va mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish shakliga o‘tkazildi.

Chakana biznesda ipoteka yo‘nalishi hamda Bank at Work loyihasi (ish haqi mijozlari bilan ishlash) bo‘yicha yangi faol rollar joriy etildi.

Sifatni boshqarish funksiyasi qayta yo‘lga qo‘yildi: mobil ilovada mijoz sessiyasini baholash tizimi joriy etildi, shuningdek mijozlar bilan muloqotlarni yozib olish va transkripsiya qilish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Filial tarmog‘i modeli transformatsiya qilindi: maqsadli tuzilma flagman, mini (50 m² gacha) va mikro-ofislar (30 m² gacha) formatlarini o‘z ichiga oladi. Mini va mikro-ofislar kassasiz faoliyat yuritib, faqat savdo va maslahat markazlari sifatida ishlaydi.

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish

KOB va jismoniy shaxslar uchun avtomatlashtirilgan depozit mashinalari (ADM) ishga tushirildi;

Cash-in funksiyasiga ega bankomatlar tarmog‘i kengaytirildi, recycling funksiyali bankomatlarga alohida e’tibor qaratildi;

Infokiosklar o‘rnatildi hamda 24/7 rejimida ishlovchi xizmat zonalari tashkil etildi.

2026-yil rejalari

- Mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini keng ko‘lamda raqamlashtirish va operatsiyalarni onlayn formatga o‘tkazish;
- Xizmatlar va hamkorlik kanallarini rivojlantirish, ipoteka kreditlash hamda KOB yo‘nalishlarini kuchaytirish;
- Yangi ofis modeli asosida filial tarmog‘ini optimallashtirishni davom ettirish;
- Xizmat ko‘rsatish sifatining asosiy omili sifatida xodimlar kompetensiyalarini rivojlantirish.

Filial tarmog‘i Bank biznesining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda va umumiy sof foydaning qariyb 30 foizini shakllantiradi.



Investitsion banking departamenti

Investitsion banking departamenti Bankning kapital bozorlari, strukturalashtirilgan moliyalashtirish va moliyaviy konsalting yo'nalishlaridagi asosiy kompetensiya markazi hisoblanadi. Mazkur bo'linma murakkab korporativ va suveren bitimlarni hamroh qilish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda Bankning investitsion ekotizimini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Departament tarkibida quyidagi asosiy yo'nalishlar faoliyat yuritadi: Bank ekotizimini rivojlantirish (jumladan SQB Capital, SQB Insurance, SQB Tower, SQB Ventures, SQB Factoring va SQB Microfinance), kapital bozorlari, strukturalashtirilgan moliyalashtirish hamda analitik xizmat. Xodimlarning umumiy soni — 15 nafarni tashkil etadi.

Departament quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- mahalliy va xalqaro bozorlarda obligatsiyalar chiqarilishini tashkil etish;
- IPO/SPO jarayonlari hamda M&A bitimlarini hamroh qilish;
- kredit bitimlari bo'yicha yetakchi tashkilotchi va agent funksiyalarini bajarish;
- sindikatsiyalashgan va loyihaviy moliyalashtirishni strukturalashtirish hamda tashkil etish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha moliyaviy konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- Bankning investitsion portfelini boshqarish va tahlil qilish;
- eksport-kredit agentliklari (EKA) bilan hamkorlik qilish;
- MHXS (IFRS) bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va hisobotlarni transformatsiya qilishni hamroh qilish;
- valyuta risklarini xedjirlash;
- qarz instrumentlarini anderrayting qilish va joylashtirish.

2025-yil natijalari

Valyuta birjasi va Toshkent fond birjasida to'liq a'zolik qo'lga kiritildi, shuningdek SQB Mobile mobil ilovasi Jett platformasi bilan integratsiya qilindi;

Bank O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va "O'zbekneftgaz" AJning yevroobligatsiyalarini joylashtirishda, shuningdek qator korporativ emissiyalarda Co-Manager sifatida ishtirok etdi. IFC bilan hamkorlikda kredit portfelini sek'yuritizatsiya qilish amaliyoti rivojlantirildi;

Moliyaviy konsalting portfeli (Bank balansisiz) doirasida umumiy qiymati 892 mln AQSh dollariga teng loyihalar amalga oshirildi, jumladan Hududgazta'minot, Global Textile Group, Solar Nature va boshqa kompaniyalar uchun tranzaksiyalarni qo'llab-quvvatlash;

Xalqaro va mintaqaviy hamkorlar bilan hamkorlik faol rivojlantirildi, jumladan EBRD, IFC, ADB, Avesta Group, Alkes, Abu-Dhabi Uzbek Investment Company hamda Azerbaijan Uzbek Investment Company bilan.

2026-yil rejalari

2026-yilda Risk Sharing Facility (RSF) doirasida xizmatlar ko'lamini kengaytirish rejalashtirilgan bo'lib, u xalqaro moliya institutlari bilan kredit risklarini birgalikda taqsimlashni nazarda tutadi. Bu Bank kapitaliga qo'shimcha yuklama bermasdan moliyalashtirish hajmlarini oshirish hamda mijozlar uchun qarz mablag'lari qiymatini pasaytirish imkonini beradi.


Asosiy ustuvor yo'nalishlar:

- Investitsion banking jarayonlarini avtomatlashtirish (CRM Investment Banking) orqali bitimlar muddatini qisqartirish va daromadlilikni oshirish;
- Yuridik shaxslar uchun internet-bankingni rivojlantirish hamda komission daromadlar bazasini kengaytirish.

Mazkur tashabbuslarni amalga oshirish kapital yuklamasini kamaytirish, komission daromadlarni oshirish hamda Bankning mahalliy va xalqaro kapital bozorlaridagi ishtirokini yanada kengaytirishga qaratilgan.



2025-yilda departament daromadining reja va amaldagi ko'rsatkichlari, mlrd so'm



G‘aznachilik departamenti

G‘aznachilik departamenti Bankning likvidlikni boshqarish, valyuta va foiz risklarini boshqarish, pul va kapital bozorlaridagi operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek Bankning savdo strategiyalarini rivojlantirish funksiyalarini ta’minlaydi.

2025-yil natijalari

2025-yilda SQB G‘aznachilik departamenti barcha asosiy yo‘nalishlarda sezilarli o‘sishni ta’minladi.

2026-yil rejalari

Departament likvidlikni boshqarish va savdo instrumentlarini yanada kengaytirish hamda chuqur raqamlashtirishni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

- Likvidlikni boshqarishni avtomatlashtirish — balans ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish uchun Dashboard/BI tizimini joriy etish.
- Qimmatbaho metallar bo‘yicha xizmatlarni kengaytirish — 15 ta mahalliy va xorijiy bank uchun metall va kastodial hisobvaraqlar ochish, shuningdek kumush va platina bilan savdoni yo‘lga qo‘yish.
- Algoritmik savdo (robo-trading) — birja operatsiyalarini algoritmik strategiyalar asosida avtomatlashtirish.



Savdo operatsiyalari va treyding

Bank korporativ mijozlar uchun SQB elektron savdo platformasini muvaffaqiyatli ishga tushirdi. Hisobot davrida Bank O‘zbekiston Respublikasi Valyuta Birjasi (UzRVB) bozor yaratuvchisi sifatida faoliyat yurita boshladi, bu esa savdo hajmining oshishiga va qo‘shimcha daromadga hissa qo‘shdi. Savdo operatsiyalari Bankning moliyaviy natijalariga sezilarli hissa qo‘shdi.

Yil davomida yetakchi xalqaro banklar bilan ISDA va bosh bitimlar imzolandi, bu Bankning xalqaro moliya bozorlarida operatsiyalar o‘tkazish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Hosilaviy moliyaviy vositalar

Tuzilgan ISDA bosh bitimlari doirasida Bank FX Swap va FX Forwards kabi derivativ operatsiyalarni amalga oshirdi va O‘zbekistonda tijorat banklari va yirik korporativ mijozlarga valyuta risklarini himoya qilish xizmatlarini ko‘rsatgan birinchi banklardan biriga aylandi. Ushbu sohani rivojlantirish Bankka investitsiya va g‘aznachilik mahsulotlari turlarini kengaytirish, bozordagi mavqeini mustahkamlash va derivativ operatsiya-lardan tushadigan daromadni oshirish imkonini beradi.

Qimmatbaho metallar bilan operatsiyalar


Bank yetakchi global banklarda oltin hisob raqamlarini ochdi va jismoniy shaxslar uchun jismoniy bo‘lmagan oltinning onlayn savdosini yo‘lga qo‘ydi. Qimmatbaho metallar operatsiyalari barqaror ijobiy o‘sishni ko‘rsatdi va Bank uchun qo‘shimcha daromad manbaiga aylandi.

Konversion operatsiyalari

Hisobot davri oxirida Bank valyuta bozorida mustahkam mavqeini saqlab qoldi va ham korporativ, ham kichik va o‘rta biznes segmentlarida sezilarli miqdordagi bitimlarni ta’minladi.

Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar

Hisobot davrida Bank O‘zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog‘ozlari portfelini sezilarli darajada kengaytirdi va ichki qarz bozoridagi mavqeini mustahkamladi. Birlamchi diler sifatida Bank birlamchi davlat qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshiradi va bevosita ishtirokchilar bo‘lmagan mahalliy va xorijiy moliya institutlariga auktsionlarga kirish imkonini beradi. Bank shuningdek, ikkilamchi bozorda bozor yaratuvchisi sifatida ham faoliyat yuritadi, muomaladagi emissiyalarning likvidligini saqlaydi va ikki tomonlama kotirovkalarni taqdim etadi. Birlamchi va ikkilamchi bozorlardagi faol operatsiyalar Bankning yetakchi mavqeini va O‘zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishdagi asosiy rolini tasdiqlaydi.



Barqaror moliyalashtirish

654,3

mln AQSH dollari

2025-yilda “yashil” portfelning haqiqiy hajmi

Barqaror moliyalashtirish sohasidagi yondashuv va mahsulotlar



GRI 3-3, IFRS S2-14(a)-i, S2-14(a)-iii, IFRS S2-29(d), IFRS S2-29(e)

Hisobot yilida Bank barqaror moliyalashtirish yo‘nalishini faol rivojlantirishni davom ettirdi. 2025-yilda Green Banking departamenti Sustainable Finance departamentiga transformatsiya qilindi, bu esa uning funksiyalari kengayganini aks ettirdi: alohida “yashil” tashabbuslarga yo‘naltirilgan yondashuvdan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) komponentlarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvga o‘tildi, shuningdek BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yo‘naltirilganlik kuchaytirildi.

Yangi formatda Sustainable Finance departamenti barqaror moliyalashtirish bo‘yicha kengroq mandatga ega bo‘lib, ESG omillarini Bankning asosiy faoliyat yo‘nalishlariga, jumladan kredit va investitsiya faoliyatiga integratsiya qilishni qamrab oladi. Xususan, departament:

- barqaror moliyalashtirishga oid yondashuvlarni (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlari — ESG) rivojlantiradi va muvofiqlashtiradi;
- alohida “yashil” tashabbuslarning barqaror rivojlanish tamoyillari Bankning kredit, investitsiya va risk siyosatiga tizimli integratsiya qilishga o‘tishni ta’minlaydi (jumladan, iqlimiy risklarni hisobga olish);
- xalqaro barqaror moliyalashtirish standartlari va amaliyotlari (BMT, GCF, IFC, Jahon banki) asosida ish yuritadi hamda asosiy manfaatdor tomonlar — mijozlar, investorlar, fondlar va regulyatorlar bilan hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

2025-yilda SQB xalqaro moliya institutlari bilan barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishni davom ettirdi. Xususan, Jahon banki vakillari bilan uchrashuv doirasida O‘zbekistonda sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish loyihasi bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish istiqbollari hamda yangi “yashil” bank mahsulotlarini ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, Toshkent shahrida elektr transporti va zaryadlash infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari uchun 143 mln AQSh dollarigacha moliyalashtirish jalb etish rejalashtirilmoqda.

Hisobot yilida Bank “Yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar” nomli yirik konferensiyani tashkil etuvchi sifatida ham ishtirok etdi. Tadbir davlat organlari, xalqaro rivojlanish institutlari, moliya sektori va biznes vakillarini birlashtirib, mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, iqlim kun tartibi, barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda barqaror moliyalashtirish instrumentlarini muhokama qilish uchun muhim platformaga aylandi.


Bundan tashqari, 2025-yilda Bank O‘zbekiston Respublikasining “yashil” taksonomiyasini ishlab chiqishda ishtirok etdi, bu muhim institutsional natija bo‘lib, Bankning milliy barqaror moliyalashtirish tizimini shakllantirishdagi hissasini mustahkamladi. Yashil taksonomiya talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida Bankda mijozlar yoki loyihalarni baholashning tizimli jarayoni yo‘lga qo‘yildi:

1. Mijozlar yoki loyihalar faoliyatini ekologik va ijtimoiy risklar mezonlariga muvofiqligi bo‘yicha baholash;
2. Mijozlar yoki loyihalar faoliyatini yashil taksonomiya mezonlariga muvofiqligi bo‘yicha baholash (energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va boshqalar);
3. Texnik hujjatlar, energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari, emissiyalar, suvdan foydalanish va boshqa parametrlarni tahlil qilish;
4. Qarzdorlarning ekologik majburiyatlarini bajarishi bo‘yicha davriy tekshiruvlar o‘tkazish.

Yashil portfelning o‘sishi va tuzilmasi

2025-yil barqaror moliyalashtirish hajmi bo‘yicha rekord yil bo‘ldi. Maqsadli ko‘rsatkich 650 mln AQSh dollari etib belgilangan bo‘lsa-da, amaldagi “yashil” portfel hajmi 654,3 mln AQSh dollariga yetib, belgilangan rejani oshirib bajardi.

2025-yilda yashil portfelning tuzilmasi, mln AQSH dollari



Loyihalarni tasniflash Bankning ichki mezonlari hamda amaldagi milliy taksonomiya talablariga muvofiq amalga oshirildi. O‘sish barqaror moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan yuqori talab hamda loyihalarni baholash bo‘yicha ichki jarayonlarning takomillashtirilishi hisobiga ta’minlandi.

Barqaror moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Barqaror moliyalashtirish mablag‘lari quyidagi beshta asosiy sektorga yo‘naltirildi:

481,5 mln AQSH dollari
Energiya samaradorligi

5,0 mln AQSH dollari
Qayta tiklanuvchi energiya

18,1 mln AQSH dollari
Yashil transport

4,5 mln AQSH dollari
Suv resurslarini tejash

83,8 mln AQSH dollari
“Yashil” binolar

Bank quyosh energetikasini qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirdi. Moliyalashtirish ham jismoniy shaxslarga (uy xo‘jaliklari uchun quyosh panellari), ham yuridik shaxslarga taqdim etildi. Bundan tashqari, Bank xodimlari uchun ichki ijtimoiy tashabbuslar doirasida yangi dastur joriy etildi: ish haqi hisobidan 12 oygacha foizsiz bo‘lib to‘lash asosida quyosh panellarini xarid qilish imkoniyati yaratildi.

Agar avval Bank asosan energiya samaradorligi kabi ekologik yo‘nalishlarga e’tibor qaratgan bo‘lsa, 2026-yilda u qamrovni kengaytirib, bank faoliyatiga mos keluvchi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan 13 tasiga yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishni rejalashtirmoqda.

Muhim voqealar

Yanvar

E G

- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) ning GEFF va TFP dasturlari doirasida Bank “O‘zbekistonda yashil savdoni moliyalashtirish bo‘yicha yetakchi” hamda “O‘zbekiston iqtisodiyotini dekarbonizatsiya qilishdagi taraqqiyot uchun” mukofotlariga sazovor bo‘ldi. GEFF dasturi doirasida 50 dan ortiq ekologik barqaror loyihalar moliyalashtirildi, 25 mln AQSH dollari miqdorida “yashil” resurslar jalb etildi; “yashil” kredit portfeli hajmi 559 mln AQSH dollariga yetdi.
- International Finance jurnali mukofoti yakunlariga ko‘ra, Bank “Eng yaxshi korporativ bank” va “Korporativ boshqaruv sohasidagi eng yaxshi bank” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topildi.

Fevral

G

- “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi Bankka ESG reytingi 3-darajasini 59 ball bilan berdi hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini tizimli joriy etish va yashil moliyalashtirish yo‘nalishini rivojlantirishni qayd etdi.

Mart

G S

- SQB, Turkiyaning qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari uyushmasi IMSAD va O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi rahbariyati o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi, uning natijasida qurilish materiallari sanoatida hamkorlik rejasini tasdiqlashga erishildi.
- Bank Euromoney Private Banking mukofotida “Mamlakatdagi eng yaxshi xususiy bank” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topildi.
- London shahrida o‘tkazilgan Euromoney mukofotlash marosimi yakunlariga ko‘ra, SQB chakana xizmatlar sohasida eng ilg‘or bank hamda O‘zbekistonda barqaror rivojlanish yo‘nalishida eng faol bank sifatida mukofotlandi. Bu Bankning chakana biznesi rivoji va barqaror rivojlanish tamoyillarining strategiyaga integratsiyasini tasdiqlaydi.

Aprel

E S

- Bank Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bilan hamkorlikda Toshkent shahrida “Yashil iqtisodiyotga o‘tish: chaqiriqlar va istiqbollar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazdi. Unda Jahon banki, ADB, EBRD, Fransiya taraqqiyot agentligi, GGGI, Fitch Ratings, Bureau Veritas va ta’lim muassasalari vakillari ishtirok etdi.
- Digital Banker CX Awards mukofotida Bank “Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun raqamli mijozlar tajribasi bo‘yicha eng yaxshi bank” hamda “Mobil bank xizmatlarida raqamli mijozlar tajribasi bo‘yicha alohida yutuq” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topildi.

May

S S S

- SQB AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi (USDA) tomonidan GSM 102 dasturi bo‘yicha hamkor bank sifatida tanlandi va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida ushbu dasturga birinchi bo‘lib qo‘shildi. Hamkorlik savdo-moliya kredit liniyalarini jalb etish uchun kafolatlar berishni nazarda tutadi hamda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi savdo oqimlarini kengaytirishga xizmat qiladi.
- Bank ITFC mukofotlari yakunlariga ko‘ra, “Yilning eng yaxshi savdo moliyalashtirish bitimi” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topildi.
- “The Digital Banker” tomonidan o‘tkazilgan xalqaro mukofotlash marosimida SQB ikkita global mukofotga sazovor bo‘ldi: “SME Financier of the Year” (kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishga qo‘shgan hissasi uchun) hamda “Outstanding Digital CX — Mobile Banking” (mobil bankingdagi innovatsion yechimlar uchun). Shuningdek, bir qator mintaqaviy va milliy mukofotlar bilan taqdirlandi.
- London shahrida o‘tkazilgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 34-yillik yig‘ilishida SQB va EBRD o‘rtasida 25 mln AQSH dollari miqdorida “Youth in Business” dasturi doirasida shartnoma imzolandi. Mazkur dastur 35 yoshgacha bo‘lgan tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan korxonalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yoshlar startaplari va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Iyun

E G G

- Bank Cert International tomonidan “ISO 14001 — Ekologik menejment tizimi” xalqaro sertifikatiga ega bo‘ldi.
- Bank bosh ofisida IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Investor Day tadbiri o‘tkazildi. Unda 170 ga yaqin ishtirokchi, jumladan xalqaro va mahalliy moliya institutlari, investitsiya fondlari, konsalting kompaniyalari hamda korporativ mijozlar qatnashdi. Tadbir davomida 2024-yil moliyaviy natijalari taqdim etildi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki, IFC, J.P. Morgan, Citibank, Deutsche Bank, Standard Chartered, va Rothschild & Co bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazildi. Uchrashuvlar Bankning xalqaro kapital bozorlaridagi mavqeini kengaytirish va hamkorlikni mustahkamlashga qaratildi.
- Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi SQBning uzoq va qisqa muddatli kredit reytinglarini BB/B darajasiga oshirdi.
- Asian Banking Finance xalqaro jurnali ma’lumotlariga ko‘ra, Bank “Risklarni boshqarish bo‘yicha eng yaxshi tashabbus”, “Raqamli transformatsiya bo‘yicha eng yaxshi bank” va “Eng yaxshi mahalliy chakana bank” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topildi.

Iyul

S

- Bank EBRD bilan hamkorlikda 50 dan ortiq mijozlar uchun savdo moliyalashtirish bo‘yicha seminar o‘tkazdi. Unda ekspertlar faktoring, akkreditivlar, bank kafolatlari va savdo moliyalashtirish operatsiyalari bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani taqdim etdi.
- Euromoney Awards for Excellence mukofotida Bank “O‘zbekistondagi eng yaxshi bank”, “O‘zbekistondagi korporativ mijozlar uchun eng yaxshi bank” va “O‘zbekistondagi DCM bo‘yicha eng yaxshi bank” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topildi.

Avgust

G G

- SQB operatsion va raqamli transformatsiya dasturi doirasida Process Mining va Task Mining texnologiyalarini joriy etgan O‘zbekistonning birinchi moliya instituti bo‘ldi. Ushbu vositalar jarayonlardagi “tor joylar”ni aniqlash, operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi.
- “Asian Banking & Finance” xalqaro jurnali mukofoti yakunlariga ko‘ra, SQB “Raqamli transformatsiya sohasida mamlakatning eng yaxshi banki” hamda “Risklarni boshqarish bo‘yicha eng yaxshi tashabbusga ega moliya instituti” nominatsiyalarida g‘olib deb topildi.

Sentyabr

G G

- Xalqaro inspeksion audit yakunlariga ko‘ra, Cert International tashkiloti SQB’ga ISO 37001:2016 muvofiqlik sertifikatini qayta taqdim etdi hamda korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining xalqaro talablarga muvofiqligini tasdiqladi.
- ADB mukofotlari yakunlariga ko‘ra, Bank “O‘zbekistondagi eng yaxshi hamkor bank” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Taqdirlash marosimi 2025-yil 2-sentabr kuni Singapur shahrida bo‘lib o‘tdi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining AQShga tashrifi (2025-yil 20-24-sentabr) doirasida Nyu-York shahrida SQB va Citibank o‘rtasida 150 mln AQSh dollari miqdoridagi hamkorlik bitimi imzolandi. Hujjat qarz qimmatli qog‘ozlari bozoriga chiqish, savdoni moliyalashtirish va korrespondentlik munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikni nazarda tutadi. Shuningdek, unda xodimlar malakasini oshirish hamda energiya tejovchi loyihalarni amalga oshirish yo‘nalishlari ham belgilangan.

Oktyabr

G G

- Bank IT infratuzilmasini modernizatsiya qilish ishlarini yakunlab, axborot tizimlarini Intel asosidagi zamonaviy server arxitekturasiga o‘tkazdi. Bu ichki jarayonlarni tezlashtirish, internet banking va mobil ilovaning barqarorligini oshirish, texnik nosozliklarni kamaytirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkonini berdi.
- Bank London fond birjasida 300 mln AQSH dollari miqdorida “Additional Tier 1” (AT1) turidagi xalqaro muddatsiz obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi. Bitimga 22 mamlakatdan 130 dan ortiq investorlar qiziqish bildirdi va umumiy talab 1,4 mlrd AQSH dollaridan oshdi, natijada kupon stavkasi 9,45 foizgacha pasaytirildi. Joylashtirishda Citibank, J.P. Morgan, Société Générale, Standard Chartered, Raiffeisenbank va Mashreqbank hamkor tashkilotchilar (joint bookrunners) sifatida ishtirok etdi.

Noyabr

E G

- Bank “Green Climate Fund” tomonidan akkreditatsiya olish va iqlim loyihalarini moliyalashtirish uchun resurslarni jalb etish bo‘yicha ishlarni boshladi.
- Moody’s xalqaro reyting agentligi Bankka ijobiy prognoz bilan Ba3 uzoq muddatli kredit reytingini berdi.
- Global Banking & Markets mukofotlari yakunlariga ko‘ra, Bank “Investment Banking – House Award” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topildi.

Dekabr

E G

- Bank iqlim siyosatini tasdiqladi. Mazkur siyosat iqlim bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlarni boshqarish tamoyillarini hamda iqlim omillarini qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilishni belgilaydi.
- International Business Magazine Awards mukofotlari yakunlariga ko‘ra, SQB “O‘zbekistonning 2025-yildagi eng yaxshi trejeri banki” nominatsiyasi bo‘yicha mukofot bilan taqdirlandi.

BMT SDGlarining yashil va ijtimoiy loyiha toifalari o‘rtasidagi muvofiqlik

Ruxsat etilgan “yashil” toifalar

- “Yashil” binolar
- Qayta tiklanuvchi energetika
- Energiya samaradorligi
- Ekologik toza transport
- Tabiiy resurslar va yer resurslaridan ekologik barqaror foydalanish, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi
- Ifloslanishni oldini olish va nazorat qilish
- Aylanma iqtisodiyot va resurs samaradorligi tamoyillariga mos mahsulotlar, texnologiyalar va jarayonlar
- Suv resurslari va oqava suvlarni barqaror boshqarish
- Quruqlik va suv bioxilma-xilligini saqlash
- Iqlim o‘zgarishiga moslashish

Ruxsat etilgan “ijtimoiy” toifalar

- Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik
- Asosiy tibbiy xizmatlar va bazaviy infratuzilmaga arzon narxda kirish imkoniyati
- Arzon uy-joy bilan ta’minlash
- Bandlikni yaratish va qo‘llab-quvvatlash: mikro, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish

Bankning barqaror moliyalashtirish Konsepsiyasiga muvofiq, loyihalarni baholash va tanlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1

Standart kredit jarayoni

- Mahalliy biznes va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘linmalar potensial mos keluvchi loyihalarni aniqlash uchun zarur ma’lumotlarni to‘playdi;
- Zarur ma’lumotlar keyingi baholash uchun Sustainable Finance departamentiga taqdim etiladi.

2

Potensial mos loyihalarni tahlil qilish

- Potensial loyihalarning kontragentlari va aktivlari Sustainable Finance departamenti tomonidan to‘liq baholanadi, jumladan ularning atrof-muhitga ta’siri ham tahlil qilinadi;
- Sustainable Finance departamenti tanlab olingan loyihalarni Bankning yashil portfeliga kiritish bo‘yicha Kredit qo‘mitasiga taklif kiritadi.

3

Kredit qo‘mitasi

- Kredit qo‘mitasi belgilangan reglament va vakolatlar doirasida loyihalarni yashil portfelga kiritish yoki undan chiqarish bo‘yicha qaror qabul qiladi;
- Kredit qo‘mitasi yig‘ilishlari har ikki haftada bir marta (yoki loyihalar hajmiga qarab tezroq yoki kamroq tez-tez) o‘tkaziladi, mablag‘lar to‘liq taqsimlanguniga qadar yoki portfelda sezilarli o‘zgarishlar yuz bergunga qadar davom etadi.

4

Monitoring va hisoboti berish

- Tasdiqlangan loyihalar Bankning yashil portfeliga kiritiladi;
- Sustainable Finance departamenti mijozlar bilan ishlovchi menejerlar bilan birgalikda portfel monitoringini amalga oshiradi hamda mablag‘larni taqsimlash va ta’sir bo‘yicha hisoboti tayyorlaydi;
- Moslik mezonlariga javob bermay qolgan loyihalar almashtiriladi;
- Kredit qo‘mitasi ichki axborot oshkor etish tartiblariga muvofiq mablag‘larni taqsimlash va ta’sir bo‘yicha hisobotini nazorat qiladi va tasdiqlaydi.

Yashil mahsulotlarni rivojlantirish

2025-yilda Bank yashil moliyaviy mahsulotlarning mavjudligini kengaytirish bo‘yicha faol ish olib bordi:

Green Komfort

kredit mahsuloti shartlari yangilandi.



Ixtisoslashtirilgan mahsulotlar faoliyatini davom ettirdi:

Yashil ta’mir

jismoniy shaxslar uchun ipoteka krediti;
kredit maqsadi: ekologik toza va energiya samarador yechimlardan foydalangan holda uy-joyni ta’mirlash;
kredit miqdori — 170 mln so‘mgacha;

Green Loan

KOB (kichik va o‘rta biznes) uchun kredit; kredit maqsadi: energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish; kredit miqdori — 60 ming AQSh dollarigacha;

Ekosfera

o‘rta biznes uchun kredit; kredit maqsadi: ekologik va yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash; kredit miqdori — 2 mln AQSh dollarigacha;

Yashil texnologiya

korporativ mijozlar uchun kredit; kredit maqsadi: ekologik toza texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq investitsiya loyihalarini moliyalashtirish.

2026–2028-yillar uchun strategik ustuvor yo‘nalishlar

Asosiy ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- Green Climate Fund (Yashil iqlim jamg‘armasi) tomonidan belgilangan talablarga muvofiqlik ta’minlangan taqdirda, akkreditatsiya jarayonini yakunlash;
- Iqlim siyosatini ishlab chiqish hamda iqlimiy risklarni baholash instrumentlarini joriy etish;
- Kreditlar ajratishda iqlimiy risklarni hisobga olish;
- Ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarda ishtirokni yanada kuchaytirish.

Bank mavjud limitlar va kelishuv shartlariga muvofiq AFD, YTTB hamda Markaziy bankning tegishli kredit liniyalaridan foydalanishni davom ettiradi. Jalb qilingan resurslardan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlaydi. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash hamda barqaror moliyalashtirishni rivojlantirishdagi Bank rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlar qoniqish darajasini oshirish

2025-yilda SQB mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, raqamli kanallarni rivojlantirish hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha tizimli ishlarni davom ettirdi. Asosiy e’tibor xizmatlar mavjudligini kengaytirish, so‘rovlarni qayta ishlash tezligini oshirish hamda mijozlar qoniqishini oshirishga xizmat qiluvchi texnologik yechimlarni joriy etishga qaratildi.

Mijoz murojaatlari va kontakt-markaz faoliyati

1 006 334
ta murojaat
2025-yilda Bankning kontakt-markaziga kelib tushdi

758 751
ta murojaat
2025-yilda kontakt-markaz tomonidan qabul qilindi va qayta ishlandi

844 428 ta qo‘ng‘iroq
ovozli kanal

643 825
ovozli murojaatlar

161 906 ta murojaat
matnli kanal

114 926
matnli murojaatlar

Eng ko‘p uchragan murojaatlar mavzulari:

107 869
SQB Mobile akkauntini tiklash

75 412
Uzcard kartalari bo‘yicha ma’lumot

47 670
Humo kartalari bo‘yicha ma’lumot

46 891
Mikrokreditlar monitoringi

34 127
Bank kontaktlari va filiallari

24 669
SQB Mobile tizimida ro‘yxatdan o‘tish

18 869
Telegram chat-bot havolasi

16 611
Xalqaro kartalar

16 281
Kredit kartalari

15 146
Ta’lim kreditlari

Murojaatlarning bir qismi mijoz tomonidan javob berilishidan oldin uzib qo‘yilgan yoki takroriy so‘rovlar bo‘lgan.

Xizmat ko‘rsatishning asosiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash

2024-yilga nisbatan 2025-yilda Bank mijozlarga murojaatlarni qayta ishlash samaradorligi bo‘yicha sezilarli yaxshilanishlarga erishdi.

Mijoz murojaatlari bo‘yicha ma’lumotlar

Ko‘rsatkich	2024	2025	Og‘ish
Kiruvchi qo‘ng‘iroqlar	633 979	844 428	+33%
O‘rtacha kutish vaqti (FRT)	7 daqiqa 21 soniya	4 daqiqa 2 soniya	-45%
O‘rtacha qo‘ng‘iroqni qayta ishlash vaqti (AHT)	4 daqiqa 11 soniya	2 daqiqa 45 soniya	-34%
Qabul qilinmagan qo‘ng‘iroqlar ulushi (LCR)	39%	25%	-14 f. p.
20 soniya ichidagi xizmat darajasi (SLA)	42%	59%	+17 f. p.
60 soniya ichidagi xizmat darajasi (SLA)	28%	39%	+11 f. p.

Yuklama o‘sishi xizmat ko‘rsatish tezligining sezilarli darajada oshishi bilan birga kechdi, bu esa servis jarayonlarining modernizatsiya qilinganini hamda joriy etilgan yangi yechimlarning samaradorligini ko‘rsatadi.


Sun’iy intellektni joriy etish va telemarketingni rivojlantirish

2025-yilda SQB sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi va ushbu yo‘nalishni raqamli transformatsiyaning asosiy komponentlaridan biriga aylantirdi. Kompleks SI yechimlarini joriy etishga tayyorgarlik doirasida ixtisoslashtirilgan texnologiyalar bozori tahlil qilindi hamda bir qator xalqaro va mahalliy yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib borildi. Mazkur chora-tadbirlar Bankning turli biznes jarayonlariga SI texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha strategik asosni shakllantirishga xizmat qildi.

Hisobot yilida Axborot texnologiyalari departamenti bilan hamkorlikda Sun’iy intellekt departamenti tomonidan Bank chat-botiga SI assistentni integratsiya qilish bo‘yicha birinchi yirik tashabbus amalga oshirildi. Ushbu yechim mijozlarning konsultatsion so‘rovlarini qayta ishlash tezligi va sifatini oshirish imkonini berdi. Hozirgi vaqtda chat-bot modelni qo‘shimcha o‘qitish hamda javoblar aniqligini oshirish maqsadida vaqtincha takomillashtirish bosqichida turibdi.

Bundan tashqari, 2025-yilda SQB nutq tahlili texnologiyalari asosida kontakt-markazni modernizatsiya qilish bo‘yicha yirik loyihani boshladi. Asosiy muammolar sifatida quyidagilar aniqlandi: yuqori murojaatlar hajmi (oyiga 70 000 dan ortiq), qabul qilinmagan qo‘ng‘iroqlar ulushining 30% dan ortiqligi, suhbatlar tahlili ulushining pastligi hamda operatorlar samaradorligini baholash vositalarining yetishmasligi.

Yechim sifatida nutqni matnga aylantirish (Speech-to-Text), NLP/LLM tahlili hamda qo‘ng‘iroqlarni qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirishni o‘z ichiga olgan intellektual nutq tahlili platformasini joriy etish boshlandi. Mazkur loyiha qabul qilinmagan murojaatlar ulushini 5% dan past darajaga tushirish, kutish vaqtini qisqartirish hamda murojaatlarning 30% dan ortig‘ini avtomatlashtirish imkonini beradi (joriy etish va kengaytirish bosqichlari yakuniga ko‘ra). Ushbu tashabbus mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda zamonaviy omnikanal mijozlar bilan o‘zaro aloqalar tizimini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Shuningdek, telemarketing yo‘nalishida test rejimida telemarketing kampaniyasini ishga tushirish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Ushbu tashabbus qayta ishlanayotgan lidlar sonini sezilarli oshirdi hamda yuqori konversiya ko‘rsatkichlarini namoyish etdi, bu esa kelgusida telemarketing jarayonlarini yanada avtomatlashtirish uchun istiqbollarni ochib beradi.



Mas’uliyatli marketing tamoyillari

Bankda mas’uliyatli marketing va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish tamoyillari ichki tartib-taomillar va regulyator talablarining kompleks tizimi orqali amalga oshiriladi, jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqlik;
- Moliyaviy xizmatlar reklamasiga doir normativ talablarni bajarish;
- Tariflar, shartlar va cheklovlar bo‘yicha shaffof ma’lumot taqdim etish;
- Kommunikatsiyalar ishonchliligini nazorat qilish;
- Reklama materiallarini tegishli bo‘linmalar bilan oldindan tekshirish va kelishish;
- Mijozlarni chalg‘ituvchi ma’lumotlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- Mahsulot shartlari bilan tasdiqlanmagan har qanday va’dalarni istisno qilish;
- Mijozlar uchun tushunarli ifodalarni qo‘llash va asosiy shartlarni aniq ko‘rsatish;
- Qayta aloqa kanallari;
- Kontakt-markaz, savdo nuqtalari va raqamli kanallar orqali shikoyat va murojaatlarni qabul qilish hamda qayta ishlash;
- Mahsulot shartlari o‘zgargan taqdirda reklama xabarlarini moslashtirish.

Raqamlashtirishning xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’siri

Operatsiyalarni onlayn shaklga o‘tkazish mijozlar tajribasini sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi:

Yuridik shaxslar uchun hisob ochish	1-2 soat	10 daqiqa
KOB uchun kredit berish	3-4 kun	5 daqiqa
Ish haqi kartalari	2 marta tashrif	1 marta tashrif
Xat va arizalarni topshirish	1 soat	3 daqiqa
Depozitlar bo‘yicha foizlarni hisoblash	Filial orqali	Onlayn

Filiallar tarmog‘iga tushadigan yuklamaning kamayishi Bankka resurslarni konsultatsion xizmatlar, murakkab mahsulotlarni sotish hamda mijozlarga individual yondashuvni rivojlantirish yo‘nalishlariga qayta taqsimlash imkonini berdi.

Mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va kiberxavfsizlik

GRI 3-3

FN-CB-230a.2

2025-yilda SQB shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni tizimli ravishda mustahkamlash hamda kiberxavfsizlikning kompleks infratuzilmasini rivojlantirishni davom ettirdi. Profilaktik himoya, bunda profilaktik himoya tamoyillari, jarayonlarning shaffofligi va regulyator talablariga qat’iy rioya qilish asos qilib olindi. Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga oid barcha jarayonlar Axborot xavfsizligi siyosati, ma’lumot subyektlaridan rozilik olish mexanizmlari hamda Bankning ichki reglamentlariga integratsiya qilingan. Himoya tizimi ko‘p bosqichli nazoratni (tizimlarni ekspertiza va attestatsiyadan o‘tkazish, himoya vositalarini sertifikatlash), rollarga asoslangan kirish modelini, muntazam monitoring va auditni, shuningdek vakolatli tashkilotlar tomonidan mustaqil tekshiruvlarni o‘z ichiga oladi.

Hisobot yilida Bank Markaziy bankning yangilangan talablari, tegishli davlat organlari normalari hamda sohaviy standartlar asosida faoliyat yuritdi. Axborot xavfsizligi jarayonlariga oid ichki tekshiruvlar va tashqi baholashlar xalqaro maslahatchilar hamda ixtisoslashgan davlat IT tashkiloti ishtirokida amalga oshirildi. Baholash natijalariga ko‘ra, tuzatuvchi choralar amalga oshirildi. Bank PCI DSS standarti bo‘yicha navbatdagi sertifikatsiyaga tayyorgarlikni hamda 2025–2026-yillar uchun kiberxavfsizlik sohasidagi yangi regulyator talablarini bajarishni davom ettirmoqda.

Ma’lumotlar himoyasi infratuzilmasi bank muhitida 5–6 darajali himoya konturlarini o‘z ichiga oladi. 2025-yilda ikkita antifrod tizimi joriy etildi, jumladan Markaziy bank yechimi hamda analitik ssenariylarni shakllantirish uchun ichki antifrod platformasi yaratildi. Shuningdek, mobil ilovaga antivirus moduli integratsiya qilindi. Bundan tashqari, antifrod, operatsion risklarni boshqarish, komplayens va xavfsizlik xizmati bo‘linmalari kompleks nazoratni ta’minlab kelmoqda.

2025-yilda metodologik ishlarning muhim bloki yakunlandi, jumladan 2026–2028-yillar uchun Axborot xavfsizligi strategiyasi ishlab chiqildi, Axborot xavfsizligi siyosatining yangi tahriri tayyorlandi hamda uch yillik “yo‘l xaritasi” (taxminan 50 ta chora-tadbir) shakllantirildi. Ushbu hujjatlar regulyatorlar va korporativ boshqaruv organlari bilan kelishish bosqichida turibdi. Natijalarga ko‘ra, 2025-yil yakunida Bank O‘zbekistondagi banklar orasida kiberxavfsizlik darajasi bo‘yicha ikkinchi, mamlakatdagi barcha moliya institutlari orasida esa uchinchi o‘rinni egalladi.

Maslahatchi bilan hamkorlikda axborot xavfsizligi risklarini baholash metodikasi yangilandi, ustuvor risklar aniqlandi va ularni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bank raqamli transformatsiya loyihalariga axborot xavfsizligi mutaxassislarini erta bosqichda jalb etish amaliyotini davom ettirib, yangi yechimlarning butun hayotiy davri davomida kiberxavfsizlik talablarining hisobga olinishini ta’minlamoqda.

GRI 410-1

Xodimlar xabardorligini oshirish doirasida 2025-yil may va noyabr oylarida xalqaro ekspertlar hamda ixtisoslashgan davlat IT tashkiloti ishtirokida axborot xavfsizligi bo‘yicha ikki kunlik ikkita yirik trening o‘tkazildi. Kibergigiyena bo‘yicha muntazam o‘qitish har yili kamida ikki marta yirik tadbirlar shaklida amalga oshiriladi; barcha yangi xodimlar majburiy yo‘riqnoma (instruktaj)dan o‘tadi hamda maxfiylikni saqlash bo‘yicha majburiyatlarni qabul qiladi. Dasturlar inson huquqlari, axborotni himoya qilishning texnik choralari hamda xavfsiz xulq-atvor madaniyatini shakllantirish masalalarini qamrab oladi.

Biznes jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash yangilangan hujjatlar asosida amalga oshiriladi: Favqulodda holatlarda uzluksiz faoliyatni ta’minlash va tiklash rejasi, Data-markazda harakatlar tartibi hamda Biznes uzluksizligini boshqarish siyosati. 2025-yilda ushbu hujjatlar regulyator talablari va audit natijalarini inobatga olgan holda yangilandi.

2026-yilda Axborot xavfsizligi markazi hamda IT bo‘linmalarining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: yangi himoya vositalarini joriy etish, 2026–2028-yillar Axborot xavfsizligi strategiyasi tadbirlarini amalga oshirish, antifrod platformasini kiberxavfsizlik ekotizimiga integratsiya qilish, tahdidlarni proaktiv aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, PCI DSS auditiga tayyorgarlikni yakunlash, mutaxassislar shtatini kengaytirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va SOAR yechimlarini joriy etish, shuningdek Bankning raqamli infratuzilmasi barqarorligini yanada oshirish.

GRI 418-1

Mijozlarning maxfiyligi buzilishi va mijoz ma’lumotlarining yo‘qolishi bilan bog‘liq shikoyatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar Axborot himoyasi markazi (Center for Information Security) mas’uliyati doirasiga kiradi. Mazkur bo‘linma mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari bilan bog‘liq axborot xavfsizligi hodisalarini monitoring qiladi, murojaatlar va shikoyatlarni tahlil qiladi, ma’lumotlarning sizib chiqishi yoki ruxsatsiz kirish holatlari ehtimolini tekshiradi hamda bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Axborot himoyasi markazi ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha tegishli hisobotlarni shakllantiradi, ichki bo‘linmalar bilan hamkorlik qiladi hamda zarurat tug‘ilganda regulyator organlar bilan o‘zaro aloqani ta’minlaydi. Bu jarayon shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik sohasidagi qonunchilik talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FN-CB-230a.1

Mijozlar maxfiyligi buzilishi holatlari

Metrika	2024	2025
Mijozlar ma’lumotlari maxfiyligi buzilishi bo‘yicha olingan asosli shikoyatlarning umumiy soni, toifalar kesimida, jumladan:	163	114
Tashqi shaxslardan olingan va Bank tomonidan asosli deb topilgan shikoyatlar soni	91	49
Nazorat qiluvchi organlardan olingan shikoyatlar soni	72	65
Mijozlar ma’lumotlarining sizib chiqishi, o‘g‘irlanishi yoki yo‘qolishi bilan bog‘liq aniqlangan holatlarning umumiy soni	163	114

Mijozlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

“Mahalla Bankiri” dasturi

2025-yilda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandlikni ta’minlash bo‘yicha islohotlar doirasida Bank “Mahalla Bankiri” tashabbusini rivojlantirishni davom ettirdi. Ushbu dastur mijozlarga manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashga qaratilgan. Filiallar tarmog‘ining qariyb 500 nafar xodimi ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari bilan ishlashda ishtirok etib, ularning bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyaviy savodxonligini oshirishga ko‘maklashmoqda.

SQB har bir mahalla bo‘yicha mas’ul mutaxassislarni biriktirgan holda loyihalarni kompleks qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘ygan — ya’ni maslahat berish va imtiyozli moliyalashtirishni tanlashdan boshlab, biznesni yo‘lga qo‘yish va kengaytirishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Natijada aholi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maslahat va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi (jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta’minlash), shuningdek hududlarda bandlikning barqaror o‘sishi va kichik tadbirkorlikning rivojlanishi ta’minlanadi.



Ijtimoiy yo‘naltirilgan mahsulotlar

2025-yilda filiallar tarmog‘i orqali quyidagi mahsulotlar va qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirildi:

Tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirish bo‘yicha kreditlar:

Biznesga ikkinchi qadam
236,9
mlrd so‘m

Biznesga birinchi qadam 2
109,9
mlrd so‘m

Zaif (ijtimoiy himoyaga muhtoj) guruhlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kredit mahsulotlari:

Hamroh — ayol tadbirkorlar uchun;

Yoshlar biznesda — 18 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uchun mahsulot;

Yosh va Ayol tadbirkorlar uchun — 18–35 yoshdagi yoshlar hamda ayol tadbirkorlar uchun mahsulot

1 092
mln so‘m

“Yangi uyga ipoteka” dasturi doirasida subsidiyalangan imtiyozli ipoteka kreditlari — 2025-yil yakuniga ko‘ra,

917,3
mlrd so‘m ajratilgan

Ushbu mahsulotlar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, bandlikni qo‘llab-quvvatlash hamda hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Imtiyozli shartlarda moliyalashtirish davlat dasturlari doirasida va tasdiqlangan moliyalashtirish limitlari asosida amalga oshiriladi.

Korporativ boshqaruv



Korporativ boshqaruv tizimi

GRI 2-2, 2-9, 2-12

Bankning korporativ boshqaruv tizimi SQB Korporativ boshqaruv kodeksi bilan tartibga solinadi hamda shaffoflik, hisobdorlik va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etish tamoyillariga asoslanadi. Korporativ boshqaruvga oid aniq tartib-taomillar va amaliyot Bank Ustavi hamda ichki me’yoriy hujjatlarda batafsil belgilangan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Bank Kengashi to‘g‘risidagi nizom;
- Bank Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizom.

Korporativ boshqaruv kodeksi O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/8-son qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari va ilg‘or amaliyotlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bank tizimida korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek banklarda davlat ulushini bosqichma-bosqich xususiylashtirish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Mazkur hujjatda bank islohotlarining asosiy maqsadlaridan biri sifatida samarali boshqaruv mexanizmini yaratish hamda korporativ boshqaruvni yanada rivojlantirish belgilangan.

Qo'mitaning asosiy vazifasi Bank rivojlanish strategiyasini shakllantirish va uni dolzarblashtirishdan iborat bo'lib, ushbu jarayon ichki va tashqi moliyaviy bozorlar holatini kompleks tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Qo'mita Bank faoliyatining uzoq muddatli samaradorligini baholash hamda strategiya va alohida yo'nalishlarga zarur tuzatishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun mas'ul hisoblanadi. Shu bilan birga, qo'mita kapitalni boshqarish masalalarini ko'rib chiqadi, jumladan ustavga o'zgartirishlar kiritish, e'lon qilingan aksiyalar sonini oshirish, ularni joylashtirish va qayta sotib olish, aksiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish narxi va usullarini belgilash, shuningdek Bank kapitaliga investorlarni jalb etish masalalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, qo'mita Bankni xususiylashtirish jarayonini tashkil etadi hamda bank investitsiyalari holati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Tayinlash va mukofotlash bo'yicha qo'mitasi

Qo'mitaning asosiy vazifasi Bank Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligi va sifatini oshirishdan iborat bo'lib, u Kengash vakolatiga kiruvchi ayrim masalalarni oldindan ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Ushbu masalalar Bank xodimlarini mukofotlashning samarali amaliyotini shakllantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish hamda xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liqdir. Shuningdek, qo'mita kadrlar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, Kuzatuv kengashi hamda Boshqaruv a'zolarining vorislik (succession) rejalarini amalga oshirish, Kengashning professional tarkibi va uning faoliyati samaradorligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi. Qo'mita o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Bank Kuzatuv kengashiga tegishli tavsiyalar ishlab chiqadi.

SQB Kuzatuv kengashi huzuridagi qo‘mitalar a’zolari tarkibi

	Audit qo‘mitasi	Risklar, yirik va affillangan bitimlar, komplayens nazorati bo‘yicha qo‘mitasi	Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik bo‘yicha qo‘mitasi	Strategiya va investitsiyalar bo‘yicha qo‘mitasi	Tayinlash va mukofotlash bo‘yicha qo‘mitasi
Qo‘mita raisi	Muxtarov Ulug‘bek Xakimovich	Ulyanova Olga Gennadevna	Ahmedov Umid Mashrapovich	Ayzup Yuliya Aleksandrovna	Jarbolova Saida Sherizatovna
A’zolar	Ayzup Yuliya Aleksandrovna	Chiladze Georgiy	Chiladze Georgiy	Jarbolova Saida Sherizatovna	Otajonov Murodbek Bekberganovich
	Tuinstra Ferdinand Willem	Ahmedov Umid Mashrapovich	Tuinstra Ferdinand Willem	Muxtarov Ulug‘bek Xakimovich	Ulyanova Olga Gennadevna

Bankning 2027–2029-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasini amalga oshirish doirasida ESG sohasida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish nazarda tutilgan. Xususan, ESG masalalari bo‘yicha mas’uliyatni Kuzatuv kengashi huzuridagi tegishli qo‘mita zimmasiga qo‘shimcha ravishda biriktirish, uning vakolatlarini hamda resurs bazasini kengaytirish rejalashtirilmoqda. “Sustainable Finance” (barqaror moliyalashtirish) departamenti har yarim yilda yashil moliyaviy mahsulotlar yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotini Kuzatuv kengashiga taqdim etadi. Bundan tashqari, yirik sanoat loyihalarini moliyalashtirish bilan bog‘liq bitimlar ham Kuzatuv kengashi ko‘rib chiqishiga kiritiladi.



Boshqaruv tuzilmasi va faoliyati

GRI 2-9, 2-11

SQB Boshqaruvi Bankning ijro etuvchi organi bo‘lib, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-strategiya va boshqaruv tizimiga muvofiq kundalik faoliyatni boshqaradi hamda uning natijalari uchun javobgar hisoblanadi.

Boshqaruv faoliyati adolat, halollik, javobgarlik, shaffoflik, professionalizm hamda Boshqaruv a’zolarining malaka va kompetensiyasi tamoyillariga asoslangan samarali korporativ boshqaruv prinsiplari asosida tashkil etiladi.

Boshqaruvga Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi va u ayni vaqtda uning a’zosi hisoblanadi. Boshqaruv tarkibiga Rais, birinchi o‘rinbosar, rais o‘rinbosarlari hamda asosiy yo‘nalishlar (jumladan risklarni boshqarish, operatsion faoliyat va moliya funksiyalari) rahbarlari kiradi.

2025-yilda ijro etuvchi boshqaruv tarkibiga Bankning operatsion faoliyat bo‘yicha bosh direktori (Chief Operating Officer) lavozimiga Qarabayeva Qumriniso Ibragimovna jalb etildi. Ushbu tayinlov operatsion samaradorlikni oshirish, ichki jarayonlarni optimallashtirish hamda Bank faoliyatini boshqarish tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Bank Boshqaruvi olti nafar a’zodan iborat.

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra Boshqaruv tarkibi

Akbarjonov Aziz Akbarjon o‘g‘li

Boshqaruv raisi

Tug‘ilgan yili va joyi

1985-yil 11-sentabr, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Ma’lumoti

- Oliy ma’lumot, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2008-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — SQB Boshqaruv raisi.
- 2020–2023-yillar — SQB Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari.

Ergashev Anvarjon Abdumajitovich

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari

Tug‘ilgan yili va joyi

1973-yil 5-oktabr, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Ma’lumoti

- Oliy ma’lumot, Toshkent moliya instituti, 1995-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2023-yildan hozirgi vaqtgacha — SQB Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari.
- 2018–2023-yillar — SQB Boshqaruv raisining o‘rinbosari.

Khujamuratov Abbos Mardanovich

Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori — bosh buxgalter

Tug‘ilgan yili va joyi

1981-yil 22-sentyabr, O‘zbekiston Respublikasi, Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi shahri.

Ma’lumoti

- Bakalavriat, Toshkent moliya instituti, 2003-yil.
- Magistratura, Toshkent moliya instituti, 2005-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2024-yildan hozirgi kungacha — SQB Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori — bosh buxgalter.
- 2021–2024-yillar — SQB Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktorining o‘rinbosari.
- 2019–2021-yillar — SQB Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti Moliyaviy boshqarma bo‘limi boshlig‘i.

Yakubov Shuxrat Israilovich

Boshqaruv raisining o‘rinbosari

Tug‘ilgan yili va joyi

1967-yil 16-dekabr, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Ma’lumoti

- Oliy ma’lumot, Toshkent avtomobil yo‘llari instituti, 1991-yil.
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 1998-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2020-yildan hozirgi vaqtgacha — SQB Boshqaruv raisining o‘rinbosari.

Abduvaliev Sanjar Abdurahmonovich

Boshqaruv raisining o‘rinbosari

Tug‘ilgan yili va joyi

1988-yil 11-sentabr, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Ma’lumoti

- Bakalavriat, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2009-yil.
- Magistratura, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2011-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2024-yildan hozirgi vaqtgacha — SQB Boshqaruv raisining o‘rinbosari.
- 2011–2024-yillar — O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki hamda SQB tizimida faoliyat yuritgan.

Umarov Davron Shavkatovich

Boshqaruv raisining o‘rinbosari

Tug‘ilgan yili va joyi

1987-yil 28-aprel, O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri

Ma’lumoti

- Bakalavriat, Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti, 2008-yil.
- Magistratura, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2010-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2024-yildan hozirgi vaqtgacha — SQB Boshqaruv raisining o‘rinbosari.
- 2011–2024-yillar — “Asakabank” ATB Qo‘qon filiali hamda “Asakabank” AJ bosh ofisida faoliyat yuritgan, valyuta operatsiyalari bo‘limi 2-toifa mutaxassisidan departament direktorigacha bo‘lgan lavozimlarni egallagan.

Gorokhov Evgeniy Yurevich

Risklar bo‘yicha bosh direktori

Tug‘ilgan yili va joyi


1974-yil 8-aprel, Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahri.

Ma’lumoti

- Bakalavriat, S. Ordjonikidze nomidagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 1997-yil.
- G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, 2000-yil.

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

- 2025-yildan hozirgi vaqtgacha — SQB Boshqaruv a’zosi, Risklar bo‘yicha bosh direktori.



2025-yilda Bank Boshqaruvi majlislarida Bankning joriy faoliyatiga oid 89 ta muhim masala bo‘yicha qarorlar qabul qilindi.

Bank Boshqaruvi huzuridagi qo‘mitalar

Bank Boshqaruvi faoliyatni operativ boshqarish uchun javobgar bo‘lib, Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi oldida hisobdor hisoblanadi. Qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish va strategik tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida Boshqaruv asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ekspert ko‘magini ta’minlovchi ixtisoslashtirilgan qo‘mitalar bilan hamkorlik qiladi.

Boshqaruv huzuridagi asosiy qo‘mitalar quyidagilardan iborat:

1 Kredit qo‘mitasi

kredit arizalarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, kredit risklarini tahlil qilish hamda Bankning kredit siyosatini ishlab chiqishni amalga oshiradi.

2 Investitsiyalar qo‘mitasi

investitsiyalarni strategik boshqarish, bozor imkoniyatlarini tahlil qilish va investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash uchun javob beradi.

3 Aktivlar va passivlarni boshqarish qo‘mitasi

Bank likvidligini nazorat qiladi, foiz va valyuta risklarini boshqaradi, shuningdek aktivlar va passivlar tuzilmasini optimallashtirishni ta’minlaydi.

4 Muammoli kreditlar bilan ishlash qo‘mitasi

muammoli aktivlarni boshqarish va restrukturizatsiya qilish choralarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, muddati o‘tgan qarzdorlik darajasini kamaytirishga qaratilgan ishlarni olib boradi.

5 Axborot texnologiyalari qo‘mitasi

IT-yechimlarni joriy etish va rivojlantirish, kiberxavfsizlik hamda bank jarayonlarini raqamlashtirish masalalarini muvofiqlashtiradi.

6 Bank mahsulotlarini boshqarish qo‘mitasi

mijozlar ehtiyojlari va bozor tendensiyalaridan kelib chiqib bank xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqish hamda optimallashtirish uchun javobgar hisoblanadi.

Mazkur qo‘mitalar faoliyati Bank boshqaruvi samaradorligini oshirish, risklarni minimallashtirish va strategik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Korporativ boshqaruv organlari a’zolarini rag‘batlantirish

GRI 2-19, 2-20

Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga to‘lanadigan mukofotlarni belgilashda shaffoflik, adolatlilik va ularni uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish tamoyillariga asoslangan tizimli yondashuvni qo‘llaydi.

Rag‘batlantirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgarlik Kuzatuv kengashi huzuridagi Tayyorlash va rag‘batlantirish qo‘mitasiga yuklatilgan. Mazkur qo‘mita quyidagi masalalarni dastlabki ko‘rib chiqishni amalga oshiradi:

- boshqaruv organlari va asosiy mansabdor shaxslar uchun doimiy va o‘zgaruvchan qismlarni o‘z ichiga olgan samarali rag‘batlantirish tizimini shakllantirish;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- kadrlar siyosatini amalga oshirish hamda Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolari uchun vorislik (succession) rejalarini ta’minlash;
- Kuzatuv kengashining professional tarkibi va faoliyati samaradorligini baholash;
- qo‘mita vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash.

Rag‘batlantirish siyosatini shakllantirishda Bank aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning pozitsiyasini inobatga oladi. Tegishli masalalar ovoz berishga qo‘yilgan hollarda, natijalar oshkor etiladi. Zarurat tug‘ilganda, rag‘batlantirish tizimini baholash va takomillashtirish maqsadida Bank mustaqil tashqi konsultantlarni jalb etadi. Bunday hollarda ularning Bankdan, uning oliy boshqaruv organlaridan va top-menejmentdan mustaqilligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar oshkor qilinadi.

Kuzatuv kengashi a’zolariga to‘lanadigan mukofotlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi:

- Kuzatuv kengashi a’zosi uchun mukofotlar va kompensatsiyalarning maksimal miqdorini belgilaydi;
- Kengashning mustaqil a’zolari uchun yillik mukofot limitini aniqlaydi;
- xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash tartibini tasdiqlaydi.

To‘lovlar tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga to‘lanadigan mukofotlar va kompensatsiyalar to‘g‘risidagi ichki Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashi a’zolarining rag‘batlantirishi qat’iy belgilangan (fiksatsiyalangan) xususiyatga ega bo‘lib, Kengash va uning qo‘mitalari majlislarida amalda ishtirok etganlik uchun to‘lanadi.

Kengashning mustaqil a’zolari uchun:


- 3 yil muddatga “Kengash a’zosi vazifalarini bajarish to‘g‘risida” muddatli shartnoma tuziladi;
- korporativ yil uchun qat’iy belgilangan rag‘batlantirish miqdori (oylar kesimida) belgilanadi;
- mustaqil a’zo Kuzatuv kengashi raisi etib saylanganda, rag‘batlantirish miqdori shartnomada belgilangan summaga nisbatan 20% dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda oshirilishi mumkin;
- mustaqil a’zo Kuzatuv kengashi huzuridagi qo‘mita a’zosi etib saylanganda — shartnomada belgilangan summaga nisbatan 10% dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktyabrdagi PQ-4487-son qaroriga muvofiq, tijorat banklaridagi davlat ulushi bo‘yicha aksiyador funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga (hozirgi kunda — Iqtisodiyot va moliya vazirligi) yuklatilgan bo‘lib, bu bank tizimida ilg‘or xalqaro amaliyotni inobatga olgan holda korporativ boshqaruvni rivojlantirishga qaratilgan.

Davlat ulushi mavjud banklarda Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari uchun rag‘batlantirish miqdorini aniqlashda yagona yondashuv va shaffoflikni ta’minlash maqsadida bank aktivlari qiymatini inobatga oluvchi standartlashtirilgan mezonlar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464/29-son qaroriga muvofiq, davlat organlari vakillari hisoblangan Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga 2024-yil 1-avgustdan boshlab rag‘batlantirish to‘lovlari to‘xtatilgan.

Tayyorlash va rag‘batlantirish qo‘mitasi Kuzatuv kengashining professional tarkibi hamda faoliyati samaradorligini baholaydi. Kengash a’zosining faoliyati qoniqarsiz deb topilgan yoki u majlislarda muntazam ishtirok etmagan taqdirda, aksiyador sifatida Iqtisodiyot va moliya vazirligi uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish hamda yangi a’zoni saylash masalasini kiritish huquqiga ega.



Korporativ maslahatchi

Bankda Korporativ boshqaruv xizmati faoliyat yuritadi, u korporativ maslahatchi tomonidan boshqariladi va Kuzatuv kengashi raisiga bevosita bo‘ysunadi. Mazkur maqom ushbu funksiyaning mustaqilligini hamda Bank boshqaruv organlari bilan samarali o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi.

Korporativ maslahatchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank ustavi va ichki hujjatlari talablariga, shuningdek xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyotga muvofiq korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish va takomillashtirish uchun javobgar hisoblanadi.

Korporativ maslahatchining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik, ustav va Bank ichki reglamentlari talablariga rioya etilishini ta’minlash;
- Kuzatuv kengashi, Boshqaruv va aksiyadorlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish, shuningdek Kuzatuv kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;
- aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni o‘z vaqtida va to‘liq axborot bilan ta’minlash;
- Bankda uzoq muddatli barqarorlikka yo‘naltirilgan hamda ESG tamoyillarini strategik va operatsion jarayonlarga integratsiya qilishni nazarda tutuvchi korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishda ishtirok etish.

Korporativ maslahatchi faoliyati aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga, shuningdek Bankning investitsion jozibadorligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Alimov Kamron Fiqratovich

Korporativ maslahatchi

Tug‘ilgan yili va joyi

1973-yil 28-fevral, Iroq, Bag‘dod shahri

Ma’lumoti

Oliy, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

So‘nggi 5 yildagi ish faoliyati

2019–2025-yillar — SQB korporativ maslahatchisi.

Ichki audit tizimi

GRI 205

Ichki audit departamenti Kuzatuv kengashi va Audit qo‘mitasiga bo‘ysunadi hamda “uchinchi himoya chizig‘i” funksiyasini bajaradi. Mazkur bo‘linma ichki nazorat tizimining ishonchliligini ta’minlash, risklarni boshqarish va belgilangan tartib-tamoyillarning buzilishini oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Departament hisobotlari va tavsiyalari Bank rahbariyati tomonidan strategik qarorlar qabul qilish va operatsion faoliyatni takomillashtirishda foydalaniladi. Har bir audit yakuniga ko‘ra Boshqaruv uchun hisobotlar, shuningdek Audit qo‘mitasi va Kuzatuv kengashi uchun choraklik hisobotlar tayyorlanadi.

Ichki audit departamenti quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

risklarni boshqarish tizimini ichki hujjatlar va tashqi normativ-huquqiy talablar asosida mustaqil baholaydi;

Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan risk-appetit doirasidagi qarorlar ijrosini nazorat qiladi;

tashqi auditorlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish, tashqi audit jarayonini muvofiqlashtirish hamda ularning tavsiyalarining bajarilishini monitoring qilish.

Ichki audit rejasi riskga yo‘naltirilgan yondashuv asosida quyidagilarni inobatga olgan holda shakllantiriladi:

- biznes-jarayonlar va faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha risk darajasi bahosi;
- mavjud resurslar hajmi;
- Bankning strategik ustuvor yo‘nalishlari.

2025-yilda asosiy e’tibor yuqori risk darajasiga ega biznes-jarayonlarga, asosan kreditlash sohasiga qaratildi. Reja doirasida davlat dasturlari asosida ajratilgan ipoteka kreditlari, imtiyozli ta’lim kreditlari, korporativ kreditlash hamda kichik va o‘rta biznes subyektlarini kreditlash yo‘nalishlari bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazildi.


Bankning barcha biznes-jarayonlari asosiy va qo‘llab-quvvatlovchi faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan 42 ta guruhga birlashtirilgan. Hisobot yilida 14 ta biznes-jarayonlar guruhi, 7 ta tematik tekshiruv hamda 5 ta hududiy bo‘linma auditi o‘tkazildi. IT-jarayonlar bahosi COBIT 2019 metodologiyasi asosida, axborot xavfsizligi tizimining muvofiqligi esa ISO 27001 standarti talablari asosida amalga oshirildi.

2025-yilda moliyaviy yoki reputatsion risklarga olib kelishi mumkin bo‘lgan muhim kamchiliklar aniqlanmadi. Kafillik faoliyati va xodimlarni boshqarish jarayonlarida tizimli kamchiliklar qayd etildi. Ularning asosiy sabablari ichki normativ hujjatlarni yangilash zarurati hamda ayrim jarayonlarni qo‘shimcha avtomatlashtirish ehtiyoji bilan bog‘liq.

2025-yilda yillik audit rejasi 100% bajarildi. 2023–2025-yillar davomida ichki audit tomonidan Bankning barcha biznes-jarayonlarining 76% qismi qamrab olindi. Hisobot yilida IT-nazoratlar va kiberxavfsizlik tizimi samaradorligi yetarli darajada va belgilangan talablarga muvofiq deb baholandi.

Ichki audit tavsiyalarining 98% belgilangan muddatlarda amalga oshirildi, bu esa o‘tgan yil ko‘rsatkichidan yuqori natijani tashkil etdi. Kafillik faoliyati yo‘nalishidagi tavsiyalar orqali boshqaruv tizimini takomillashtirishga erishildi, natijada jarayonlar shaffofligi oshirildi va nazorat muhiti kuchaytirildi.

2024–2026-yillarga mo‘ljallangan ichki auditni rivojlantirish strategiyasi doirasida IT-auditorlar soni oshirildi hamda tashqi auditorlar bilan o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish jarayonlari avtomatlashtirildi. IT-auditorlar kompetensiyalarini rivojlantirish ishlari muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.



Ichki audit departamenti faoliyati samaradorligi

Ichki audit departamenti faoliyati samaradorligi tasdiqlangan asosiy ko'rsatkichlar asosida baholandi, jumladan:

- yillik audit tekshiruvlari rejasining bajarilishi;
- xodimlar malakasini oshirish rejasining bajarilishi;
- hisobotlarni tayyorlash va tavsiyalarni taqdim etishning belgilangan muddatlariga rioya etilishi.

Departamentning oxirgi tashqi mustaqil baholashi 2022-yilda o'tkazilgan. Regulyator talablari asosida navbatdagi mustaqil baholashni 2027-yil yakuniga qadar o'tkazish rejalashtirilgan.

Ichki auditorlarning malakasini oshirish

2025-yil yakuni holatiga ko'ra, Ichki audit departamenti xodimlari soni 28 nafarni tashkil etdi. Xodimlarning bank sohasi va audit yo'nalishidagi o'rtacha ish staji 7,3 yilni tashkil etadi. Professional kompetensiyalarni rivojlantirish tizimli asosda amalga oshirilib, xalqaro ta'lim, professional (hard skills) va boshqaruv (soft skills) ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlarini qamrab oldi.

Hisobot yilida besh nafar xodim xalqaro professional malakani bosqichma-bosqich olish doirasida ACCA imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirdi. Shuningdek, xodimlar CIA va CISA sertifikatsiyalariga tayyorgarlikni davom ettirmoqda. Barcha o'quv tadbirlari yakunida bilimlarni majburiy testdan o'tkazish amaliyoti joriy etilgan. Bundan tashqari, har chorakda Bosh auditor tomonidan majburiy bilim sinovi uchun normativ hujjatlar ro'yxati belgilanadi, test natijalari esa KPI tizimida inobatga olinadi.

Ilg'or xalqaro amaliyotni joriy etish maqsadida xodimlar yetakchi Yevropa banklarida o'tkazilgan ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari va ishchi tashriflarda ishtirok etdi. Ishchi tashriflar davomida ichki auditning yillik rejasini shakllantirish, risklarni baholash, audit dasturlarini ishlab chiqish, sun'iy intellektdan foydalanish va ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha tajriba almashildi.

Biznes-jarayonlarning avtomatlashtirilish darajasi oshib borayotgani va raqamli mahsulotlar ko'lamining kengayishi hisobga olinib, IT-auditorlar soni ko'paytirildi. Bu esa axborot texnologiyalari sohasidagi ekspertizani kuchaytirish hamda audit tekshiruvlarida analitik vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Qo'shimcha ravishda, Bosh auditor "AI leadership: Sun'iy intellekt — o'sish strategiyasi sifatida" dasturi bo'yicha sertifikatlangan o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunladi.

2026-yilga mo'ljallangan rejalar

2026-yilda ichki audit funksiyasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- audit jarayonlariga sun'iy intellekt vositalari va kengaytirilgan ma'lumotlar tahlilini bosqichma-bosqich joriy etish;
- xodimlar malakasini yanada oshirish;
- xalqaro professional sertifikatlarga ega auditorlar ulushini ko'paytirish.

Risklarni boshqarish

SQBda risklarni boshqarish strategik qarorlar qabul qilishda asosiy yo'naltiruvchi tamoyil hisoblanadi. Risklarni boshqarish Bankning barcha darajalarida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tavsiyalari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Risklarni boshqarish departamenti quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bankning risk-appetit va risk profili ko'rsatkichlari limitlarini boshqarish bo'yicha tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- joriy va kelgusi davrlar uchun, jumladan yirik bitimlar va yangi operatsiya turlarini hisobga olgan holda, risk-appetit holati va risk profilini baholaydi;
- risk-appetit va risk profili ko'rsatkichlariga rioya etilishini nazorat qiladi hamda ko'rsatkichlar buzilishi bo'yicha Boshqaruvga hisobot taqdim etadi;
- limitlar monitoringi va ularga rioya etish natijalari bo'yicha Boshqaruvga hisoboti taqdim etadi hamda risklarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- bankning risk-appetitini rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring qilish bo'yicha ichki hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi.

Risklarni boshqarish faoliyati Bankning ichki normativ hujjatlariga, jumladan Risklarni boshqarish siyosati, Stress-test o'tkazish siyosati, 2025-yil uchun risk profili va risk-appetit siyosati hamda Likvidlikni boshqarish siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Hozirgi kunda Bankning barcha biznes-jarayonlari ESG risklari hisobga olingan holda baholanadi. Kompetensiyalarni oshirish doirasida Risklarni boshqarish departamentining yetti nafar xodimi Aktif Bank va Turk Eximbank ko'magida Turkiyada o'quv dasturlarida ishtirok etdi.

Risklarni boshqarish jarayoni uch darajada amalga oshiriladi:

Risklarni boshqarishning strategik darajasi

Kuzatuv kengashi, Bank Boshqaruvi va Boshqaruv raisi

Ushbu daraja Bankning jami risklarini boshqarish, talablar va cheklovlarni shakllantirish, boshqaruv organlari hamda bo‘linmalar vakolatlarini belgilash, shuningdek ichki normativ hujjatlarni tasdiqlash uchun javobgar hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi har yili Bankning risk-appetit darajasini tasdiqlab, tashkilot uchun qabul qilinadigan risklarning umumiy chegaralarini belgilaydi.

Risklarni boshqarishning taktik darajasi

Risklar bo‘yicha bosh direktori (CRO) hamda Bank Boshqaruvi huzuridagi kollegial organlar

Ushbu daraja strategik darajada belgilangan cheklovlar doirasida ajratilgan risk guruhlarini boshqarishda ishtirok etadi.

Risklar bo‘yicha qo‘mitalar kabi kollegial organlar muayyan risk turlari bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘lib, batafsil strategiya va protseduralarni ishlab chiqadi.

Risklarni boshqarishning operatsion darajasi

Risklarni boshqarish va komplayens nazorati departamenti hamda risk egalari

Ushbu daraja belgilangan cheklovlar doirasida risklarni bevosita boshqarish uchun javobgardir.

Risklarni boshqarish va komplayens nazorati departamenti hamda operatsiyalarda bevosita ishtirok etuvchi xodimlar kundalik faoliyatda risklarni baholash, monitoring qilish va nazoratni amalga oshiradi.

Har bir daraja uchun qaror qabul qilishda limitlar belgilangan. Ushbu limitlar oshirilgan taqdirda, qaror yuqori boshqaruv organi ko‘rib chiqishiga kiritiladi. Bu boshqaruvning ierarxik nazoratini ta’minlaydi hamda pastki darajalarda haddan tashqari riskli qarorlar qabul qilinishining oldini oladi.

2025-yilda risk profili va biznes-rejani uyg‘unlashtirish bo‘yicha ishlar davom ettirildi: rivojlanish parametrlari risk-appetit bo‘yicha belgilangan limitlar hamda regulyator talablarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Risk profilini aniqlashda 85 dan ortiq asosiy ko‘rsatkichlar inobatga olinadi va har biri uchun indikator qiymatlar hamda cheklov darajalariga yaqinlashganda eskalatsiya mexanizmi belgilangan.

Risk-appetit miqdorini belgilashga yondashuv

Bank risk profili ko‘rsatkichlari bo‘yicha majburiy va tavsiyaviy cheklovlarni Boshqaruv organlari qarorlari, Bank rivojlanish strategiyasi va biznes-reja, tashqi standartlar hamda ichki cheklovlarga asoslangan holda belgilaydi. Limitlarni o‘rnatishda faoliyat o‘sish sur’atlari, tarixiy ma’lumotlar hamda bufer qiymatlar inobatga olinadi.


Bankning tarkibiy bo‘linmalari belgilangan risk-appetit limitlari doirasida faoliyat yuritadi, Risklarni boshqarish departamenti esa ushbu limitlarga rioya etilishini nazorat qiladi hamda ularning oshib ketishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring qiladi.

Kredit riski

Bank kredit portfeli bo‘yicha strategik maqsadlarga erishishni ko‘zlab, kredit riskining maqbul darajasini belgilaydi. Bank qonunchilik talablariga muvofiq, ehtimoliy kredit yo‘qotishlari uchun konservativ zaxiralash siyosatiga amal qiladi. Kredit riskini sifatli boshqarish oqilona kredit siyosati, qat’iy mezonlar va kreditlash standartlariga tayanadi.

Barcha kredit bitimlari kredit risklarini boshqarish tizimi orqali o‘tkaziladi. Bankda CRM tizimi doirasida biznesning har bir segmenti uchun skoring modellari joriy etilgan; skoring qo‘llanilishidan oldin avtomatlashtirilgan risk-qoidalar ishlaydi. Skoring baholashdan so‘ng kredit underwriting (kreditni chuqur ekspertiza qilish) funksiyasi ishga tushiriladi.

Skoring modellari tarixiy ma’lumotlar tahliliga asoslangan bo‘lsa, reyting modellari ichki va tashqi bozorlarda obligatsiya emitentlari bo‘yicha kuzatuv natijalariga tayangan holda shakllantiriladi.



Kredit tahlilida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini hisobga olish

FN-CB-410a.2

SQB moliyalashtirish bo‘yicha arizalarni ko‘rib chiqish jarayonida kredit tahlili va risklarni boshqarish tizimiga ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini integratsiya qiladi.

Ekologik omillar

E

qarz oluvchining faoliyati atrof-muhitga ta’siri va ushbu ta’sir bilan bog‘liq risklarni tahlil qilishda hisobga olinadi. Xususan, issiqxona gazlari emissiyasi va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari, tabiiy resurslardan foydalanish hamda chiqindilarni boshqarish amaliyoti, ekologik qonunchilikka rioya etilishi, shuningdek, qarz oluvchining jismoniy va tranzitsion iqlim risklariga moyilligi baholanadi.

Ijtimoiy omillar

S

qarz oluvchining ijtimoiy mas’uliyati hamda uning xodimlar va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Baholash doirasida mehnatni muhofaza qilish va bandlik sharoitlari, inson huquqlariga rioya etilishi va gender tengligi tamoyillari, faoliyatning mahalliy jamoalarga ta’siri, shuningdek, mumkin bo‘lgan reputatsion risklar va ijtimoiy nizolar ko‘rib chiqiladi.

Boshqaruv omillari

G

qarz oluvchining korporativ boshqaruv sifati darajasini aks ettiradi. Bank boshqaruv organlari tuzilmasi va ichki nazorat tizimi, shaffoflik va axborotni oshkor etish darajasi, ishbilarmonlik etikasi tamoyillariga rioya etilishi, korrupsiyaga qarshi va komplayens tartib-taomillarining mavjudligi, shuningdek, risklarni boshqarish tizimining samaradorligini baholaydi.

Konsentratsiya riski

2025-yil yakunlariga ko‘ra, asosiy risk sifatida kredit portfelining konsentratsiyasi saqlanib qolmoqda. Bank kredit portfelini diversifikatsiya qilish bo‘yicha tizimli choralarni amalga oshirmoqda. Natijada korporativ kredit portfeli ulushi chakana kreditlash hamda kichik va o‘rta biznes segmentlari o‘sishi hisobiga 50 foizgacha kamaytirildi. Davlat korxonalari va kompaniyalarini moliyalashtirish hajmi 10 foizga qisqartirildi. Ayrim tarmoqlarda, jumladan qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va qurilish sohalarida kredit portfelining konsentratsiya darajasi pasaytirildi. Xorijiy valyutada berilgan kreditlar ulushi 62,6 foizdan 60,1 foizgacha kamaydi. Ko‘mir sanoati ulushi kredit portfelida 2 foizni tashkil etdi (yil davomida qayd etilgan maksimal 3 foizga nisbatan). Sanoat sektori ulushi 54 foizdan 48,4 foizgacha pasaydi. Qurilish sektori bo‘yicha ichki belgilangan indikator oshib ketgani qayd etildi (indikativ daraja 3 foiz bo‘lgan holda 4,4 foiz), bu esa kredit portfelidagi konsentratsiyani cheklashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab qildi.

Axborot xavfsizligi riski

Faol avtomatlashtirish jarayonlari va raqamli kanallarning rivojlanishi hisobiga operatsion risk doirasidagi IT omillari hamda axborot xavfsizligi risklari kuchaydi. Bankda IT va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish bo‘yicha to‘liq ikkinchi himoya liniyasi shakllantirilgan. Muhim axborot tizimlari bo‘yicha risklarni muntazam baholash amalga oshirilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tuzatish choralari ishlab chiqiladi. Axborot xavfsizligi bo‘yicha jamoa tarkibi kuchaytirildi; yangi mahsulotlar majburiy ravishda xavfsizlik darajasi bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkaziladi.

2026-yilga mo‘ljallangan rejalar

IFRS S2-9(a)

Bank 2027–2029-yillar uchun Strategiyani tayyorlash ishlarini boshladi. Mazkur Strategiya doirasida konsalting kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan risk-menejment bo‘yicha alohida yo‘nalish (blok) ham kiritiladi. 2026-yilga qo‘yilgan maqsadlar doirasida chakana kreditlash hamda kichik va o‘rta biznes segmentini yanada rivojlantirish, jarayonlarni avtomatlashtirishni davom ettirish, shuningdek, risklarni boshqarish sohasida professional kompetensiyalarni oshirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 2026-yil rejalarida iqlim risklarini Bankning yagona risklar reyestriga yanada chuqur integratsiya qilish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.

Firibgarlik riski

Bank firibgarlik va korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik siyosatini qat’iy amalga oshiradi hamda firibgarlikka oid shubhali holatlar yuzasidan barcha murojaatlarni ko‘rib chiqadi. Bunday holatlarning takrorlanishini oldini olish maqsadida tegishli profilaktik va nazorat choralari ko‘riladi.

Stress-test o‘tkazish

FN-CB-550a.2

Stress-test jarayoni strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilingan bo‘lib, Bank faoliyati davomida sezilarli yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlash, tahlil qilish va baholashga yo‘naltirilgan.

Bank Boshqaruvining 2023-yil 18-iyuldagi 155-sonli qaroriga hamda SQB tizimida stress-test o‘tkazish siyosatiga (2023-yil 28-avgustda Metodologiya boshqarmasida 562-son bilan tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan) muvofiq, stress-testlar majburiy tartibda kamida har chorakda bir marta hamda Bank Boshqaruvi topshirig‘iga binoan alohida holatlarda o‘tkaziladi. Natijalar keyinchalik Bank Boshqaruvi ko‘rib chiqishiga taqdim etiladi.

Stress-test o‘tkazishning maqsadi stressli vaziyatlarning mavjudligi va ularning ta’siri haqida xabardorlikni oshirish, ularni oldini olish hamda Bank faoliyatining barqarorligini ta’minlash maqsadida ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishdan iborat.

Yaxlitlik tamoyiliga asoslangan holda, Bank o‘z faoliyatining barcha muhim yo‘nalishlarini stress-testdan o‘tkazadi. Ushbu yo‘nalishlarda Bank sezilarli risklar va katta miqdordagi yo‘qotishlarga duch kelishi yoki bank faoliyatining barqarorligi va uzluksizligiga tahdid yuzaga kelishi mumkin.

Bank faoliyatining muhim yo‘nalishlarini aniqlash mezonlari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy yoki nomoliyaviy risklarga moyillik;
- katta miqdordagi moliyaviy yo‘qotishlar yuzaga kelishi ehtimoli;
- faoliyatning keng ko‘lamda va uzoq muddatga buzilishi ehtimoli;
- risk ishtahasining cheklanishi va majburiy standartlar buzilishi xavfi;
- reputatsion yo‘qotish yoki qonunchilik talablarining buzilishi riski.

Bankda stress-test o‘tkazish jarayoni o‘zaro bog‘liq bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lib, quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi:

Bosqich	Mazmuni
Stress-test obyektlarini aniqlash	Tahlil Bank faoliyatining sezilarli yo‘qotishlarga olib kelishi yoki Bank barqarorligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan segmentlari bo‘yicha amalga oshiriladi.
Xavf manbalari va risk omillarini aniqlash	Har bir faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha Bank barqarorligiga sezilarli zarar yoki tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar hamda risk omillarining yuzaga kelish sabablari aniqlanadi.
Ssenariy taxminlarini shakllantirish	Ssenariy turlari belgilanadi va har bir ssenariy uchun tegishli parametrlar (xarakteristikalar) shakllantiriladi.
Stress-test obyektlarida hodisalar oqibatlarini baholash	Stress-hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar va boshqa oqibatlar har bir stress-test obyekti kesimida tahlil qilinadi.
Umumiy natijalarning Bank ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilish	Har bir stress-test obyekti bo‘yicha natijalar jamlanadi hamda ularning Bank ko‘rsatkichlariga ta’siri baholanadi.
Stress-test natijalarini monitoring va nazorat qilish	Bank ko‘rsatkichlari kuzatilib boriladi, belgilangan chegara qiymatlarga rioya etilishi nazorat qilinadi, stress-hodisalarga tayyorgarlik darajasi baholanadi hamda hisobotlar tayyorlanadi.
Stress-test natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish	Riskli hodisalarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning zarurligi, hajmi va fe’l-atvori belgilanadi.

Turli stress-test obyektlari hamda kritik risklar uchun ssenariy taxminlari Bank tomonidan umumlashtirilgan (kombinatsiyalangan) ssenariylar asosida murakkab stress-test modeliga birlashtirilishi mumkin. Ushbu yondashuv stressli hodisalarni yagona integratsiyalashgan model doirasida baholash imkonini beradi.

Stress-test natijalari inqirozli ssenariylar sharoitida kapitalning salohiyat yo‘qotishlarini baholash uchun qo‘llaniladi. Ushbu ma’lumotlar asosida Bank qo‘shimcha kapital jalb etish zarurati, zaxiralarni shakllantirish yoki yuqori riskli pozitsiyalarni qisqartirish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Bunda kapitaldagi yo‘qotishlar ulushi, kapital yetarliligi hamda uning dinamikasi kabi asosiy ko‘rsatkichlar nazorat qilinadi.

Bank stress-test natijalarini muntazam monitoring qiladi va u kamida quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi:

1. Stress natijasidagi yo‘qotishlar ko‘rsatkichlari: umumiy yo‘qotishlar va ularning kapitaldagi ulushi
2. Kapital ko‘rsatkichlari: kapital qiymati, o‘sish sur’atlari va kapital yetarliligi
3. Aktivlar indikatorlari: aktivlar hajmi va o‘sish xususiyati, ishlamaydigan kreditlar ulushi
4. Daromad ko‘rsatkichlari: sof foyda va uning o‘sish dinamikasi, kapital rentabelligi
5. Likvidlik ko‘rsatkichlari: likvidlik defitsiti va likvidlik me’yoriy talablariga rioya etilishi

Stress-test natijalari asosida Risklarni boshqarish departamenti yig‘ma hisoboti tayyorlaydi. Ushbu hisobotida qo‘llanilgan ssenariy taxminlari tavsifi, ularning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini miqdoriy baholash natijalari, shuningdek, amalga oshirilgan ssenariy turiga qarab xulosalar va tavsiyalar aks ettiriladi.

Stress-test bo‘yicha hisobotlar har chorakda va har yili Bank Boshqaruvi hamda Risklarni nazorat qilish va komplayens nazorati qo‘mitasi ko‘rib chiqishiga taqdim etiladi.



Anderrayting

Anderrayting departamenti kredit arizalarini mustaqil baholashni va Bank biznesining barcha segmentlarida qaror qabul qilish standartlarining izchil qo‘llanilishini ta’minlaydi. Uning faoliyati kredit portfeli sifatini saqlash, kredit risklarini minimallashtirish va kreditni tasdiqlash amaliyotida izchillikni ta’minlashga qaratilgan.

Anderrayting metodologik bazasi Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ko‘magida ishlab chiqilgan. 2025-yilda Kreditlarni ma’qullash departamentida avtomatlashtirish darajasini oshirish, qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish hamda foydalaniladigan ma’lumotlar manbalari ro‘yxatini kengaytirishga qaratilgan muhim texnologik va jarayon o‘zgarishlari amalga oshirildi.

Bankning chakana segmentida RPA (Robotic Process Automation), OCR (Optical Character Recognition) texnologiyalari va Machine Learning elementlaridan foydalanuvchi AI-driven underwriting platformasi joriy etildi. Mazkur tizim ayrim kredit mahsulotlarini ko‘rib chiqishning to‘liq siklini — hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olish va verifikatsiya qilishdan tortib real vaqt rejimida kredit qarorini qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonni avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiradi. Yangi platforma mijoz xususiyatlari va mahsulot parametrlariga qarab baholash qoidalari to‘plamini moslashuvchan sozlash imkonini beradi, bu esa jarayonlarni standartlashtirish, qaror qabul qilishning shaffofligini ta’minlash va operatsion samaradorlikni oshirishga xizmat qildi.

Barcha kredit arizalari kredit riskini baholash jarayonidan o‘tkaziladi. Arizalarni ko‘rib chiqishda avtomatlashtirilgan skoring mexanizmlari, ichki va tashqi axborot tizimlari bilan integratsiyalar hamda mijoz ma’lumotlarini verifikatsiya qilishning raqamli vositalaridan foydalaniladi. Mahsulot turi va avtomatlashtirilgan tekshiruvlar natijalariga qarab ayrim arizalar xodim ishtirokisiz to‘liq avtomatik rejimda ko‘rib chiqiladi. Qo‘shimcha tahlilni talab qiladigan yoki avtomatik qaror qabul qilish mezonlariga mos kelmaydigan arizalar esa anderrayterlar ko‘rib chiqishiga yuboriladi. Bunday yondashuv qaror qabul qilish tezligi bilan kredit riskini baholash sifati o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi.

Chuqurlashtirilgan baholash jarayonida qarz oluvchi, kredit mahsuloti, ta’minot, garov taqdim etuvchi hamda kafillarning kompleks tahlili amalga oshiriladi. Ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi: ma’qullash, rad etish yoki texnik rad etish. Departament barcha arizalar, jumladan mijozlarning takroriy murojaatlari bo‘yicha batafsil statistikani yuritadi, bu esa kiruvchi arizalar sifati va qo‘llanilayotgan baholash tartib-taomillarining samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi.

Ko‘rib chiqishning eng uzoq muddati ipoteka kreditlariga xos bo‘lib, bu garovni tahlil qilish va mulkka oid huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

2026-yilda anderraytingning raqamli modelini yanada rivojlantirish rejalashtirilgan. Jumladan, avtomatlashtirilgan kredit konveyerini kengaytirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini, shu jumladan LLM modellarini qo‘llash ko‘lamini oshirish, kredit risklari tahlilini chuqurlashtirish, tashqi ma’lumotlar manbalari va banklararo axborot platformalari bilan integratsiyalarni rivojlantirish, shuningdek kredit qarorlarini qabul qilish jarayonlarini yanada avtomatlashtirish ko‘zda tutilgan.

FN-CB-410b.2

SQB kredit portfeli iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha diversifikatsiya qilingan. Eng katta risk ulushi ishlab chiqarish sohasiga to‘g‘ri keladi (31 trln so‘m), bu kredit portfelining 44 foizini tashkil etadi. Jismoniy shaxslar segmenti (10,1 trln so‘m) portfelning 14 foizini, qolgan qismi esa boshqa tarmoqlarga to‘g‘ri keladi.

Kredit portfelining ushbu tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning tarmoq ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq keladi. Har bir sektor bo‘yicha yalpi ekspozitsiya aktivlar sinflari kesimida quyidagi jadvalda keltirilgan.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori — bosh buxgalter

Sektor	Million so‘m	Portfeldagi ulushi, %
Ishlab chiqarish sanoati (jami)	**31 082 080**	**44**
To‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati	*10 084 954*	*14*
Qurilish materiallari ishlab chiqarish	*6 084 887*	*9*
Metallurgiya va mineral qazib olish	*4 157 242*	*6*
Kimyo, farmatsevtika va plastmassa sanoati	*3 988 391*	*6*
Oziq-ovqat va ichimliklar sanoati	*2 700 137*	*4*
Mashinasozlik va elektronika	*2 246 929*	*3*
Konchilik sanoati	*1 590 927*	*2*
Boshqa sohalar	*228 613*	*0*
Jismoniy shaxslar	**10 121 410**	**14**
Neft, gaz va kimyo sanoati	**6 898 029**	**10**
Xizmatlar	**4 897 726**	**7**
Energiya	**4 453 835**	**6**
Qishloq xo‘jaligi	**4 122 165**	**6**
Savdo	**3 571 017**	**5**
Qurilish	**2 940 757**	**4**
Transport va aloqa	**2 921 779**	**4**
Jami	71 008 798	100

FN-CB-550a.1

Milliy darajada banklarning tizimli ahamiyatini baholash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank tizimi barqarorligini ta’minlash va tizimli risklarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Tizimli ahamiyatga ega banklarni aniqlash tartibi “Tizimli ahamiyatga ega banklarni aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

Tizimli ahamiyatga ega banklarni identifikatsiya qilish har yili regulyator metodikasi asosida amalga oshiriladi, bunda mazkur maqom keyingi kalendar yil uchun beriladi. Hisob-kitoblar so‘nggi to‘rt ketma-ket chorak natijalari asosida bajarilib, Hisobot yilining 1-noyabridan kechiktirmagan holda Markaziy bank Bank nazorati qo‘mitasi ko‘rib chiqishi uchun Moliya barqarorligi departamenti tomonidan taqdim etiladi.

Hisobot davrida SQB tizimli ahamiyatga ega banklar toifasi uchun belgilangan kapital yetarliligi va risklarni boshqarish bo‘yicha amaldagi regulyator talablariga muvofiq faoliyat yuritdi.

Xodimlar va tashkiliy rivojlanish

3 965

kishi

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Bank xodimlarining amaldagi soni

Xodimlarni boshqarish siyosati

Mas’uliyatli mehnat amaliyoti

GRI 2-23, 3-3

Xodimlar Bankning asosiy kapitali va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning kasbiy mahorati, jalb etilganlik darajasi hamda mehnat xavfsizligi Bank faoliyatining barqarorligi va moliyaviy natijalar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. SQB barqaror va uzoq muddatli mehnat munosabatlarini ish beruvchi va xodimlar manfaatlari muvozanatiga asoslangan holda shakllantiradi hamda strategik maqsadlarga erishishda malakali mutaxassislarni jalb qilish va ularni ushlab qolishni ustuvor vazifalardan biri sifatida ko‘radi.

Bankning kadrlarni boshqarish va mehnat munosabatlariga oid yondashuvlari yuqori boshqaruv ishtirokida shakllantiriladi hamda qonuniylik, inson huquqlarini hurmat qilish va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslanadi. Xodimlarni ishga qabul qilish, ularni baholash va lavozimda ko‘tarish jarayonlari kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarga asoslangan holda, kamsitish va subyektiv yondashuvlarsiz amalga oshiriladi.

Asosiy yondashuvlar va talablar Bankning ichki normativ hujjatlarida mustahkamlangan bo‘lib, jumladan:

- SQB Kadrlar siyosati;
- Xodimlarni boshqarish departamenti to‘g‘risidagi Nizom;
- Jamoa shartnomasi;
- Gender tengligini ta’minlash siyosati;
- Xodimlarga ish haqi to‘lash, ularni moddiy rag‘batlantirish hamda boshqa to‘lovlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi Nizom;
- 2024–2026-yillar uchun HR strategiyasi;
- SQBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati;
- SQB xodimlarining axloq kodeksi.

Shu bilan birga, ichki reglamentlarni yangilash, jamoa-shartnomaviy mexanizmlarni takomillashtirish hamda xodimlarga ularning huquqlari, imtiyozlari va kafolatlarini tushuntirish bo‘yicha kommunikatsiyani kuchaytirish ishlari olib borilmoqda. Mehnat munosabatlari doirasida Bank xodimlar vakillari va kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qiladi, jumladan mehnat nizolarini ko‘rib chiqish va tegishli komissiyalar faoliyatini yuritadi.

HR siyosatini amalga oshirish uchun javobgarlik boshqaruv organlari va tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida belgilangan vakolatlar doirasida taqsimlangan. Xodimlarni boshqarish funksiyalarini Kadrlar va tashkiliy rivojlanish departamenti muvofiqlashtiradi. Mazkur departament HR jarayonlarini rivojlantirish, o‘qitish va rivojlantirish amaliyotlarini joriy etish, inklyuziv muhitni qo‘llab-quvvatlash hamda mehnat qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta’minlaydi. Bank amaliyotlari mehnat qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash hamda majburiy yoki bolalar mehnati, shuningdek, kamsitish holatlarining oldini olishga yo‘naltirilgan. Hisobot davrida mehnat munosabatlari sohasidagi nizolar bilan bog‘liq ish faoliyatining to‘xtatilishi holatlari qayd etilmagan.

2025-yil ish natijalari

2025-yilda Bank kadrlar boshqaruvi tizimi yetukligini oshirish hamda HR funksiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish bo‘yicha alohida xizmat tashkil etildi, o‘quv markazi hamda onlayn ta’lim platformasini ishga tushirish uchun asos yaratildi.

Tashkiliy tuzilmaning samaradorligini oshirish, jumladan lavozimlarni unifikatsiya qilish va HR-analitika tizimini rivojlantirishga muhim e’tibor qaratildi. Xodimlar faoliyatini baholash tizimi doirasida KPI ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi, shuningdek xodimlarni rivojlantirish va rotatsiya bo‘yicha qarorlar qabul qilishda tanlov asosida PIF va Switch kabi salohiyatni baholash vositalaridan foydalaniladi. 2025-yilda xodimlar attestatsiyasi o‘tkazilmagan.

2025-yilda Bank xodimlarga ish haqi to‘lash, mehnatni rag‘batlantirish va boshqa to‘lovlar tartibi to‘g‘risidagi Nizomni yangiladi va tasdiqladi. Mazkur hujjat mukofotlash tizimini shakllantirish bo‘yicha yagona va shaffof qoidalarni belgilaydi hamda Bosh ofis va filiallar tarmog‘ining barcha xodimlariga tatbiq etiladi, bu esa yondashuvlarning bir xilligini va xodimlar xarajatlarini boshqarish imkoniyatini ta’minlaydi.

Nizom mukofotlash tuzilmasini belgilab beradi, u doimiy qism (shtat jadvaliga muvofiq lavozim maoshi) va KPI natijalariga asoslangan o‘zgaruvchan qismdan iborat. Hujjatda KPI kartalarini shakllantirish va tasdiqlash tartibi, natijalarni tasdiqlash jarayoni, rag‘batlantiruvchi to‘lovlarni hisoblash va to‘lash muddatlari, shuningdek tuzatish koeffitsiyentlarini qo‘llash shartlari belgilangan. Bundan tashqari, bir martalik mukofotlar va rag‘batlantirishlar, kompensatsiya to‘lovlari (shu jumladan funksiyalarni birlashtirish va qo‘shimcha vazifalarni bajarish holatlarida) hamda belgilangan asoslar va limitlar doirasida moddiy yordamni o‘z ichiga olgan ijtimoiy to‘lovlar ham tartibga solingan.

2025-yilda Nizomning yangilanishi amaldagi normalarni tizimlashtirish, qaror qabul qilishdagi rollar va jarayonlarni aniqlashtirish hamda to‘lovlarni hisoblash va boshqarish bo‘yicha yagona yondashuvni mustahkamlash imkonini berdi. Bu esa mukofotlash tizimining adolatliligini va uning Bank faoliyati natijalari bilan bog‘liqligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasida muhim qadam sifatida boshqaruv tarkibi uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta joriy etildi hamda ushbu dastur doirasini barcha xodimlarga kengaytirish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari boshlandi. Kasaba uyushmalari bilan hamkorlik doirasida mehnat kafolatlari va xodimlar sonini optimallashtirishga oid tashabbuslarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlar davom ettirildi.

2026-yil uchun asosiy ish yo‘nalishlari

2026-yilda Bank kadrlar boshqaruvi tizimini rivojlantirishni quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirishni rejalashtirmoqda:

1. O‘quv markazi hamda onlayn ta’lim platformasini ishga tushirish.
2. HR-analitika va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish amaliyotlarini yanada rivojlantirish.
3. Xodimlarni gradelash (grading) tizimini joriy etish.
4. Gender tengligini ta’minlash va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik amaliyotlarini rivojlantirish.
5. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta dasturini barcha xodimlarga kengaytirish.
6. Xodimlarning jalb etilganlik darajasini (engagement) o‘rganish bo‘yicha so‘rov o‘tkazish.
7. Rahbarlar faoliyatini baholash tizimida KPI va ESG ko‘rsatkichlaridan foydalanishni rivojlantirish.

Xodimlar tarkibi

GRI 2-7

+1%

3 965

nafar

2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra,
Bank xodimlarining amaldagi soni

34%

Jami xodimlar sonida
ayollarning ulushi

3 841

nafar

doimiy xodimlar

2 538

nafar

30–50 yosh oralig‘idagi
xodimlar


100%

xodimlar

jamoa shartnomasi bilan
qamrab olingan



Xodimlarning amaldagi soni dinamikasi, nafar



2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Bank xodimlarining umumiy soni 3 965 nafarni tashkil etdi, shundan 3 841 nafari doimiy xodimlar va 124 nafari vaqtinchalik xodimlardir. 2024-yilga nisbatan (3 928 nafar) xodimlar soni 1 foizga oshdi, bu esa tashkiliy tuzilmani optimallashtirish bilan bir vaqtda kadrlar tarkibining barqarorligini aks ettiradi. 2025-yilda xodimlarning gender tarkibida erkaklar 2 610 nafarni, ayollar esa 1 355 nafarni tashkil etdi. Ayollarning umumiy xodimlar sonidagi ulushi sezilarli darajada saqlanib qolgan holda taxminan 34 foizni tashkil etadi, bu Bankning teng imkoniyatlar va kamsitmaslik tamoyillariga sodiqligini tasdiqlaydi.

Doimiy xodimlar tarkibida 2 571 nafar erkak va 1 270 nafar ayol mavjud bo‘lsa, vaqtinchalik xodimlar orasida 39 nafar erkak va 85 nafar ayol qayd etilgan.

Amaldagi xodimlar soni, nafar GRI 2-7

Xodimlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Erkaklar	2 484	2 490	2 610	4,8
Ayollar	1 561	1 438	1 355	-5,8
30 yoshgacha	808	948	1 074	13,3
30–50 yosh	2 834	2 624	2 538	-3,3
50 yoshdan katta	372	356	353	-0,8
Jami	4 045	3 928	3 965	0,9

Xodimlarning yosh tarkibi iqtisodiy jihatdan eng faol guruhda xodimlar ustunligi bilan tavsiflanadi. 2025-yilda 30 yoshgacha bo‘lgan xodimlar soni 1 074 nafarni, 30–50 yosh oralig‘idagi xodimlar 2 538 nafarni, 50 yoshdan katta xodimlar esa 353 nafarni tashkil etdi. Mazkur tuzilma yosh kadrlar salohiyati hamda yetuk tajribaga ega mutaxassislar tajribasining uyg‘unlashganini ko‘rsatadi, bu esa bilimlar uzluksizligini va kadrlar tarkibining barqarorligini ta’minlaydi.

Doimiy va vaqtinchalik xodimlar, nafar

GRI 2-7

Xodimlar	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	Doimiy xodimlar	Vaqtinchalik xodimlar	Doimiy xodimlar	Vaqtinchalik xodimlar	Doimiy xodimlar	Vaqtinchalik xodimlar	Doimiy xodimlar	Vaqtinchalik xodimlar
Erkaklar	2 438	46	2 447	43	2 571	39	5,1	-9,3
Ayollar	1 445	116	1 338	100	1 270	85	–5,1	-15
Jami	**3883**	**162**	**3 785**	**143**	**3 841**	**124**	**–1,5**	**-13,3**

Bank faoliyat yuritayotgan hududlarda yirik ish beruvchi bo‘lib qolmoqda. Avvalgi yillarda bo‘lgani kabi, ishchi kuchining eng katta konsentratsiyasi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi, bu yerda 2025-yilda 2 809 nafar xodim (umumiy xodimlar sonining 70,7 foizi) faoliyat yuritadi.

Hududlar bo‘yicha xodimlar soni, nafar

GRI 2-7

Xodimlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	198	128	120	-6,3
Andijon	169	92	72	-21,7
Buxoro	203	121	120	-0,8
Jizzax	79	42	43	2,4
Qashqadaryo	154	88	78	-11,4
Navoiy	100	62	58	-6,5
Samarqand	134	76	81	6,6
Namangan	79	47	48	2,1
Surxondaryo	156	100	107	7
Sirdaryo	85	42	41	-2,4
Toshkent shahri	2 013	2 744	2 810	2,4
Toshkent viloyati	341	193	193	0
Farg'ona	227	129	131	1,6
Xorazm	107	64	63	-1,6
Jami	**4 045**	**3 928**	**3 965**	**0,9**

70,7%

xodimlar

ishchi kuchining eng katta konsentratsiyasi Toshkent shahriga


730

nafar

shtatdan tashqari xodimlar soni

GRI 2-8

Shtatdan tashqari (vaqtinchalik) xodimlar soni, nafar



Shuningdek, Bankning turli tarkibiy bo‘linmalarida shtatdan tashqari xodimlar faoliyat yuritishi qayd etiladi. 2025-yilda ularning soni 730 nafarni tashkil etdi.

GRI 2-30

2025-yil holatiga ko‘ra, Bankning barcha xodimlari 100 foiz miqdorda jamoa shartnomasi bilan qamrab olingan.

GRI 402-1

Jamoa shartnomasiga muvofiq, ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadigan hollarda tegishli taklif Kasaba uyushmasi qo‘mitasiga taqdim etilishi va u taqdim etilgan kundan boshlab 10 kalendar kundan kechiktirmagan holda ko‘rib chiqilishi lozim. Ish beruvchi tomonidan mehnat shartlari o‘zgartirilishi tashabbusi ilgari surilganda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, xodimga rejalashtirilgan o‘zgarishlar sanasidan kamida 1 oy oldin xabarnoma berilishi shart.



Xodimlarni tanlash

GRI 401-1

2025-yilda SQB HR funksiyasining umumiy transformatsiyasi hamda kadrlar jarayonlarini raqamlashtirish doirasida xodimlarni tanlash tizimini rivojlantirishni davom ettirdi. Bank tomonidan xodimlarni tanlash jarayoni barqaror rivojlanishni ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda barcha biznes yo'nalishlarida kadrlar salohiyatini mustahkamlashning strategik vositasi sifatida ko'riladi.

Bank xodimlarni tanlashda adolatli, shaffof va obyektiv yondashuv tamoyillariga amal qiladi hamda nomzodlarning faqat kasbiy kompetensiyalari, tajribasi, ishbilarmonlik va shaxsiy sifatlariga asoslanadi.
Ishga qabul qilish jarayonlari mehnat qonunchiligi talablari va ichki normativ hujjatlarga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, vakansiyalarni yopish samaradorligi va tezligini oshirishga yo'naltirilgan.

2025-yilda HR jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli rekruting vositalarini rivojlantirish davom ettirildi, jumladan CleverStaff tizimidan foydalanish, rekruterlar va HR biznes-partnyorlarning rolini kuchaytirish hamda nomzodlar "funeli" (talabgorlar oqimi) bilan ishlashda yanada tizimli yondashuv joriy etildi. Bu ishga qabul jarayonlarining boshqaruvchanligini oshirish, tanlov sifatini yaxshilash hamda kadrlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda analitik yondashuvni kuchaytirish imkonini berdi.

Nomzodlarni jalb etish uchun Bank keng ko'lamli rekruting kanallaridan foydalanadi, jumladan:

- ichki xodimlar bazasi va kadrlar zaxirasi;
- Bankning rasmiy veb-saytidagi karyera sahifasi;
- professional ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar (LinkedIn, Telegram va boshqalar);
- tegishli ta'lim muassasalari va rekruting platformalari bilan hamkorlik.

790
nafar
hisobot yilida ishga qabul qilingan xodimlar

Bo'sh lavozimlarga tanlov asosida ishga qabul qilish jarayoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi: kadrlar ehtiyojini aniqlash, rezyumelarni dastlabki saralash va tahlil qilish, suhbatlar o'tkazish hamda nomzodlarni kasbiy testdan o'tkazish. Ushbu yondashuv xodimlarni tanlash sifatining yagona standartlarini ta'minlaydi va nomzodlarning lavozim talablariga mos kelmasligi bilan bog'liq risklarni kamaytiradi.

2025-yilda xodimlar almashinuvi darajasi, shu jumladan ishchi kuchini optimallashtirish 19,5%ga yetdi, bu 2024-yilga (18,0%) nisbatan 1,5% punktga o'sdi. 2023-yilda aylanma ko'rsatkichi 7,6% tashkil etdi. O'sish, birinchi navbatda, bank faoliyatini qisman optimallashtirish bo'yicha samaradorlikni oshirish tashabbusi bilan bog'liqdir.

GRI 401-1

Hisobot yilida ishga qabul qilingan xodimlar, jins bo'yicha, nafar

Xodimlar	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Erkaklar	450	398	681	71
Ayollar	296	109	109	0
Jami	746	507	790	56

GRI 401-1

Hisobot yilida ishga qabul qilingan xodimlar, yosh bo'yicha, nafar


Xodimlar	2023	2024	2025	O'zgarish, %
30 yoshgacha	268	279	470	68
30–50 yosh	405	224	299	33
50 yoshdan yuqori	73	4	21	425
Jami	746	507	790	56

GRI 401-1

Hisobot yilida ishga qabul qilingan xodimlar, hududlar bo'yicha, nafar

Xodimlar	2023	2024	2025	O'zgarish, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	27	13	6	-54
Andijon	20	11	13	18
Buxoro	14	6	17	183
Jizzax	11	5	10	100
Qashqadaryo	4	3	9	200
Navoiy	8	4	6	50
Samarqand	4	3	20	567
Namangan	5	4	13	225
Surxondaryo	13	5	20	300
Sirdaryo	4	4	4	0
Toshkent shahri	589	397	570	44
Toshkent viloyati	25	22	44	100
Farg'ona	11	22	52	136
Xorazm	11	8	6	-25
Jami	746	507	790	56

Xodimlar almashinuvi, %



Iqtidorlilarni jalb etish va sodiqlikni oshirish

Iqtidorli xodimlarni jalb etish, rivojlantirish va ularni saqlab qolish SQB kadrlar siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, Bankning barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Biznes-model transformatsiyasi va raqamli kanallarning kengayishi sharoitida zamonaviy kasbiy va raqamli kompetensiyalarga ega, shuningdek strategik maqsadlarga erishishga yuqori darajada jalb etilgan jamoani shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtidorlarni jalb etish uchun Bank ichki va tashqi kanallar kombinatsiyasidan jumladan, professional ijtimoiy media va raqamli platformalardan, shuningdek, ta’lim muassasalari bilan o‘zaro aloqadan va kasbiy rivojlanish tadbirlarida ishtirok etishdan foydalanadi. Xususan, 2025-yil mart–iyul oylarida Bank “Karyera kuni” tashabbusi doirasidagi kasb yarmarkalarida ishtirok etdi. Ushbu tadbirlarda HR jamoasi Bankning karyera imkoniyatlarini taqdim etdi va nomzodlarni dastlabki saralashdan o‘tkazdi. Mazkur yondashuv nomzodlar bazasini kengaytirish, yosh mutaxassislar oqimini ta’minlash hamda zarur kompetensiyalarga ega tajribali mutaxassislarni jalb etishga xizmat qiladi.

Yollash jarayonlarini rivojlantirish bilan bir qatorda Bank xodimlarni ushlab qolish va ularning jalb etilganlik darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratadi. 2025-yilda jalb etilganlik va xodimlar almashinuvi (tekuchest) ko‘rsatkichlari yagona ma’lumotlar saqlash va tahlil tizimiga integratsiya qilindi. Bu esa kadrlarni boshqarishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni kuchaytirish, xodimlarni rivojlantirish, rotatsiya va rag‘batlantirish bo‘yicha qarorlarni aniqroq shakllantirish imkonini berdi. Samaradorlikni baholash natijalariga ko‘ra, yuqori ko‘rsatkichlarga ega xodimlar kadrlar zaxirasiga kiritiladi, bu esa barqaror vorislikni shakllantirish va kadrlar uzilishlari riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Iqtidorlarni ushlab qolishning muhim elementi sifatida kasbiy va martaba rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hisoblanadi. 2025-yil iyun oyida Bankda yangi xodimlarning moslashuv jarayonini tezlashtirish, tajriba almashish va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Ustoz–Shogird” mentorlik dasturi ishga tushirildi. Shuningdek, Bankda xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish bo‘yicha alohida xizmat tashkil etildi, o‘quv markazi hamda onlayn ta’lim platformasini yaratish uchun asoslar shakllantirildi hamda HR jarayonlarini avtomatlashtirish davom ettirildi. Ushbu chora-tadbirlar uzluksiz o‘qitish muhitini shakllantirish, boshqaruv va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda xodimlarning ichki mobilitetini oshirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, Bank nomoddiy motivatsiya vositalari, korporativ madaniyat va ichki kommunikatsiyalarni rivojlantirib bormoqda, bu esa xodimlar sadoqatini mustahkamlash va xodimlar almashinuvi darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. 2025-yilda HR sohasida analitik yondashuvni rivojlantirish, jarayonlar shaffofligini oshirish hamda inson kapitali bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarida ma’lumotlar rolini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlash

GRI 405, 406

Ayollar va erkaklar uchun teng karyera imkoniyatlarini yaratish, mehnatni adolatli baholashni ta’minlash hamda ish haqi to‘lashda kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik Bank kadrlar siyosatining asosiy tamoyillari bo‘lib qolmoqda. Bank teng qiymatga ega mehnat uchun teng haq to‘lash tamoyiliga izchil rioya qiladi hamda xilma-xillik va inklyuzivlikni rivojlantirishni munosib mehnat sharoitlari va barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘radi.

2025-yil davomida Bank Gender tengligi siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni amalga oshirdi. Mazkur hujjat ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni mustahkamlash, inklyuziv korporativ madaniyatni rivojlantirish hamda ish joyida kamsitish, bosim va tazyiq holatlarining oldini olishga qaratilgan. Siyosatni tasdiqlash 2026-yilga rejalashtirilgan.

Siyosat loyihasi Bankning quyidagi asosiy qoidalari va majburiyatlarini o‘z ichiga oladi:

- teng sharoitlar va malaka mavjud bo‘lganda ishga qabul qilish, o‘qitish, lavozimda ko‘tarilish va ish haqini to‘lashda teng imkoniyatlar;
- jins belgisiga ko‘ra kamsitish va subyektiv yondashuvga yo‘l qo‘ymaslik;
- xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhitini shakllantirish hamda zo‘ravonlik va ta’qibga nisbatan nol tolerantlik siyosati;
- boshqaruv qarorlari va ichki hujjatlarni rejalashtirishda gender tengligi tamoyillarini hisobga olish;
- profilaktika va o‘qitish, qayta aloqa kanallari, murojaatlarni maxfiy ko‘rib chiqish tartibi hamda Siyosat ijrosini muntazam monitoring qilish.


2025-yilda Bank inklyuziv korporativ muhitni rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirdi. Xususan, mart oyida barcha bo‘linmalarda Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazilib, xodimalarga bayram sovg‘alari topshirildi. Shuningdek, sentabr oyida “Lider ayol” mavzusida tadbir tashkil etilib, ayollar yetakchiligi, teng imkoniyatlar va adolatli korporativ madaniyatni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

2025-yilda Bank Kuzatuv kengashi tarkibida ayollarning ulushi 33 foizni tashkil etdi (2024-yilda 29 foiz).

Boshqaruv organlari va xodimlar tarkibining gender kesimidagi tarkibi, nafar GRI 405-1

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	1 824	1 480	1 969	1 387	2 150	1 322	9,2	-4,7
Rahbar lavozimlar	660	81	507	65	460	33	-9,3	-49,2
Jami	**2 484**	**1 561**	**2 476**	**1 452**	**2 610**	**1 355**	**5,4**	**-6,7**

Boshqaruv organlari va xodimlar tarkibining gender kesimidagi diversifikatsiyasi, kishi



Boshqaruv organlari va xodimlar tarkibining yosh kesimidagi diversifikatsiyasi, kishi

GRI 405-1

Ko‘rsatkich	2023			2024			2025			O‘zgarish, %		
	30 yosh-gacha	30–50 yosh	50 yoshdan yuqori	30 yosh-gacha	30–50 yosh	50 yoshdan yuqori	30 yosh-gacha	30–50 yosh	50 yoshdan yuqori	30 yosh-gacha	30–50 yosh	50 yoshdan yuqori
Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	748	2 209	311	895	2 210	251	1 032	2 115	325	15,3	-4,3	29,5
Rahbar lavozimlar	60	625	61	50	480	42	42	423	28	-16	-11,9	-33,3
Jami	**808**	**2 834**	**372**	**945**	**2 691**	**293**	**1 074**	**2 538**	**353**	**13,7**	**-5,7**	**20,5**


Bank inklyuziv bandlik amaliyotlarini izchil rivojlantirmoqda. 2025-yilda Bankda sog‘lig‘ida cheklovlari bo‘lgan xodimlar: asosiy shtat lavozimlarida — 27 nafar ayol va 75 nafar erkak faoliyat yuritdi. Bu esa, alohida sog‘lig‘ida cheklovlari bo‘lgan xodimlarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlari va kasbiy rivojlanishning kengayganidan dalolat beradi.

Sog‘lig‘ida cheklovlari bo‘lgan xodimlar soni, kishi

GRI 405-1

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	2	3	21	7	75	27	-33	55
Rahbar lavozimlar	0	0	0	0	0	0	-8	-49

Sog‘lig‘ida cheklovlari bo‘lgan xodimlar soni dinamikasi, kishi



Xodimlar toifalari kesimida erkaklar va ayollar o‘rtacha ish haqi miqdori, mln so‘m

GRI 405-2

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	6,84	4,57	9,8	6,4	10,7	6,6	9,6	3,7
Rahbar lavozimlar	13,68	9,64	17,9	23,8	29,9	31,3	67	31,2
Jami	**8,7**	**4,80**	**11,3**	**6,7**	**14,2**	**7,1**	**25,2**	**5,8**

Xodimlar toifalari kesimida erkaklar va ayollar o‘rtacha mukofot puli (rag‘batlantirish to‘lovi) miqdori, mln so‘m

GRI 405-2

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	1,97	1,64	14,1	10,7	16,1	11,8	13,9	10,1
Rahbar lavozimlar	4,98	3,83	28,3	29	39,9	41,0	41,2	41,4
Jami	**6,95**	**5,47**	**16,8**	**11,1**	**20,4**	**12,4**	**21,3**	**11,8**

GRI 2-21

2025-yilda eng yuqori mukofotlangan xodimning umumiy yillik mukofot puli bilan boshqa xodimlarning median yillik mukofot puli o‘rtasidagi nisbat 10,45 ni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich Bank tomonidan mehnatga haq to‘lash tizimining adolatliligi va muvozanatliligini monitoring qilishning asosiy indikatorlaridan biri sifatida qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich darajadagi standart ish haqi (jins bo‘yicha)ning mahalliy eng kam ish haqi bilan solishtirma nisbati, so‘m

GRI 202-1

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
O‘zbekiston Respublikasida minimal ish haqi[2]	1 050 000	1 050 000	1 155 000	1 155 000	1 271 000	1 271 000
Boshlang‘ich darajadagi xodim ish haqi	4 068 960	4 068 960	4 152 000	4 152 000	4 152 000	4 152 000
Nisbat	**3,88**	**3,88**	**3,59**	**3,59**	**3,27**	**3,27**

[2] Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori.

Rivojlanish va o‘qitish

GRI 404-1, 404-2

Xodimlarning kasbiy salohiyatini ochib berish orqali ularni rivojlantirish Bankning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda hamda malakali va muvozanatli jamoani shakllantirishning muhim omili sifatida ko‘riladi. O‘qitishga kiritilayotgan investitsiyalar Bank strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, uning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish va biznes-model barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi, shuningdek xodimlarga biznes muhitidagi o‘zgarishlarga tez moslashish hamda yangi texnologiyalar va vositalarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Kasbiy va shaxsiy rivojlanish doirasida Bank o‘qitishning kompleks tizimini rivojlantirishni davom ettirmoqda. Ushbu tizim individual malaka oshirish va kasbiy sertifikatlarni olish dasturlari, korporativ kurslar, ichki va tashqi ekspertlar ishtirokidagi seminar va treninglar, shuningdek amaliy tajriba orttirish va nazariy bilimlarni real ish jarayonida qo‘llashga qaratilgan stajirovka dasturlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur o‘quv formatlari bir-birini to‘ldirib, xodimlarning karyerasining turli bosqichlarida uzluksiz kompetensiya rivojlanishini ta’minlaydi.

Bank qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari doirasida ta’lim muassasalari va hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikni davom ettirmoqda, jumladan risklarni boshqarish, komplayens nazorati, biznes tahlil va loyihalarni boshqarish kabi yo‘nalishlarda. Shuningdek, boshqaruv va yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga, shuningdek asosiy va rahbarlik lavozimlari uchun kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘qitishning umumiy soatlari, soat

GRI 404-1

Ko‘rsatkich	2023		2024		2025		O‘zgarish, %	
	Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	Rahbar lavozimlar	Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	Rahbar lavozimlar	Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	Rahbar lavozimlar	Asosiy shtat (ijrochi) lavozimlar	Rahbar lavozimlar
O‘qitishning umumiy soatlari	1 296	2 016	1 344	2 256	1 588	2 857	18,2	26,6

4 445

soat

2025-yil yakunlariga ko‘ra, Bank xodimlarini o‘qitish bo‘yicha umumiy soatlar

15 558

mln so‘m

Bankning xodimlarni o‘qitishga sarflangan xarajatlari

2025-yil yakunlariga ko‘ra, Bank xodimlarini o‘qitish bo‘yicha umumiy soatlar 4 445 soatni tashkil etdi, shundan 1 588 soat chiziqli lavozimlardagi xodimlarni o‘qitishga, 2 857 soat esa rahbar lavozimidagi xodimlarni o‘qitishga to‘g‘ri keldi. 2024-yilga nisbatan umumiy o‘qitish soatlari 16,2 foizga oshdi.

2025-yilda bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha o‘qitish vaqti 1,12 soatni tashkil etdi. Shu bilan birga, chiziqli lavozimlardagi xodimlar uchun ushbu ko‘rsatkich taxminan 3 soatni, rahbar lavozimlardagi xodimlar uchun esa taxminan 2 soatni tashkil etdi. Bu Bank tomonidan turli toifadagi xodimlarni ularning javobgarlik darajasi va funksional vazifalariga muvofiq differensial rivojlantirish yondashuvini aks ettiradi.

2025-yilda Bank bosh ofis hamda hududiy bo‘linmalar xodimlarini o‘quv dasturlari bilan qamrab olishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratdi. Bu esa turli toifadagi xodimlar uchun ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash hamda kasbiy va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, ichki o‘quv tadbirlaridan tashqari, Bank xalqaro banklar va moliyaviy institutlar ishtirokida xodimlar tajriba almashuvi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida xorijiy amaliy seminarlarni ham tashkil etdi.

O‘qitish uchta yo‘nalish (to‘rtta chiqish dasturi) bo‘yicha amalga oshirildi va umumiy qamrov 35 nafar ishtirokchini tashkil etdi:


Risklarni boshqarish — 7 nafar ishtirokchi. Seminar Turkiyada Aktif Bank va Turk Exim Bank ishtirokida o‘tkazildi.

Muammoli kreditlarni undirish — 22 nafar ishtirokchi (ikki dastur). O‘qitish Ozarbayjonda Pasha Bank hamda Qozog‘istonda Qozog‘iston Rivojlanish Banki, Bank CenterCredit va ForteBank ishtirokida amalga oshirildi.

Ichki audit — 6 nafar ishtirokchi. Dastur Germaniyada AKA Bank, ODDO BHF, KfW Ipex-Bank, Commerzbank va Helaba ishtirokida o‘tkazildi.

GRI 404-1

Xodimlarni o‘qitish bo‘yicha yillik xarajatlar, mln so‘m



Bankning xodimlarni o‘qitish bo‘yicha xarajatlari 2025-yilda 15 558 mln so‘mni tashkil etdi, bu 2024-yildagi 15 509 mln so‘m ko‘rsatkichiga nisbatan 0,3 foizga ko‘pdir. O‘qitishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning o‘sishi Bankning inson kapitalini izchil mustahkamlash hamda xodimlar kompetensiyalarini strategik vazifalar va rivojlanish ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqlashtirishga qaratilgan yondashuvini aks ettiradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri asosiy va rahbar lavozimlarda uzluksizlik va barqarorlikni ta’minlovchi kadrlar zaxirasini shakllantirish va uni qo‘llab-quvvatlash bo‘lib qolmoqda. O‘qitish, rotatsiya va mentorlik dasturlari kelajak yetakchilarini tayyorlash, xodimlarning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish hamda ularning ishbilarmonlik faolligi va jalb etilganlik darajasini oshirishning muhim vositalari sifatida qaraladi.

Xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

Bank xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni mas’uliyatli mehnat amaliyoti va barqaror rivojlanishning muhim elementi sifatida ko‘radi. SQB yondashuvi qulay mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlarni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llab-quvvatlash, korporativ madaniyatni mustahkamlash hamda xodimlar sadoqatini oshirishga asoslanadi.

Ishga qabul qilingan birinchi kundan boshlab Bank xodimlari ijtimoiy himoya bilan ta’minlanadi, jumladan ixtiyoriy tibbiy sug‘urta hamda hayot va baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash dasturlari bilan qamrab olinadi. 2025-yilda Bank ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishni davom ettirib, xodimlar va sobiq xodimlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy hamda nomoliyaviy vositalarni kengaytirdi.

3,2
mlrd so‘m
nafaqa oluvchilarga (Bankning sobiq xodimlariga) moddiy yordam

2,33
mlrd so‘m
xodimlarning ixtiyoriy tibbiy sug‘urtasi xarajatlari

814,2
mln so‘m
dafn marosimi uchun moddiy yordam

536,3
mln so‘m
sog‘liqni tiklash uchun moddiy yordam

604,7
mln so‘m
Bank xodimlariga yubiley sanalari munosabati bilan to‘lovlar

28,7
mln so‘m
xodimlar nafaqaga chiqishi munosabati bilan to‘lovlar

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimida korporativ madaniyatni rivojlantirish va jamoaviy ruhni mustahkamlash alohida o‘rin tutadi. 2025-yilda xodimlar uchun jalb etilganlik darajasini oshirish hamda ish va shaxsiy hayot muvozanatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan korporativ va ijtimoiy tadbirlar tashkil etildi. Xususan, 2025-yil 19-martda Navruz Party korporativ bayrami o‘tkazilib, jamoaviy hamkorlik va korporativ identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qildi. 2025-yil 30-mayda SQB Family Day oilaviy tadbiri tashkil etilib, xodimlar va ularning oila a’zolarini Bankning korporativ hayotiga jalb etishga qaratildi. Shuningdek, 2025-yil 21-noyabrda Book Challenge tanlovi amalga oshirilib, o‘qish madaniyati, intellektual faollik hamda Bankning ijtimoiy va korporativ tashabbuslarini kengaytirish maqsad qilingan.

Bank onalik va oilani qo‘llab-quvvatlash amaliyotlarini rivojlantirishni ham davom ettirdi. Xodimalarga qonunchilik talablaridan tashqari kengaytirilgan ijtimoiy kafolatlar, jumladan homiladorlik va bola parvarishi davrida qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etiladi. Bola parvarishi ta’tili davri xodimning mehnat stajiga kiritiladi, shuningdek kasbiy faoliyatga qaytish va keyingi karyera rivoji imkoniyatlari saqlanadi. 2025-yilda 191 nafar ayol onalik ta’tili tugagach, ishga qaytdi.

Bola parvarishi ta’tili, kishi GRI 401-3*

Категория	2023		2024		2025	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha yoki bola parvarishi ta’tiliga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq) ega bo‘lish huquqiga ega bo‘lgan xodimlar soni	2 484	1 911	2 490	1 453	2 476	1 453
Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha hamda bola parvarishi ta’tilini rasmiylashtirgan xodimlar soni	0	117	0	195	0	238
Hisobot yilida bola parvarishi ta’tilining o‘rtacha davomiyligi, kun		509		520		546

* Hisobot yilida “O‘tgan yilda onalik/otalik ta’tili tugagach ishga qaytgan va 12 oy davomida ishlashni davom ettirgan xodimlar soni” ko‘rsatkichi to‘ldirilmagan, chunki Bankda GRI 401-3 metodologiyasida nazarda tutilgan kesimda mazkur indikator bo‘yicha alohida statistik hisob yuritilmaydi.

Bola parvarishi ta’tillari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘liq qamrab olinmaganligi sababli, ishga qaytish koeffisiyenti hamda xodimlarni ushlab qolish ko‘rsatkichlarini hisoblash hozirgi bosqichda amalga oshirilmaydi. Bank kelgusi hisoboti davrlarida ushbu ko‘rsatkichlarni hisobga olish va tegishli ma’lumotlarni ochiqlash bo‘yicha zarur jarayonlarni joriy etishni rejalashtirmoqda.

GRI 2-26, GRI 2-29

Bankning ijtimoiy siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biri qayta aloqa kanallari va ichki kommunikatsiyalarni rivojlantirish bo‘lib qolmoqda. 2025-yilda xodimlar ishga oid masalalarni muhokama qilish, taklif va tashabbuslarni bildirish uchun ichki raqamli kanallar hamda HR xizmati bilan o‘zaro aloqaning turli vositalaridan foydalana oldilar. Nizoli va ziddiyatli vaziyatlarni hal etish uchun profil bo‘linmalar hamda xodimlar vakillari ishtirokida murojaatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi o‘z faoliyatini davom ettirdi.

Shu tariqa, 2025-yilda SQBning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi xodimlar farovonligini oshirish, ularning sadoqati va jalb etilganlik darajasini mustahkamlash, shuningdek Bankning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlovchi barqaror va ijtimoiy mas’ul korporativ muhitni shakllantirishga yo‘naltirildi.

Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish

2025-yil yakunlariga ko‘ra, SQBda ishlab chiqarish jarohatlari qayd etilmadi, bu esa tizimli profilaktik ishlar hamda xavfsizlik talablariga rioya etish ustidan kuchaytirilgan nazorat natijasi sifatida baholanadi.

GRI 3-3

SQB xodimlar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini ta’minlashga intiladi hamda ishlab chiqarish jarohatlari, kasbiy kasalliklar va favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlari bilan bog‘liq risklarni minimallashtirishni maqsad qiladi. SQBda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi talablari, Bankning ichki me’yoriy hujjatlari hamda risklarning oldini olish va mehnat sharoitlarini doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslanadi.

2025-yilda Bankda 2025-yil 15-yanvardagi Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan “Mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda kasbiy kasalliklar profilaktikasi” maqsadli dasturi ijrosi davom ettirildi. Tadbirlarni muvofiqlashtirish mehnat muhofazasi xizmati tomonidan, xodimlar bilan ishlash departamenti, kasaba uyushma organlari hamda tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari ishtirokida amalga oshiriladi.



Mehnat muhofazasi tizimini boshqarish va risklar profilaktikasi

Hisobot yilida Bankda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi bo‘yicha tizimli nazorat ta’minlandi. Mehnat sharoitlari holati monitoring qilindi, ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va uskunalarning jarohatlanish xavfi darajasi bo‘yicha attestatsiya natijalari tahlil qilindi, shuningdek jamoa shartnomasining hamda tarmoq kelishuvining “Mehnat muhofazasi” bo‘limi ijrosi nazorat qilindi.

Kasbiy risklarning oldini olish va mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2025-yilda quyidagi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- xodimlarni maxsus kiyim, poyabzal hamda shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash;
- ma’muriy-xo‘jalik bo‘linmalari xodimlari uchun yuk ko‘tarish moslamalari (gidravlik aravachalar) xarid qilish;
- BXO va BXM xonalarida pul mablag‘larini qayta sanash jarayonida mehnat xavfsizligini oshirish maqsadida shamollatish (ventilyatsiya) tizimlarini o‘rnatish;
- xavfsiz mehnat madaniyatini rivojlantirish va ishlab chiqarish jarohatlarini oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlari.

Xodimlarni o‘qitish va xabardorligini oshirish

2025-yilda Bank mehnat muhofazasi, sanoat va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish hamda yo‘riqnomalar tizimini rivojlantirishni davom ettirdi. Mazkur yo‘nalishda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Shuningdek, rahbarlar va mas’ul xodimlarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratildi, jumladan elektr energiyasidan oqilona foydalanish va tejamkorlik, shuningdek mehnat muhofazasi va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etish masalalari bo‘yicha treninglar tashkil etildi.

- mehnat muhofazasi masalalari bo‘yicha o‘quv seminarlar, davra suhbatlari va tushuntirish tadbirlari o‘tkazildi;
- Bank bosh ofisida mehnat muhofazasi, sanoat va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha 3 oylik o‘quv kursi joriy etildi;
- yo‘riqnomalar dasturlari (2024-yilda) yangilandi hamda kirish yo‘riqnomasi uchun qo‘shimcha taqdimot materiali ishlab chiqildi;
- 15 nafar xodim ISO 14001:2015 va ISO 45001:2018 xalqaro standartlari bo‘yicha malaka oshirdi.

Tibbiy nazorat va sug‘urta himoyasi

2025-yilda SQBda xodimlarning dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklardan o‘tishi bo‘yicha monitoring amalga oshirildi. Bank Boshqaruvining 2025-yil 4-martdagi 2189-sonli buyrug‘iga muvofiq ayrim toifadagi xodimlar tasdiqlangan ro‘yxat asosida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Ijtimoiy va sug‘urta himoyasi yo‘nalishida hisoboti yilida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash;
- rahbar xodimlar uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta;
- profilaktik tibbiy tadbirlar amaliyotini davom ettirish.

2026-yilda Bank ixtiyoriy tibbiy sug‘urta amaliyotini xodimlarning kengroq doirasiga tatbiq etishni hamda navbatdagi davriy tibbiy ko‘riklarni o‘tkazishni rejalashtirmoqda.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va xodimlarni himoya qilish

Bankda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik muhofazasi va xavfsizlik sohasidagi qonunchilik talablariga asoslangan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish rejasi amal qiladi. Ushbu reja tabiiy, texnogen va boshqa favqulodda vaziyatlar, jumladan zilzila, yong‘in, kommunal tarmoqlardagi avariyalar hamda epidemiologik vaziyat yomonlashuvi holatlarida harakat qilish tartibini belgilaydi.

Mazkur tizim doirasida:

- ish vaqti hamda ish vaqtidan tashqari davrlarda xodimlarni xabardor qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan;
- fuqarolik muhofazasi bo‘yicha obyekt tuzilmalari (qutqaruv, sanitariya, yong‘inga qarshi kurash, aloqa va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari) shakllantirilgan;
- harakatlar rejalari muntazam ravishda yangilanib boriladi hamda xodimlar va fuqarolik muhofazasi tuzilmalari a’zolari o‘qitiladi;
- xodimlarni evakuatsiya qilish hamda moddiy boyliklarni himoya qilish bo‘yicha tayyorgarlik ta’minlanadi.

Inklyuzivlik va nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun sharoitlar

SQB nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun qulay va xavfsiz muhitni yaratishga qaratilgan sharoitlarni izchil rivojlantirmoqda. 2025-yilda hamda mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash bo‘yicha rejalar doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- harakatlanish uchun qo‘shimcha panduslar o‘rnatilmoqda;
- maxsus sanitariya xonalari jihozlanmoqda;
- zarur hududlarda yoritish tizimi kuchaytirilmoqda hamda me’moriy va maishiy to‘siqlar bartaraf etilmoqda;
- nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish rejalashtirilgan.


Mehnat muhofazasi tizimini rivojlantirish rejalari

2026-yilda Bank mehnat muhofazasi tizimini yanada rivojlantirishni rejalashtirmoqda, jumladan:

- xodimlar uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta qamrovini kengaytirish;
- davriy tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish;
- rahbarlar va mas’ul xodimlarni “Mehnat muhofazasi va yong‘in xavfsizligi” hamda “Gaz xo‘jaligi” kurslari bo‘yicha o‘qitish;
- bilimlarni tekshirish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi komissiya tarkibini yangilash;
- mehnat muhofazasi bo‘yicha rejalashtirilgan bilim sinovlarini o‘tkazish;
- ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazishni, shu jumladan nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun ham davom ettirish.

Shu tariqa, mehnat muhofazasi va xodimlar salomatligi Bank tomonidan barqaror rivojlanish, korporativ mas’uliyat hamda inson kapitaliga g‘amxo‘rlikning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Bankning jamiyat oldidagi mas’uliyati



97,3%

mahalliy pudratchilardan amalga oshirilgan xaridlar ulushi

Iqtisodiy qiymat yaratish

SQB iqtisodiy qiymat yaratishni mamlakat barqaror rivojlanishiga va manfaatdor tomonlarning uzoq muddatli farovonligiga qo‘shiladigan asosiy hissa sifatida ko‘radi. Bank faoliyati faqat moliyaviy natijalarni ta’minlash bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiyotlar barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

2025-yilda Bank real sektor, kichik va o‘rta biznesni hamda ish o‘rinlari yaratilishi va aholi daromadlarining o‘sishiga xizmat qiluvchi ustuvor tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyani izchil amalga oshirishni davom ettirdi. Kreditlash, investitsiya dasturlari va hamkorlik tashabbuslari orqali SQB ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish, korxonalarni modernizatsiya qilish hamda mijozlarning biznes amaliyotiga zamonaviy moliyaviy yechimlarni joriy etishga ko‘maklashmoqda.

Iqtisodiy qiymat yaratishning muhim yo‘nalishlaridan biri xalqaro moliyalashtirishni jalb etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Bunday hamkorliklar Bankka resurs bazasini kengaytirish, mijozlarga yanada qulay va uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarni taklif etish hamda tadbirkorlik, innovatsiyalar va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Bank, shuningdek raqamli yechimlarni rivojlantirish, operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash orqali ham iqtisodiy qiymat yaratishga hissa qo‘shmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va biznes jarayonlarini optimallashtirish xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy xizmatlar mavjudligini oshirish hamda mijozlar va iqtisodiyot uchun qo‘shimcha qiymat yaratish imkonini beradi.

GRI 201-1

Yaratilgan va taqsimlangan bevosita iqtisodiy qiymat, mlrd so‘m

	2023	2024	2025
1. Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat	11 151	18 949	17 907
Daromad (tushum)	11 071,6	18 916,2	17 828,3
Moliyaviy investitsiyalardan olingan daromad	22,2	16,8	68,4
Moddiy aktivlarni sotishdan olingan daromad	57,6	16,1	9,9
2. Taqsimlangan iqtisodiy qiymat	2 826,8	3 135,8	3 576,9
Operatsion xarajatlar	1 566,5	1 741,4	2 041,4
Xodimlarga ish haqi, boshqa to‘lovlar va imtiyozlar	1 040,6	1 085	1 191,3
shu jumladan, ish haqi	1 018	1 058,6	1 159,6
shu jumladan, boshqa to‘lovlar va imtiyozlar	22,6	26,4	31,7
Kapital yetkazib beruvchilarga to‘lovlar	-	-	-
shu jumladan, to‘langan dividendlar	-	-	-
shu jumladan, moliyaviy xarajatlar	-	-	-
Boshqa xarajatlar	-	-	-
Davlatga to‘lovlar	219,76	309,41	344,2
shu jumladan, foyda solig‘i	219,76	309,41	344,2
Mahalliy jamoalarga investitsiyalar	-	-	-
3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat	8,324,56	15,813,36	14,329,74

GRI 204-1

Mahalliy pudratchilarga xarajatlar ulushi

Mahalliy pudratchilardan amalga oshirilgan xaridlar ulushi	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Jami pudratchilar soni	2 253	1 470	1 159	-21
Jami xaridlar summasi, so‘m	302 026 648 235,31	624 095 916 427,72	1 059 842 413 539,26	70
Mahalliy pudratchilar soni	2 240	1 448	1 133	-22
Mahalliy pudratchilardan xaridlar summasi, so‘m	260 295 581 267,44	440 672 198 939,72	809 375 741 531,34	84
Son bo‘yicha ulushi, %	99,4	98,5	97,8	-1 p.p.
Summa bo‘yicha ulushi, %	86,2	70,6	76,4	+6 p.p.

Mahalliy pudratchilarga yo‘naltirilgan xarajatlar ulushi ko‘rsatkichi Xaridlarni tashkil etish xizmati mas’uliyat doirasiga kiradi. Mazkur bo‘linma Bankning ichki reglamentlariga muvofiq xarid jarayonlarini amalga oshirilishini ta’minlaydi, yetkazib beruvchilar tarkibini hududiy kesimda tahlil qiladi hamda mahalliy kontragentlardan amalga oshiriladigan xaridlar ulushini monitoring qilib boradi.

2025-yil natijalari

Hisobot davrida Xaridlarni tashkil etish xizmati shartnomaviy bazani yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdi: avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha to‘lov shartlari va tartibi qayta ko‘rib chiqildi, amaldagi qonunchilikka mos kelmaydigan yoki dolzarbligini yo‘qotgan shartnomalarga o‘zgartirishlar kiritildi. Aloqa, internet va VPN xizmatlari sohasidagi shartnomalar inventarizatsiyasi natijasida 158 ta amaldagi shartnoma mavjudligi aniqlandi; markazlashtirish natijasida ularning soni 85 tagacha qisqartirilishi rejalashtirilgan. Inkassatsiya xizmatlari bo‘yicha 73 ta shartnomani birlashtirish va ularning sonini 25 tagacha kamaytirish rejalashtirilmoqda, bu esa ma’muriy yuklamani sezilarli darajada kamaytiradi hamda shartnomaviy portfel boshqaruvini yanada samarali qiladi.

2026-yil uchun rejalar

Xizmat faoliyati 2026-yilda uchta asosiy yo‘nalishga qaratiladi.

Sun’iy intellektni xarid jarayonlariga joriy etish.

Xaridlarning boshlang‘ich qiymatini aniqlashni avtomatlashtirish, xarid hujjatlarida raqobatga zid mezonlarni aniqlash, texnik topshiriqlarni dastlabki baholash, shuningdek xodimlar va yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi affillanganlik hamda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash rejalashtirilmoqda.

“Xaridlar” platformasini rivojlantirish.

Avtomatlashtirilgan platforma kengaytiriladi: barcha turdagi elektron hisobotlarni shakllantirish va real vaqt rejimida ma’lumotlarni monitoring qilish tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

Xarid jarayonlarini standartlashtirish va soddalashtirish.

Barcha xarid hujjatlari yagona standartlar va shakllarga keltiriladi; e’lonlar, texnik topshiriqlar, xarid hujjatlari hamda tegishli departamentlarning xulosalari uchun namunaviy shablonlar ishlab chiqiladi.

Respublika hududlarida biznes rivojiga ko‘maklashish

GRI 203-1, 203-2

SQB hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishni o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy missiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘radi. 2025-yilda Bank tadbirkorlar uchun moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, bandlikni qo‘llab-quvvatlash hamda joylarda, shu jumladan olis va ijtimoiy jihatdan zaif hududlarda ishbilarmonlik faolligini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni izchil amalga oshirdi.



Hududlarda tadbirkorlik va bandlikni qo‘llab-quvvatlash

2025-yilda Bank aholi bandligini oshirish va daromadlarni ko‘paytirishga qaratilgan tashabbuslarni, jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham faol qo‘llab-quvvatladi. Tegishli dasturlar doirasida joylarda tadbirkorlik faolligini rivojlantirish, kichik biznes loyihalarini hamkorlikda kuzatib borish hamda hudud aholisi uchun bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yangi ish o‘rinlari yaratadigan va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan tashabbuslarga alohida e’tibor qaratildi.



Mahallalar bilan ishlash va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish

SQB hududiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri “mahalla bankirlari” instituti orqali ish olib borish bo‘ldi. 2025-yilda SQB mahalla bankirlari joylarda tizimli faoliyatni yo‘lga qo‘ydi, bu esa bank xizmatlarini aholiga va tadbirkorlarga yaqinlashtirish, kichik biznes ehtiyojlarini tezkor aniqlash hamda loyihalarni maslahat bosqichidan moliyalashtirishgacha bo‘lgan jarayonlarda kuzatib borish imkonini berdi. Bundan tashqari, Bank Qoraqalpog‘istonda mahalla bankirlari va ularning agentlari uchun maxsus team-building tadbirini tashkil etib, ularning samaradorligini oshirish hamda jamoaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.



Tadbirkorlar va biznes hamjamiyati bilan muloqot

Yil davomida Bank mamlakatning turli hududlarida, jumladan Sirdaryo viloyatida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar va ochiq muloqotlar o‘tkazdi. Ushbu tadbirlar biznesning dolzarb muammolarini muhokama qilish, amaliy yechimlar topish hamda Bank tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini tushuntirishga qaratildi. Ochiq muloqot formati biznes hamjamiyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta aloqa o‘rnatish va bank mahsulotlarini hududiy ehtiyojlarga moslashtirish imkonini berdi.



Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari

2025-yilda Bank kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish hamda biznes loyihalarni ishga tushirish va kengaytirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan dasturlarni davom ettirdi. Ushbu dasturlar moliyaviy instrumentlar, maslahat xizmatlari hamda tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida hamrohlikni o‘z ichiga oldi.



Tadbirkorlikni o‘qitish va maslahat ko‘magi

SQB Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) bilan hamkorlikda tadbirkorlar uchun biznesni rivojlantirish va kompaniyalar barqarorligini oshirishga bag‘ishlangan maxsus seminar o‘tkazdi. Shuningdek, hududlarda mahallalarda moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari hamda aholiga va boshlang‘ich tadbirkorlarga moliyaviy rejalashtirish, investitsiyalar va biznes boshqaruvi bo‘yicha asosiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan loyihalar davom ettirildi.

Alohida ravishda “Mahallada moliyaviy maktab” loyihasiga e’tibor qaratilib, Bank joylarda moliyaviy ta’limning yangi shakllarini joriy etishni qo‘llab-quvvatladi hamda keng aholiga amaliy bilimlardan foydalanish imkoniyatini ta’minladi.



Xalqaro hamkorlik va hududlarni rivojlantirish uchun resurslarni jalb etish

Tadbirkorlikni, jumladan hududlarda ham rivojlantirishga muhim hissa sifatida SQB tomonidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan yoshlar biznesini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 25 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ jalb qilindi. Ushbu mablag‘lar yosh tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yirik shaharlardan tashqaridagi tashabbuslarni ham qamrab oladi. Bu esa barqaror hududiy biznesning yangi to‘lqinini shakllantirish va ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2025-yilda Bank “Sibos” forumida 150 mln AQSh dollari miqdorida kelishuvlar imzoladi. Ushbu kelishuvlar mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, istiqbolda hududiy loyihalar va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun resurs bazasini yanada mustahkamlaydi.

Qurilish materiallari departamenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi PQ-6244-son qaroriga muvofiq, Bank zimmasiga qurilish materiallari tarmog‘ini rivojlantirishni muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan. Bank tarkibida ixtisoslashgan Qurilish materiallari departamenti faoliyat yuritib, ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish, investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda sohada eksport-import operatsiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Departament 160 dan ortiq turdagi qurilish materiallari rivojlanishini muvofiqlashtiradi, tarmoq ko‘rsatkichlarini doimiy monitoring qiladi hamda bozor ehtiyojlarini tahliliy baholashni amalga oshiradi. Faoliyat “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi va tegishli davlat organlari bilan yaqin hamkorlikda olib boriladi.

2025-yil natijalari

2025-yil yakunlariga ko‘ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 62,6 trln so‘mni tashkil etdi. Eksport hajmi 1,2 mlrd AQSh dollariga yetdi, import esa 500 mln AQSh dollaridan oshdi, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan pastroqdir. Yil davomida umumiy qiymati 2,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etuvchi 280 ta investitsiya loyihasi ishga tushirildi.

Yuqori eksport ko‘rsatkichlari xalqaro faollik bilan birga kechdi: 2025-yilda soha vakillari 15 dan ortiq xalqaro ko‘rgazmalarda, jumladan Afg‘oniston, Rossiya, Qozog‘iston va AQShda o‘tkazilgan tadbirlarda ishtirok etdilar. Departament ishlab chiqaruvchilarga standartlashtirish, sertifikatlash, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish (jumladan 1C tizimlarini joriy etish) bo‘yicha maslahat ko‘magi ko‘rsatadi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda Yevropa va AQSh bozorlariga chiqish talablari bo‘yicha maslahat beradi.

Barqaror rivojlanish va energiya samaradorligini oshirish doirasida 2025-yilda 34 ta yirik ishlab chiqaruvchi korxonada energiya auditi o‘tkazildi. To‘rtta korxonada WHR (issiqlik energiyasini utilizatsiya qilish va elektr energiyasi ishlab chiqarish) uskunalari joriy etildi, bu esa mahsulot tannarxini kamaytirishga xizmat qildi.

Qo‘shimcha ravishda Angren IES kullarini qayta ishlash orqali qurilish materiallariga aylantirish loyihasi Xitoy hamkorlari bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Yevropa ilg‘or tajribalarini joriy etish maqsadida Bank Raisi huzuridagi qurilish materiallari bo‘yicha Germaniyadan maslahatchi jalb etilgan.

Ichki bozor tahlili natijalariga ko‘ra, yetarli ishlab chiqarish salohiyati shakllangan va talab yetishmovchiligi kuzatilmaydigan yo‘nalishlarda, jumladan mineral paxta, beton bloklar va sement sohalarida investitsiyalarni davom ettirmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

53
trln so‘m
2025-yilda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi

2026-yil rejalari

2026-yildan boshlab ichki bozorda yetarli quvvatlar shakllanganligi sababli keramika plitka ishlab chiqarishiga investitsiyalarni to‘xtatish ham rejalashtirilmoqda.

2026-yilning ustuvor yo‘nalishi sifatida alyuminiy, metall va plastmassa konstruktiv yechimlardan bazalt materiallariga — profillar, armatura, to‘rlar va tolali mahsulotlarga bosqichma-bosqich o‘tish belgilangan. Xususan, alyuminiy kompozit panellarga muqobil sifatida bazalt tolali materiallar asosida fibrosement fasad panellarini ishlab chiqarishni rivojlantirish rejalashtirilmoqda.

2026-yilda qurilish materiallarini xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlash hamda sertifikatlar berish maqsadida laboratoriya sinovlari bo‘yicha “SQB Testing” loyihasini ishga tushirish ko‘zda tutilgan (keramika plitka, shisha va boshqa mahsulotlar).

Departament faoliyati xalqaro standartlarga javob beradigan, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan va ekologik barqaror qurilish materiallari tarmog‘ini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, global bozor talablariga moslashuvchan rivojlanishni ta’minlashni maqsad qiladi.

Bankning ijtimoiy tashabbuslari

2025-yilda SQB moliyaviy savodxonlikni oshirish, yoshlarni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, korporativ madaniyatni mustahkamlash, sog‘liqni saqlash va sport tashabbuslarini rivojlantirish hamda hududlarda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni tizimli ravishda davom ettirdi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish va ta’lim loyihalari

“Moliyaviy savodli mahalla” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan hamkorlikda “Global Money Week” doirasida amalga oshirildi. SQB ko‘magida tashkil etilgan 15 ta zamonaviy mahalla kutubxonalarida bolalar va yoshlar uchun moliyaviy savodxonlik bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazilib, ular byudjet yuritish, jamg‘arma shakllantirish va investitsiya asoslari bo‘yicha amaliy bilimlarni egallashdi. Bu aholida barqaror moliyaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mahalla kutubxonalari loyihasiga qo‘shimcha ravishda Bank “Mahallada moliyaviy maktab” tashabbusini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu loyiha doirasida o‘smirlar va yoshlar uchun har oy o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar shaxsiy moliyani boshqarish va byudjet rejalashtirish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga qaratilgan.



Sport, sog‘liq va faol hayot tarzi

Bank xodimlar va jamoatchilik uchun sport tashabbuslarini qo‘llab-quvvatladi: SQB Futsal vs FC Sipar o‘rtoqlik uchrashuvi, futbol musobaqalarida korporativ ishtirok hamda SQB Runners loyihasi doirasida marafon va yugurish musobaqalarida xodimlar ishtiroki tashkil etildi. Ushbu tadbirlar sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish, jamoaviy ruhni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, SQB xayriya sport tadbirlari, jumladan Winter Run loyihasining tashkilotchisi yoki hamkori sifatida ishtirok etib, keng jamoatchilikni sog‘lom hayot tarziga jalb qilish va Bank hamda jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga hissa qo‘shdi.



Yoshlar tashabbuslari va kasbiy muloqot

Bank yoshlarni bank sohasi jarayonlariga jalb etish maqsadida Karyera kunlari va ish o‘rinlari yarmarkalarida faol ishtirok etdi. Ushbu tadbirlarda talabalar o‘z ko‘nikmalarini namoyish etish va bank sohasidagi karyera imkoniyatlari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldilar.

Shuningdek, yosh xodimlar va rahbariyat o‘rtasida uchrashuvlar tashkil etilib, fikr almashish, tashabbuslarni muhokama qilish hamda yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratildi.



Madaniy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash

20-oktyabr kuni SQB “Davlat tili kuni”ga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazdi. Tadbir doirasida shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, ijodiy chiqishlar hamda davlat tilining ahamiyati, madaniy meros va milliy o‘zlikni saqlash masalalariga bag‘ishlangan muhokamalar tashkil etildi. Ushbu tashabbus korporativ madaniyatni mustahkamlash, til va madaniy xilma-xillikka hurmatni oshirish hamda xodimlar va ijodkorlar o‘rtasidagi muloqotni kengaytirishga xizmat qildi.



Ekologik barqarorlik

1 862

MVt·soat

2025-yil yakunlariga ko‘ra, Bank tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya hajmi

Chiqindilar (emissiyalar)

GRI 305-1, 305-2, 305-3, 305-4, 305-5, 305-7

SQB iqlim o‘zgarishi masalalarining ahamiyatini anglaydi hamda operatsion faoliyat natijasida yuzaga keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini baholash, monitoring qilish va kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Iqlimni boshqarish tizimini rivojlantirish doirasida SQB xalqaro GHG Protocol standartiga muvofiq Scope 1, Scope 2 va Scope 3 bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita emissiyalarni inventarizatsiya qiladi. Bu taqqoslanadigan ma’lumotlarni shakllantirish hamda uglerod izini boshqarish uchun zarur asosni yaratadi.

2024-yilda Bank tomonidan Scope 1, Scope 2 va Scope 3 kesimida issiqxona gazlari emissiyalarini qamrab olgan inventarizatsiya va hisob-kitob jarayoni boshlangan bo‘lib, bu iqlim ko‘rsatkichlarini boshqarish tizimini shakllantirishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Emissiyalarni boshqarish bo‘yicha mas’uliyat Sustainable Finance departamenti hamda operatsion bo‘linmalar zimmasiga yuklatilgan. Hisobga olish, ichki nazorat, monitoring va maqsadlarni belgilash bo‘yicha standartlashtirilgan tartiblar joriy etilgan. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi emissiyalarni qisqartirish ko‘rsatkichlari hamda ichki audit natijalari asosida muntazam baholab boriladi.

Tashkiliy chegaralar

Bank tashkiliy chegaralarni aniqlashda nazoratga asoslangan yondashuvni qo‘llaydi:

Scope 1 va Scope 2 doirasida Bankning bevosita operatsion nazorati ostidagi barcha obyektlar hisobga olinadi;

Scope 3 esa Bankning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazoratidan tashqarida yuzaga keladigan, biroq uning faoliyati bilan bog‘liq bilvosita emissiyalarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, Scope 3 tarkibiga SQB aktivlari va jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan emissiya toifalari, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, kiritiladi.

Operatsion chegaralar

Bank chiqindilarni tashish hamda xomashyo/logistika jarayonlari ustidan operatsion nazoratga ega emas, jumladan pudratchi tashkilotlar faoliyati doirasida ham.

Scope 1

bevosita emissiyalar

Bank nazorati ostidagi va uning faoliyati bilan bevosita bog‘liq manbalar hisobga olinadi, jumladan:

- o‘ziga tegishli yoki nazorat qilinadigan qozonlar, pechlar va dizel generatorlarida yoqilg‘ining statsionar yoqilishi;
- Bank transport vositalarida yoqilg‘ining mobil yoqilishi;
- konditsioner va sovutish tizimlari hamda yoqilg‘i saqlash idishlaridan chiqadigan fugitiv emissiyalar.

Scope 2

iste’mol qilinadigan energiyadan bilvosita emissiyalar

Quyidagi tashqi manbalardan olinadigan energiya iste’moli bilan bog‘liq emissiyalar hisobga olinadi:

- elektr energiyasi;
- issiqlik energiyasi (bug‘, issiq suv).

Scope 3

boshqa bilvosita emissiyalar

- **1-toifa:** xarid qilingan tovarlar va xizmatlar;
- **2-toifa:** ishlab chiqarish vositalari;
- **3-toifa:** energiya iste’molidan kelib chiqadigan boshqa bilvosita emissiyalar;
- **5-toifa:** hosil bo‘ladigan chiqindilar;
- **6-toifa:** xizmat safarlari va komandirovkalar;
- **7-toifa:** xodimlarning ishga qatnovi;
- **8-toifa:** ijara;
- **13-toifa:** ijaraga berilgan aktivlar;
- **14-toifa:** franchayzing faoliyati;
- **15-toifa:** investitsiyalar.

Emissiyalarni inventarizatsiya qilish, hisoblash va hisoboti tayyorlashda GHG Protocol standarti (GHG Standart) asosiy metodologik hujjat sifatida qo‘llaniladi. Inventarizatsiya bazaviy yilni belgilash orqali amalga oshirilib, emissiyalarni qisqartirish bo‘yicha tashabbuslar samaradorligi dinamik ravishda baholanadi.

Hisob-kitoblarda quyidagilar qo‘llaniladi:

- GHG Protocol va IPCC tomonidan tavsiya etilgan emissiya omillari;
- yoqilg‘i va energiya iste’moli bo‘yicha ichki buxgalteriya va texnik ma’lumotlar;
- Scope 3 bo‘yicha — soha koeffisiyentlari asoslangan baholash modellari.

Scope 1, 2 va 3 bo‘yicha issiqxona gazlari emissiyalari, ming t CO_2-ekv

GRI 305-1, 305-2, 305-3, IFRS S2-29(a)

Ko‘rsatkichlar	2024	2025	O‘zgarish,%
Scope 1	1,982	1,900	-4,14
Karbon dioksid (CO_2)	0,948	1,815	91,56
Metan (CH_4)	0,003	0.006092	103,07
Azot suboksidi (N_2O)	0,001	0.002925	192,50
Scope 2	4,655	4,812	3,37
Scope 3	1 471 639	3 556 059	141,65

* 2024-yilda hisob-kitoblar dastlabki taxminiy (preliminary assumptions) ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, 2025-yilda esa aniqlashtirilgan haqiqiy (faktik) ma’lumotlar qo‘llanildi.

Scope 1 bo‘yicha kamayish statsionar manbalarda yoqilg‘i sarfining qisqarishi hamda transport vositalari parkini optimallashtirish natijasida mobil yoqilg‘i iste’molining kamayishi bilan bog‘liq. Bu chora-tadbirlar bevosita issiqxona gazlari emissiyalarining pasayishiga olib keldi.

Scope 2 bo‘yicha o‘sish elektr energiyasi iste’moli bo‘yicha ma’lumotlarning aniqlashtirilishi va hisobga olish qamrovining kengayishi bilan izohlanadi. Ilgari to‘liq bo‘lmagan energiya iste’moli ma’lumotlari tuzatildi hamda ilgari hisobga olinmagan o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ofislari qo‘shildi, natijada umumiy iste’mol va emissiyalar oshdi.

Scope 3 bo‘yicha o‘sish ma’lumotlar qamrovining kengayishi va aniqlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, jumladan kredit portfelining qisman emas, balki to‘liq hisobga olinishi, ilgari hisobga olinmagan obyektlarning kiritilishi, xaridlar hajmining oshishi hamda xodimlar soni ortishi natijasida ishga qatnov emissiyalarining ko‘payishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim toifalarda ijaraga olingan ofislar sonining qisqarishi, aviaqatnovlarning kamayishi, resurslardan foydalanish optimallashtirilishi hamda chiqindi va oqova suvlar hajmining kamayishi hisobiga emissiyalar pasaygan.

GRI 305-4

2025-yilda emissiya intensivligini hisoblash uchun xodimlarning umumiy soni bo‘yicha normalizatsiya qo‘llanildi.

Bir xodimga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasi intensivligining dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2024	2025	O‘zgarish,%
Umumiy IG emissiyasi (1 va 2-ko‘lam), ming tonna CO_2-ekv	6,636	6,712	1
Issiqxona gazlari o‘ziga xos emissiyasi (1 va 2 doirasi), har bir xodimga, ming tonna CO_2-ekv.	0,00169	0,00169	0

3 556 059

ming t CO_2-ekv

2025-yilda Scope 3 emissiyalar hajmi


1,69

tonna CO_2-ekv / xodim

issiqxona gazlarining solishtirma emissiyalari (Scope 1 va 2)

2024-yil uchun nisbiy ko‘rsatkichni hisoblash imkoni mavjud emas, chunki Scope 3 (15-toifa) bo‘yicha ma’lumotlar to‘liq hisobga olinmagan bo‘lib, bunda faqat hisoboti davrida rasmiylashtirilgan shartnomalar hajmi aks ettirilgan. Joriy hisobot davrida metodologiya qayta ko‘rib chiqildi va ko‘rsatkich to‘liq kredit portfeli hisobga olingan holda qayta hisoblandi, bu esa ma’lumotlarning yanada to‘liq va aniq aks ettirilishini ta’minlaydi.

2023–2025 yillarda issiqxona gazlarining nisbiy emissiyalari dinamikasi (Scope 1 va Scope 2), ming t CO_2-ekv / mln so‘m



Issiqxona gazlari emissiyalarining dinamikasi (Scope 1 va Scope 2), t CO_2e

GRI 305-4

Ko‘rsatkichlar	2024	2025	O‘zgarish,%
Scope 1 (bevosita emissiyalar)	1 982	1 900	-4,14
Scope 2 (bilvosita energiya emissiyalari)	4 655	4 812	3,37
Issiqxona gazlarining umumiy emissiyasi (Scope 1 va Scope 2)	6 636	6 712	1,15

Atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha baholash hisob-kitob usullariga asoslangan bo‘lib, IPCC hamda milliy me’yoriy hujjatlar tomonidan tavsiya etilgan emissiya koeffisiyentlari qo‘llanilgan. Bevosita o‘lchovlar amalga oshirilmagan. Baholashlar ichki hisobga olish ma’lumotlari asosida iste’mol qilingan yoqilg‘i hajmiga tayangan holda bajarilgan.

Azot oksidlari (NOx), oltingugurt dioksidi (SOx) va boshqa muhim atmosfera chiqindilari, t

GRI 305-7

Ko‘rsatkichlar	2024	2025	O‘zgarish,%
Azot oksidlari (NOx)	8,8	7,9	100
Oltingugurt dioksidi (SOx)	3	3	0
Uglerod oksidi (CO)	38	37	2,63
Qattiq zarrachalar (PM)	1	1	0
Boshqa moddalar (formaldegid va uglevodorodlar)	14	13	-7,14
Jami	**56**	**55**	**-1,79**

Moliyalangan emissiyalar, ming t CO_2-ekv / yil

FN-CB-410b.4

Sektor	2024	2025
Sanoat	936,84	1 821,27
Qishloq xo‘jaligi	272,96	284,86
Boshqa	252,51	761,96
Jami	**1 462,31**	**2 868,09**

“Scope 1 & Scope 2 GHG Inventory Guidance” va “A Corporate Accounting and Reporting Standard ” tavsiyalari 1 va 2-ko‘lamlar uchun issiqxona gazlari emissiyasini hisoblashning uslubiy asosi sifatida foydalaniladi.

Iqlim o‘zgarishi

IFRS S2-6(a), IFRS S2-6(b)

2025-yil dekabr oyida SQB tomonidan Iqlim siyosati tasdiqlandi. Mazkur siyosat iqlimiy risklar va imkoniyatlar bo‘yicha boshqaruv organlari hamda tegishli profil bo‘linmalarining rollari va mas’uliyatini aniq belgilab beradi. Kuzatuv kengashi siyosatni tasdiqlaydi hamda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli iqlimiy risklar va imkoniyatlar ustidan strategik nazoratni amalga oshiradi. Boshqaruv (Board) esa ushbu risklarni operatsion darajada boshqaradi, ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi, vazifalarni tegishli bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlaydi hamda zarur resurslar bilan ta’minlaydi. Sustainable Finance departamenti iqlimiy risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishga mas’ul bo‘lib, ichki normativ hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, tegishli bo‘linmalarni metodologik va axborot jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi hamda iqlimiy risklarning kredit portfeliga ta’sirini baholash metodikasini ishlab chiqadi.

Siyosatga muvofiq, Boshqaruv tarkibiga ekologik risklarni boshqarish bo‘yicha tegishli tajribaga ega iqlimiy risklar uchun mas’ul a’zo tayinlanadi. Shuningdek, Kuzatuv kengashi a’zolari, Boshqaruv a’zolari hamda tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining KPI ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich ravishda Bankning strategik iqlim maqsadlari bilan integratsiya qilinadi. Funksiyalar va mas’uliyatlar Iqlim siyosati hamda tegishli xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarida mustahkamlangan.
Iqlimiy risklar va imkoniyatlar bo‘yicha rahbariyatni muntazam xabardor qilish Sustainable Finance departamenti tomonidan tayyorlanadigan ichki hisobotilar orqali amalga oshiriladi.



IFRS S2-14(a), IFRS S2-14(b), IFRS S2-14(c)

SQB Iqlim siyosati milliy qonunchilik, Prezident va Hukumat qarorlari hamda xalqaro moliya institutlari (XMI) tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu hujjat iqlim o‘zgarishlariga javob berish tamoyillarini hamda Bankning iqlimiy risklarni boshqarishdagi asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydi.

2026-yilda Bankda iqlimiy risklarni asosiy biznes jarayonlariga amaliy integratsiya qilishga qaratilgan quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

- kredit portfeli bo‘yicha iqlimiy stress-test o‘tkazish (fizik va tranzitsion risklar bo‘yicha ssenariyli baholash);
- XMI taksonomiyalari hamda milliy “yashil” taksonomiya talablarini inobatga olgan holda barqaror moliyalashtirish mezonlarini qayta ko‘rib chiqish va rasmiylashtirish;
- kredit va investitsiya qarorlariga iqlim omillarini integratsiya qilish (mahsulotlarni SDG bo‘yicha tasniflash, portfelni SDG asosida baholash);
- Scope 1–3 bo‘yicha emissiyalarni hisoblash hamda uglerod izini kamaytirish rejasini ishga tushirish;
- yuqori uglerodli segmentlardagi konsentratsiyani kamaytirgan holda “yashil” kredit portfelini rivojlantirish.

Mazkur tadbirlar rejasini muvofiqlashtirish Sustainable Finance departamenti zimmasiga yuklatilgan.

SQB iqlimiy risklar va imkoniyatlarni boshqarish bo‘yicha tegishli jarayonlar ishlab chiqilishi bilan biznes-rejalarni moslashtirib boradi hamda yuridik shaxslar loyihalarini baholash tizimini kuchaytiradi. Bunda amaldagi E&S risklarini qamrab olishdan 2026-yilda iqlimiy risklarni to‘liq integratsiya qilish bosqichiga o‘tiladi.

Bank iqlimiy risklarni hisobga olgan holda moliyaviy modellarni ham moslashtirishni rejalashtirmoqda, jumladan:

- pul oqimlari prognozlarini tuzatish (dastlabki baholashga ko‘ra, ta’sir taxminan 0,1 foiz punkt darajasida);
- pul oqimlarining barqarorligini baholash uchun ssenariy tahlilidan foydalanish.

Iqlim tashabbuslari bilan bog‘liq xarajatlarni rejalashtirish Bank byudjeti shakllantirilishining dastlabki bosqichidayoq inobatga olinadi.

Iqlimiy risklar va imkoniyatlarni identifikatsiya qilish, baholash va integratsiya qilish

Bank iqlimiy risklarni aniqlashni o‘quv va metodik tayyorgarlik asosida amalga oshiradi. 2025-yilda Sustainable Finance departamenti xodimlari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) hamda Markaziy bank ko‘magida tashkil etilgan besh moduldan iborat o‘quv dasturida ishtirok etib, iqlimiy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirdilar.

Iqlimiy risklarni baholash doirasida Bank ikki bosqichli modelni qo‘llaydi, jumladan:

1. iqlimiy ssenariylarni modellashtirish asosida asosiy iqlimiy risklarni aniqlash;
2. iqtisodiyot tarmoqlarining (Bank mijozlari) fizik va tranzitsion risklarga qisqa, o‘rta va uzoq muddatli davrda sezgirligini o‘rganish.

Bank Fransiya Taraqqiyot Agentligi (AFD) bilan hamkorlikda kredit portfeli bo‘yicha iqlimiy stress-test metodologiyasini ishlab chiqmoqda. Stress-testni o‘tkazish 2026-yilga rejalashtirilgan.

Bank kredit qarorlarini qabul qilish jarayonida iqlimiy omillarni hisobga oladi hamda tegishli protseduralar yakunlangach, iqlimiy risklarni risklar reyestri va umumiy risklarni boshqarish tizimiga integratsiya qilishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, Bank bir xil risk darajasi sharoitida iqlimiy va ijtimoiy ijobiy ta’sirga ega loyihalar foydasiga kapitalni qayta taqsimlaydi hamda “yashil” va ESG yo‘naltirilgan mahsulotlar liniyasini kengaytiradi.

Energiya resurslariga mas’uliyatli yondashish

GRI 302-1, 302-3, 302-4

SQB o‘z faoliyati natijasida atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish uchun mas’uliyatni tan oladi. Tashkilotning atrof-muhitga bevosita sezilarli ta’siri cheklangan bo‘lishiga qaramay, Bank energiya resurslaridan oqilona foydalanish tamoyillarini qo‘llaydi, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etadi hamda issiqxona gazlari emissiyalarini qisqartiradi, shu orqali xodimlar o‘rtasida energiya tejash madaniyatini shakllantiradi.

Bankning energiya resurslaridan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha yondashuvi Energiya siyosati bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjat Bankning energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi rasmiy pozitsiyasini belgilaydi. Siyosat yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish maqsad va tamoyillarini, energiya menejment tizimini rivojlantirishni, energiya iste’molini doimiy monitoring qilishni hamda operatsion faoliyat va ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishda energiya samarador texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, binolar ekspluatatsiyasi samaradorligini oshirish, energiya iste’moli rejimlarini optimallashtirish, energiya tejovchi uskunalardan foydalanish hamda xodimlar orasida energiya tejash madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Energiya iste’molini boshqarishdagi navbatdagi muhim instrument sifatida Uglerod neytralligiga erishish to‘g‘risidagi Nizom xizmat qiladi. Ushbu hujjat Bankning uglerod izini kamaytirish va issiqxona gazlari emissiyalarini minimallashtirishga qaratilgan. U infratuzilmaning energiya samaradorligini oshirish, binolarni modernizatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish hamda ESG tamoyillarini bank biznes jarayonlariga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv doirasida Bank emissiyalarni miqdoriy baholash, ularni qisqartirish va kompensatsiya qilishni amalga oshiradi hamda past uglerodli rivojlanish modeliga o‘tishni qo‘llab-quvvatlovchi yechimlarni izchil joriy etadi.

2025-yilda amalga oshirilgan asosiy tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga:

- energiya tejamkor uskunalar va samarali yoritish tizimlarini o‘rnatish;
- infraqizil harakat sensorlarini joriy etish;
- konditsioner va split-tizimlarda harorat rejimlarini cheklash;
- ekologik toza energiya ishlab chiqarish maqsadida quyosh panellarini o‘rnatish;
- avtoparkni bosqichma-bosqich asosan elektromobillarga o‘tkazish kabi tadbirlarni oldi.

2025-yilda energiya tejash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida elektr energiyasi iste’moli 14 foizga kamaydi, issiqlik energiyasi iste’moli esa isitish ehtiyojlarining kengayishi hisobiga 55 foizga kamaydi.




GRI 302-1

Tashkilot ichida energiya iste’moli, GJ

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Qayta tiklanmaydigan manbalardan yoqilg‘i iste’moli (xarid)				
Benzin	3 660,8	4 535,5	9 522,0	110
Gaz (metan, propan)	6 070,7	7 676,7	5 069,3	-34
Tabiiy gaz	14 162,9	16 278,3	12 783,7	-21,5
Dizel yoqilg‘isi	1 564,9	210,4	1 100,0	423,8
Qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish (turlari bo‘yicha)				
Qayta tiklanuvchi energiya iste’moli	4 792,9	5 786,4	6 705,2	16
Iste’mol uchun xarid qilingan energiya (turlari bo‘yicha)				
Elektr energiyasi	27 650,2	26 053,2	22 326,1	-14
Issiqlik energiyasi (isitish)	22 759,4	4 726,9	2 114,3	-55

Tashkilot ichida energiya iste'moli, GJ




GRI 302-3

Energiya sig'imi, GJ

Ko'rsatkichlar	2024	2025	O'zgarish,%
Umumiy energiya iste'moli	55 761,9	63 551,7	14
Nisbiy energiya iste'moli	0,0029	0,0036	24
Tushum, mlrd so'm	18 916,2	17 828,3	-6

2025-yilda avtopark yangilanishi hisobiga benzin iste'moli oshganiga qaramay, Bank dizel yoqilg'isi sarfini sezilarli darajada kamaytirishga hamda gaz dvigatelli avtomobillar sonini qisqartirishga erishdi. Qozonxonalarda gaz sarfining kamayishi binolar tom qismini issiqlik izolyatsiyasi bilan mustahkamlash hisobiga ta'minlandi. Elektr energiyasi iste'moli esa energiya tejamkor uskunalar va yoritish tizimlarini o'rnatish, infraqizil harakat sensorlarini joriy etish, konditsioner tizimlarida harorat rejimlarini cheklash hamda quyosh panellaridan foydalanish natijasida qisqartirildi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish izchil davom ettirildi, natijada quyosh energiyasi ishlab chiqarish hajmi 16 foizga oshib, 6 705,2 GJga yetdi.



6 705,2
GJ
Quyosh energiyasini ishlab chiqarish

+16%
Quyosh energiyasini ishlab chiqarishning o'sishi

GRI 302-1

Bank energiya iste'molini kamaytirish va uglerod izini minimallashtirish maqsadida kompleks chora-tadbirlarni izchil amalga oshirib kelmoqda. To'g'ridan-to'g'ri emissiyalar (1-qamrov) bo'yicha qozonxona uskunalari va konditsioner tizimlariga muntazam texnik xizmat ko'rsatildi, GPS monitoringi yordamida xizmat transporti yo'nalishlari optimallashtirildi hamda modernizatsiya jarayonida sovutgich moddalari ekologik jihatdan xavfsiz muqobillarga almashtirildi. Elektr energiyasi iste'moli bilan bog'liq bilvosita emissiyalar (2-qamrov) bo'yicha energiya tejamkor uskunalar muntazam xarid qilindi va binolarning muhandislik tizimlari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi. 3-qamrov doirasida Bank elektron hujjat aylanishini rivojlantirdi, chiqindilarni alohida yig'ishni yo'lga qo'ydi, xizmat safarlari o'rniga onlayn uchrashuvlarga ustuvorlik berdi hamda kreditlash jarayoniga ESG omillarini integratsiya qildi.

2025-yil uchun elektr energiyasi iste'molining prognoz hajmi taxminan 8 564 ming kVt·soatni tashkil etgan bo'lsa, amaldagi iste'mol 6 202 ming kVt·soatni tashkil etdi. Shunday qilib, amaldagi iste'mol prognoz ko'rsatkichidan past bo'lib, bu amalga oshirilgan energiya tejash chora-tadbirlari hamda infratuzilma yuklamasini optimallashtirishning samaradorligini tasdiqlaydi.

6 202
ming kVt·soat
2025-yilda elektr energiyasi iste'moli

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish

Bank qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni uglerod izini kamaytirish va operatsion faoliyatning energiya samaradorligini oshirishning muhim instrumentlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi.

Hisobot davrida asosiy yo'nalish Bank obyektlarida quyosh panellarini joriy etish bo'ldi. Ushbu yechim ekologik toza energiya ishlab chiqarishni ta'minlab, an'anaviy energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojni qisqartirishga xizmat qiladi. 2025-yilda quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi, 2026-yil rejalarida esa ushbu yo'nalishni kengaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Quyosh energiyasidan foydalanish energiya tejash va binolardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni to'ldiradi.

Shu bilan birga, Bank ko'chmas mulk obyektlaridan barqaror foydalanish amaliyotini ham rivojlantirmoqda. Bosh ofis xalqaro BREEAM standarti bo'yicha sertifikatlangan, Bankning barcha 39 ta filiali esa energiya samarador muhandislik yechimlari joriy etilganini hamda barqaror qurilish tamoyillariga muvofiqligini tasdiqlovchi EDGE ekologik sertifikatiga ega.

Chiqindilarga nisbatan oqilona yo’l tutish

GRI 306-1, 306-2

SQB chiqindilar bilan oqilona muomala qilish bo‘yicha kompleks yondashuvni amalga oshiradi, bunda bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va ofis jarayonlarining ustunligi inobatga olinadi. Hosil bo‘ladigan chiqindilarning asosiy qismi xodimlarning kundalik faoliyati hamda operatsion jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, qog‘oz hujjatlardan foydalanish va ofis infratuzilmasini yangilashni o‘z ichiga oladi.

Bankda hujjatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, qog‘oz aylanmasini qisqartirish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan elektron hujjat aylanish tizimi joriy etilgan. Ichki jarayonlarni raqamlashtirish chiqindilar hosil bo‘lishining oldini olishning asosiy instrumentlaridan biri sifatida qaraladi.

Chiqindilar hosil bo‘lishi va ularni utilizatsiya qilish boshqaruvi ekologik jihatdan xavfsiz muomala tartibini belgilovchi tasdiqlangan ichki nizom asosida amalga oshiriladi. Bank chiqindilarni ruxsatsiz joylashtirishning oldini olish choralarini ko‘radi, ularni alohida yig‘ish tizimini joriy etadi hamda chiqindilarni qayta ishlash uchun ixtisoslashgan tashkilotlarga shartnoma asosida topshiradi.

Chiqindilar tarkibining asosiy qismini xavfli bo‘lmagan qattiq maishiy chiqindilar, makulatura, metall chiqindilar, shuningdek, hisobdan chiqarilgan orgtexnika va mebellar tashkil etadi. Bankda chiqindilarni alohida yig‘ish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, maxsus konteynerlar o‘rnatilgan, qayta ishlashga yaroqli chiqindilar esa ikkilamchi qayta ishlashga yo‘naltiriladi.

Bank yondashuvi resurslardan samarali foydalanish, alohida yig‘ish infratuzilmasini rivojlantirish va xodimlarning ekologik madaniyatini oshirish orqali chiqindilar hosil bo‘lishini minimallashtirishga qaratilgan. Chiqindilar bilan ishlash jarayonlari ustidan nazorat ularni ixtisoslashgan tashkilotlarga shartnoma asosida topshirish hamda qayta ishlashga topshirilgan hajmlarni qabul-topshirish dalolatnomalarida qayd etish orqali ta’minlanadi.

2025-yilda xavfli bo‘lmagan chiqindilar hajmi 79,44 foizga kamaydi, bu chiqindilar hosil bo‘lish hajmining qisqarganini hamda mavjud amaliyotlar samaradorligining oshganini ko‘rsatadi.

O‘rta muddatli istiqbolda chiqindilarni alohida yig‘ish tizimini yanada rivojlantirish, qayta ishlovchi tashkilotlar bilan shartnomaviy bazani kengaytirish hamda qog‘oz aylanmasini qisqartirish maqsadida raqamlashtirish tashabbuslarini davom ettirish rejalashtirilgan. Bank barqaror rivojlanish tamoyillari va korporativ ekologik siyosatga muvofiq chiqindilarni boshqarishning barqaror va mas’uliyatli tizimini ta’minlashga qaratilgan amaliyotlarni izchil davom ettiradi.

79,44%

2025-yilda xavfli bo‘lmagan chiqindilar hajmining qisqarishi

2025-yilda amalga oshirilgan asosiy tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- barcha ofis va ma’muriy binolarda chiqindilarni alohida yig‘ish tizimini joriy etish;
- makulatura, metall chiqindilar, orgtexnika va mebellarni qayta ishlash bo‘yicha ixtisoslashgan tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
- chiqindilarni olib chiqish va utilizatsiya qilish bo‘yicha amaldagi shartnomalar mavjudligini nazorat qilish;
- chiqindilar hosil bo‘lishi hamda ularni tashqi tashkilotlarga topshirish hajmlarini monitoring qilish;
- ichki jarayonlarni raqamlashtirish hisobiga qog‘oz iste’molini qisqartirish.


GRI 306-1

Hosil bo‘ladigan chiqindilar turlari bo‘yicha, tonna

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Saralanmagan qattiq chiqindilar	5 438,0	3 612,8	607,2	-83,2
Makulatura	79	67,3	62,3	-7,4
Rangli metall chiqindilar	-	0,01	1,2	11 900
Qora metall chiqindilar	-	0,1	73,0	72 900
Orgtexnika	-	31,1	7,9	-74,6
Mebel	-	38	19	-50
Jami xavfli bo‘lmagan chiqindilar	5 517,0	3 748,3	770,6	-79,4

Hisobot davrida chiqindilar hosil bo‘lishining kamayishi bank faoliyati davomida mebel va jihozlarning qisman almashtirilishi, shuningdek, o‘tgan yili filial binolari bo‘yicha amalga oshirilgan buzish ishlarining yakunlanishi bilan izohlanadi. Avval qayd etilgan yuqori ko‘rsatkichlar asosan metall konstruksiyalar, armatura, quvurlar va kabellarning katta miqdorda bir martalik hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat Kompaniyaning doimiy faoliyati natijasi hisoblanmaydi. Hisobot davrida bunday yirik ishlar amalga oshirilmagani sababli, chiqindilar hosil bo‘lish hajmi rejalashtirilgan darajaga qaytdi.

Hosil bo‘ladigan chiqindilar turlari bo‘yicha, tonna



Zararsizlantirish va ko‘mish (poligonga yuborish) uchun yo‘naltirilgan chiqindilar hajmi — 2024-yildagi 3 748,3 tonnadan 2025-yilda 770,6 tonnagacha kamaydi.

GRI 306-4

Qayta ishlangan (utilizatsiya qilingan) chiqindilarning umumiy hajmi, tonna

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Qayta foydalanishga tayyorlash	79	136,5	163,3	19,6
Boshqa utilizatsiya operatsiyalari	5 438	3 611,8	607,2	-83,2
Jami xavfli bo‘lmagan chiqindilar	5 517	3 748,3	770,6	-79,4

Suv iste’moli

GRI 303-3, 303-4, 303-5

Suv resurslaridan oqilona foydalanish Bankning ekologik menejment tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. SQBning suv iste’molini boshqarish bo‘yicha yondashuvi ichki “Suvni tejash tartibi” bilan belgilanadi va Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari hamda sho‘ba tashkilotlarida suv resurslaridan ehtiyotkorlik va oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Mazkur tartib O‘zbekiston Respublikasining tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchiligi, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha milliy strategik hujjatlar hamda risklarni boshqarish tamoyillariga asoslanadi.

Siyosatni amalga oshirish bo‘yicha mas’uliyat boshqaruv organlari va tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlangan. Bank rahbariyati ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi hamda tartib ijrosini nazorat qiladi. Tadbirlarni muvofiqlashtirish Sustainable Finance departamenti hamda suv tejovchi yechimlarni joriy etish va suv iste’molini kamaytirish uchun mas’ul bo‘lgan ma’muriy-xo‘jalik bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

SQB suv iste’moli bo‘yicha ko‘rsatkichlarni muntazam monitoring qilish hamda har yili suvni tejash sohasidagi nodavlat (nofinans) hisobotini tayyorlash orqali faoliyat shaffofligini ta’minlaydi.

Bank suv resurslaridan samarali foydalanishni BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasidagi 6-maqsad — “Toza suv va sanitariya”ga qo‘shiladigan hissa sifatida ko‘radi hamda ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni o‘zining barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida amalga oshiradi.

Suv iste’molini boshqarish doimiy tahlil va optimallashtirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, suv tejamkorlik tamoyillarini biznes jarayonlariga integratsiya qilish, ekologik loyihalarni moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish hamda xodimlar va manfaatdor tomonlarning xabardorligini oshirishni o‘z ichiga oladi.


Mas’uliyatli suv iste’molini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ofislar va filiallarda suv iste’molini doimiy tahlil qilish hamda optimallashtirish;
- suvdan samarali foydalanish va uning sarfini nazorat qilish bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali Bankning raqobatbardoshligini oshirish;
- Bankning suvni tejash tizimi faoliyati to‘g‘risida shaffof axborot taqdim etish;
- suv ekotizimlarining holatiga e’tiborni kuchaytirish;
- suvni tejash natijalarini baholash va nazorat qilish bo‘yicha ishonchli operatsion tartib-taomillarni ishlab chiqish;
- mijozlar faoliyatiga maslahat va tavsiyalar orqali suvdan oqilona foydalanish tamoyillarini joriy etish;
- Bankning ichki va tashqi siyosatining suv resurslariga salbiy ta’sirini minimallashtirish;
- suvdan samarali foydalanish va ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan “yashil” loyihalarni moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish;
- suvni tejash va undan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- ichki me’yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda suv iste’molini boshqarish tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash va uni Bank biznes jarayonlariga integratsiya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-343 (2023-yil) qarorida belgilangan suv ta’minoti va oqova suvlarni tozalash tizimlarini takomillashtirish talablariga rioya etish;
- suv iste’molini muntazam rejalashtirish va monitoring qilish orqali tizimni uzluksiz takomillashtirish;
- suv resurslari bilan bog‘liq risklarni baholash va ularning oldini olish choralarini ko‘rish;
- xodimlar, mijozlar va pudratchilarni suvni tejash tizimi faoliyati to‘g‘risida xabardor qilish;
- barcha darajadagi xodimlar o‘rtasida suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha xabardorlikni oshirish va suv tejashga qiziqishni rag‘batlantirish;
- siyosatni samarali amalga oshirish uchun axborot-resurs ta’minotini kuchaytirish.

Bank ofislarida suv iste’molini kamaytirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar joriy etilmoqda, jumladan:

- suv tejovchi uskunalarni o‘rnatish;
- katta hajmdagi suv talab qilmaydigan o‘simliklardan foydalangan holda ko‘kalamzorlashtirishni tashkil etish;
- amalga oshirilgan choralar samaradorligini baholash maqsadida suv iste’moli dinamikasini monitoring qilish.

Olingan suvning umumiy hajmi dinamikasi, ming m³



Suv resurslarini saqlashga qo‘shimcha hissa “yashil” portfel doirasida moliyalashtiriladigan loyihalar orqali ham ta’minlanmoqda. Shunday qilib, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, amalga oshirilgan tashabbuslar natijasida suv tejalishi 17 783 m³ni tashkil etdi.

2024–2025 yillar davomida suvni oqizish (suv tashlamalari) umumiy hajmida kamayish kuzatildi. Shu bilan birga, barcha oqizilayotgan suvlar chuchuk suv hisoblanadi, biroq sifat toifasiga ko‘ra ifloslangan suvlar sirasiga kiradi va markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimlariga chiqariladi.

GRI 303-4

Oqiziladigan suvlarning umumiy hajmi, ming m³

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Oqiziladigan suvlarning umumiy hajmi	106,279	74,725	67,197	-10,07
Tashqi tashkilotlar (shahar va boshqa suv ta’minoti tizimlari) orqali oqiziladigan suvlarning umumiy hajmi	-	74,725	67,197	-10,07

GRI 303-5

Qayta tiklanmaydigan (yo‘qotiladigan) suv iste’moli, ming m³

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Umumiy suv iste’moli	106,279	74,725	67,197	-10,07
Suv tanqis hududlarda suv iste’moli	-	19,2	16,5	-14,07

Kredit portfeliga nisbatan suv iste’moli jadalligi

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	O‘zgarish, %
Nisbiy suv iste’moli, m³/milliard so‘m	1000	1,14	1,03	-10
Kredit portfeli, milliard so‘m	106	65 369	64 960	-1

Bioxilma-xillik

GRI 304-2, 304-3

SQB biologik xilma-xillikni saqlashni barqaror rivojlanish va ekologik javobgarlikning muhim elementi sifatida tan oladi. Faoliyatning tabiatini hisobga olgan holda, biologik xilma-xillikka asosiy ta’sirlar asosan bilvosita va operatsiyalar, ta’minot zanjiri va moliyalashtirilgan loyihalar bilan bog‘liq.

SQB barqaror rivojlanish va ekologik mas’uliyatning muhim elementi sifatida bioxilma-xillikni saqlashni e’tirof etadi. Bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bioxilma-xillikka ta’sir asosan bilvosita xarakterga ega bo‘lib, operatsion faoliyat, ta’minot zanjiri hamda moliyalashtiriladigan loyihalar bilan bog‘liqdir.

Sustainable Finance departamenti atrof-muhit holati bo‘yicha ma’lumotlarni ochiqlash, jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik va bioxilma-xillik masalalari bo‘yicha muntazam hisobotlarni tayyorlashni amalga oshiradi.

Bankning asosiy maqsadi, o‘z faoliyatining salbiy ta’sirini minimallashtirish va barqaror ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali biologik xilma-xillikni saqlash va tiklashga ko‘maklashishdir.

Mazkur Nizomni amalga oshirish doirasida SQB quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilagan:

- bioxilma-xillikni samarali saqlash bo‘yicha maqsad va vazifalarning bajarilishini doimiy tahlil qilish va baholash;
- o‘z tarkibiy bo‘linmalarida faoliyatni nazorat qilish, ekotizimlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan risklarning oldini olish;
- bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha natijalarni muntazam monitoring qilish va chora-tadbirlar rejasining bajarilishini baholash, jumladan ekologik risklarni qayta ko‘rib chiqish;
- bioxilma-xillikni saqlashning innovatsion texnologiyalari va samarali usullarini joriy etish;
- xodimlar va manfaatdor tomonlar o‘rtasida bioxilma-xillik muammolariga e’tiborni oshirish;
- natijaga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvni ishlab chiqish va joriy etish;
- mijozlarga bioxilma-xillikni saqlash tamoyillarini tatbiq etish va bu yo‘nalishda maslahat xizmatlarini ko‘rsatish;
- Bankning ichki va tashqi faoliyatining tabiatga salbiy ta’sirini minimallashtirish;
- ekologik investitsiyalar va tabiiy muhitni saqlashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish;
- bioxilma-xillikni samarali saqlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- ekotizimlarni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, jumladan suv obyektlarini biologik tozalash va yashil hududlarni kengaytirish;
- Bank faoliyat yuritayotgan hududlarda bioxilma-xillikka ta’sirning oldini olish;
- rejalashtirish va tahlil asosida bioxilma-xillikni boshqarish tizimini doimiy takomillashtirish;
- moliyalashtirilgan obyektlar, atrof-muhit omillari va salbiy oqibatlarning oldini olish bo‘yicha muntazam monitoring olib borish;
- xodimlar va manfaatdor tomonlarni tadbirlar hamda o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish;
- Nizom vazifalarini amalga oshirish uchun axborot va resurs ta’minotini ta’minlash;
- xodimlarning bioresurslardan oqilona foydalanish va bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha bilim va xabardorligini oshirish.

“Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida SQB Prezident tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan umumxalq ekologik loyiha — “Yashil makon”da ishtirok etadi. Mazkur loyiha ekologik holatni tizimli yaxshilash va atrof-muhit sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, yiliga kamida 200 million daraxt ekish hamda shahar va tuman hududlarini keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirishni nazarda tutadi.

GRI 304-2, 304-3

2025-yilda Bank tomonidan 59 211 ta daraxt va buta ko‘chatlari ekildi. Ushbu jarayonda qurg‘oqchilikka chidamli turlar va tomchilatib sug‘orish texnologiyalari qo‘llanildi. Mazkur ma’lumotlar yashilmakon.eco platformasida tasdiqlangan. Shu bilan birga, respublika miqyosida tegishli tadbirlar doirasida 212 ming dona daraxt ko‘chatlari ekildi.

Bankning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari ekish uchun yer maydonlarini tayyorlash, jumladan hududlarni ajratish va tayyorlash jarayonlarida ishtirok etdi. Barcha ko‘kalamzorlashtirish ishlari Bank obyektlariga biriktirilgan, yildan-yilga barqaror saqlanib kelayotgan poliz (yashil) hududlarda amalga oshirildi va ushbu hududlarda ishlar izchil davom ettirilmoqda. Mazkur tashabbuslar Bankning ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z obyektlari hududlarini obodonlashtirish strategiyasi doirasida amalga oshiriladi.

SQB atrof-muhit va ekotizimlarga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishda cheklovlar va istisnolarni qo‘llaydi. Har bir ariza ekologik, ijtimoiy va boshqaruv risklarini boshqarish tizimi (ESRM) doirasida tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Moliyalashtirish ajratilgandan so‘ng ham mijozlarning ekologik risklari va majburiyatlari muntazam monitoring qilinadi. Har yili Bank xodimlari A va B+ toifasidagi korxonalarga chiqib, ekologik talablar bajarilishini tekshiradi. Tekshiruv yakunida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar bilan dalolatnomalar rasmiylashtiriladi.



59 211

ta daraxt va butalar

qurg‘oqchilikka chidamli turlar hamda tomchilatib sug‘orish texnologiyalari qo‘llangan holda 2025-yilda ekilgan

Biznesni etik yuritish



3 090

nafar xodim

Bankning korrupsiyaga qarshi menejment tizimi talablariga o‘qitildi

Korporativ etika

FN-CB-510a.2

SQBda korporativ etika sohasidagi faoliyat Bankning Etika kodeksi bilan tartibga solinadi. Mazkur hujjat Bank Kuzatuv kengashi a’zolari, mansabdor shaxslar va xodimlar xulq-atvorining normativ va tashkiliy asosini belgilaydi.

Kodeksning maqsadi huquqiy va reputatsion risklarning oldini olish, aksiyadorlar, mijozlar va xodimlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek Bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarida halollik, shaffoflik va mas’uliyat tamoyillariga rioya etilishini ta’minlashdan iborat.

Kodeksga muvofiq, xodimlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar, jumladan korrupsion xatti-harakatlar haqida mavjud aloqa kanallari orqali yoki bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘linmaga xabar berishlari shart.

Bankda samarali komplayens nazorat tizimini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ichki hujjatlar joriy etilgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- korrupsiya huquqbuzarliklari haqida xabar bergan yoki ularni aniqlashga ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi;
- korrupsiya bo‘yicha xabar yuboruvchi xodimlar va fuqarolarni himoya qilish kafolatlari;
- Bank aloqa kanallari orqali kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Ushbu nizom va siyosatlar Bankning oliy mas’ul organi bo‘lgan Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan.

Xodimlar, mijozlar yoki boshqa manfaatdor shaxslar korrupsiya, noetik xulq-atvor yoki qonunbuzarlik holatlari yuzasidan quyidagi ochiq kanallar orqali xabar berishlari mumkin:

Onlayn platformalar:

- Bankning rasmiy veb-sayti: https://sqb.uz/uz/anticorruption/
- Telegram-bot: @sqbantikor_bot
- Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi sahifa

Telefon va yozma murojaatlar:

- Bank ishonch telefoni: 0-800-120-88-88
- call-markaz, elektron pochta
- shaxsiy yoki yozma murojaat (shu jumladan anonim murojaatlar)
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali

Ichki kanallar (xodimlar uchun):

- Intranet tizimi
- Bank filiallarida joylashtirilgan axborot materiallari (Pauchok, Teybl-tent, Posterlar)

Murojaatlarni komplayens nazorat departamentiga yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus bo‘linmaga o‘z vaqtida yetkazish uchun javobgarlik tegishli tarkibiy bo‘linma rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Bank xabar beruvchilarning ma’lumotlari qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno, qat’iy maxfiyligini ta’minlaydi hamda ularga nisbatan har qanday salbiy choralar ko‘rilishini, jumladan ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, diskriminatsiya yoki bosim o‘tkazishni qat’iyan taqiqlaydi.

Bank xodimlarni mavjud aloqa kanallari haqida muntazam ravishda rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar va ichki resurslar orqali xabardor qilib boradi.

Barcha murojaatlar ichki reglamentlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tezkor va xolis ko‘rib chiqiladi. Asossiz ayblovlar siyosat buzilishi sifatida baholanadi va intizomiy javobgarlik choralariga olib keladi.

SQB shaffof, ko‘p kanalli tizimni shakllantirgan bo‘lib, u raqamli, telefon va oflayn aloqa kanallarini qamrab oladi. Ushbu yondashuv korporativ etikaning mustahkamlanishiga hamda barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish orqali korrupsiya risklarini minimal-lashtirishga xizmat qiladi.

FN-CB-510a.1

2025-yilda sud jarayonlari natijasida Bankning pul mablag‘lari yo‘qotishlari summasi

Ko‘rsatkich	Moliyaviy yo‘qotishlar	
	Hodisalar soni	Summasi, so‘m
Firibgarlik, insider savdo, antimonopol qonunchilik buzilishi, bozorni manipulyatsiya qilish, suiiste’mollik yoki boshqa moliyaviy qonunchilik buzilishlari bilan bog‘liq sud jarayonlari natijasida yuzaga kelgan pul yo‘qotishlarining umumiy summasi	0	0



Korrupsiyaga qarshi kurashish

GRI 2-23, 3-3, 205-1, 205-2, 205-3

2025-yil boshida SQBda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son “Davlat organlari va tashkilotlarida ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmalari faoliyatining mustaqilligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil etildi. Bank mamlakatdagi kam sonli kredit tashkilotlaridan biri bo‘lib, unda Kuzatuv kengashiga hisobdor alohida antikorrupsiya tuzilmasi faoliyat yuritadi.

Hisobot davri yakuniga ko‘ra, Xizmatning shtat soni 28 ta birlikni tashkil etdi (markaziy apparatda 14 nafar xodim va hududiy bo‘linmalarda 14 nafar xodim). Xizmat faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan nazorat qilinadi, operatsion faoliyat esa Bank Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi. Har yili Bank vakolatli davlat organlariga hisoboti taqdim etadi.

Korrupsiyaga qarshi faoliyat 20 dan ortiq ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi, jumladan:

- Korrupsiyaga qarshi siyosat;
- Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati;
- Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi;
- Nomzodlarni tanlash va tekshirish tartib-qoidalari;
- Xodimlarni korrupsiyaga qarshi o‘qitish reglamenti;
- Korrupsiyaga qarshi jarayonlar samaradorligini monitoring qilish metodikasi;
- Sovg‘alarning ruxsat etilgan qiymati va ularni hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

> Barcha filiallarda rahbariyat a’zolari va xodimlar korrupsiyaga qarshi siyosat hamda uning tartib-tamoyillari bilan to’liq tanishtirildi.

2025-yilda Korrupsiyaga qarshi siyosatni yangilash jarayoni boshlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatining mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida tashkil etilishi munosabati bilan Siyosatda uning vakolatlari va javobgarligi aniq belgilab qo‘yildi (oldingi tahrirda ushbu funksiyalar Komplayens nazorati departamentiga yuklatilgan edi).

Hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik boshlanishidan oldin ular korrupsiya risklari bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkaziladi. Nazorat davlat xaridlari, kontragentlar va biznes hamkorlarda manfaatlar to‘qnashuvi, affillanganlik, soliq qarzdorligi va boshqa mezonlarni qamrab oladi. Barcha ehtimoliy buzilishlar shartnoma tuzilishidan oldin aniqlanadi; manfaatlar to‘qnashuvi aniqlansa, ishtirokchi xarid jarayonidan chiqariladi.

SQBning barcha filiallarida mijozlarga xizmat ko‘rsatish standartlariga rioya etilishi va tanlab xizmat ko‘rsatish holatlarining oldini olish maqsadida video kuzatuv tizimi joriy etilgan. 2025-yilda asossiz imtiyozlar berish holatlari qayd etilmagan.

2025-yilda Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan 55 ta tarkibiy bo‘linmada (TSBU/TSBO) monitoring tadbirlari o‘tkazildi. Monitoring antikorrupsiya siyosati talablariga rioya etilishi va joriy etilgan nazorat mexanizmlarining samaradorligini baholashga qaratildi. Antikorrupsiya tizimining monitoringi va auditi xalqaro standartlar, jumladan ISO 37001:2016 talablari inobatga olingan holda amalga oshiriladi. 2025-yilda korrupsiyaga oid qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi yo‘nalishda xodimlarni o‘qitish

GRI 205-2

2025-yil 26-dekabr holatiga ko‘ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan Bankning korrupsiyaga qarshi menejment tizimi talablari bo‘yicha 3 090 nafar xodim o‘qitildi. O‘qitish maxsus onlayn platforma orqali amalga oshirilib, yakunda test sinovlari o‘tkazildi hamda natijalar avvalgi davr ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi.

Xodimlarning bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida 323 nafar xodim bilan suhbatlar o‘tkazildi, 2 214 nafar xodim esa test sinovlarida ishtirok etdi. Qo‘shimcha ravishda, tegishli tarkibiy bo‘linmalarning 37 nafar xodimi CERT ACADEMY GROUP tomonidan tashkil etilgan “ISO 37001:2025 — Korrupsiyaga qarshi menejment tizimi xalqaro standarti (ichki auditor/menedjer)” ixtisoslashtirilgan kursini tamomladi.

100 nafar rahbar xodim “Korrupsiya risklarini bartaraf etish” mavzusidagi 24 soatlik dastur bo‘yicha malakasini oshirdi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tarkibidagi 28 nafar xodim O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida “Korrupsiyaga qarshi menejment tizimining samarali faoliyatini ta’minlash” mavzusidagi 36 soatlik masofaviy chuqurlashtirilgan kursni tamomladi.

Bundan tashqari, xodimlar xalqaro komplayens dasturlari doirasida, jumladan London va Chexiya Respublikasidagi o‘quv dasturlarida ham ishtirok etishdi.

3 090
nafar xodim

Bankning korrupsiyaga qarshi menejment tizimi talablariga o‘qitildi

100
nafar rahbar xodim

“Korrupsion risklarni bartaraf etish” 24 soatlik dasturi bo‘yicha malaka oshirdi

Tizimni avtomatlashtirish va rivojlantirish

2025-yilda SQB davlat ulushiga ega tijorat banklarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqdi. Mazkur hujjat amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar, ularning bajarilish muddatlari hamda mas’ul ijrochilarni belgilaydi.

Asosiy yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ichki korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- korrupsiya holatlarini aniqlash va hujjatlashtirish, so‘ngra zarur choralarni ko‘rish, jumladan sud jarayonlarini amalga oshirish;
- korrupsiya risklarini baholash va boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish;
- kadrlar siyosati va xodimlarni o‘qitish tizimini rivojlantirish;
- faoliyat shaffofligini oshirish hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni kengaytirish.

2025-yilda avtomatlashtirish bo‘yicha ikkita asosiy tashabbus amalga oshirildi:

- manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni taqdim etish jarayonini raqamlashtirish;
- xizmat tekshiruvlari va aniqlangan buzilishlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini yaratish.

Ushbu yechimlar shaffoflikni oshirish, ma’lumotlarni yig‘ish jarayonini tezlashtirish hamda hisobotlarni tayyorlash sifatini yaxshilash imkonini berdi.

2026-yilda korrupsiyaga qarshi jarayonlarni yanada avtomatlashtirish, jumladan sun’iy intellekt vositalarini joriy etish rejalashtirilgan. Shuningdek, tizimni ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqaro maslahatchilarni jalb etish ham ko‘zda tutilgan.

Tasdiqlangan korrupsiya holatlari, dona GRI 205-3

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Korrupsiya xatti-harakatlari uchun xodimlarni ishdan bo‘shatish yoki intizomiy jazoga tortish holatlari soni	0	0	0
Korrupsiya bilan bog‘liq buzilishlar sababli biznes hamkorlar bilan shartnomalarni uzaytirmaslik yoki bekor qilishning tasdiqlangan holatlari soni	0	0	0
Hisobot davrida tashkilot yoki uning xodimlariga nisbatan qo‘zg‘atilgan korrupsiyaga oid ommaviy sud ishlarining soni	0	0	0

Komplayens-nazorat

GRI 2-27, 3-3, 205-1, 205-2

Bankda Komplayens nazorati departamenti amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy funksiyani amalga oshiradi. Ushbu yo‘nalishda, xususan, jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash (AML), sanksiya qonunchiligiga rioya etish hamda regulyator komplayensi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, regulyator so‘rovlariga asosan maxsus tekshiruvlarni o‘tkazish departament vakolatiga kiradi.

Hisobot davrida komplayens funksiyasining tashkiliy transformatsiyasi amalga oshirildi. Optimallashtirishdan oldin bo‘linma tarkibi 140 nafardan ortiq xodimdan iborat bo‘lgan. Funksiyalar markazlashtirilishi va qayta taqsimlanishi natijasida 2025-yil yakuniga kelib Komplayens nazorati departamenti tarkibida Komplayens direktori bilan birga 23 nafar xodimdan iborat ixcham jamoa shakllantirildi.

Tashkiliy tuzilmani isloh qilish doirasida:

- korrupsiyaga qarshi nazorat funksiyasi alohida xizmat sifatida ajratildi;
- antifrod funksiyalari Axborot xavfsizligi markaziga o‘tkazildi.

Optimallashtirishdan so‘ng Komplayens nazorati departamenti tarkibida bosh ofisda joylashgan markazlashgan jamoa saqlanib qoldi. Ushbu jamoa pul mablag‘larini legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash (AML), sanksiya komplayensi hamda regulyator talablari doirasidagi masalalar, shu jumladan regulyator so‘rovlariga muvofiq maxsus tekshiruvlarni o‘tkazish uchun javobgardir.

To‘liq hisobotlilik va mustaqil nazorat, jumladan lavozimga tayinlash, bonuslarni tasdiqlash hamda departament faoliyati samaradorligini baholash Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

AML (pul mablag‘larini legallashtirishga qarshi kurash)

Departament pul mablag‘larini legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish risklarini muntazam baholaydi. Baholash jarayonida mijozlar xususiyatlari, mahsulotlar va xizmatlar geografiyasi, xizmat ko‘rsatish kanallari hamda Bank operatsiyalarining boshqa jihatlari hisobga olinadi. Shu bilan birga, Milliy risklarni baholash natijalari, bank sektori bo‘yicha sektoral risk baholash, ichki va tashqi audit xulosalari ham inobatga olinadi.

AML/CTF bo‘yicha ichki siyosatlar va protseduralar doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanadi hamda zaruratga ko‘ra yangilanadi. Ushbu hujjatlar xalqaro standartlar va milliy tartibga solish talablariga to‘liq mos holda ishlab chiqilgan.

Bank shubhali operatsiyalarni aniqlash va vakolatli organlarga o‘z vaqtida xabar berish maqsadida operatsiyalar ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Shu bilan birga, departament mijozlarni tekshirish jarayonlari (CDD/EDD) ustidan nazoratni ta’minlaydi va yuqori risk toifasiga kiritilgan mijozlarga alohida e’tibor qaratadi.

Tizimda mijozlarni doimiy (ongoing) skrining qilish funksiyasi joriy etilgan. Mijozlar bazasi har kuni yangilangan ro‘yxatlar bilan solishtiriladi, shanba kunlari esa to‘liq reskrining amalga oshirilib, butun baza dolzarb ro‘yxatlar asosida qayta tekshiriladi. Bundan tashqari, yuridik yoki jismoniy shaxs mijozlar ma’lumotlaridagi har qanday o‘zgarish (jumladan, ta’sischilar yoki benefitsiarlar almashinuvi) holatlarida qayta tekshiruv jarayoni avtomatik ravishda ishga tushiriladi.

Ma’lumotlar tahlili asosida hisobotlar shakllantiriladi, jumladan Bank darajasida risklarni baholash (Enterprise Wide Risk Assessment, EWRA).

2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-sonli “2022–2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Bank tomonidan kompleks AML yechimini joriy etish tashabbusi amalga oshirildi. 2024-yil mart oyida tender natijalariga ko‘ra, Confero Technologies (Latviya) kompaniyasi tanlab olindi.

Dasturiy ta’minot Shveytsariyaning IMTF kompaniyasiga tegishli uchta asosiy moduldan iborat:

Siron KYC — mijozlarni onbording jarayonini avtomatlashtirish

Siron Embargo — amaldagi mijozlar monitoringi

Siron AML — tranzaksiyalarni oqim rejimida tahlil qilish va shubhali operatsiyalarni ssenariy asosida aniqlash, jumladan “minus bir” operatsiyalarini tahlil qilish

Tizim real vaqt rejimida terrorizm yoki sanksiya risklari bilan bog‘liq mijozlarni onbording qilishni oldini olish hamda operatsiyalarni oqim asosida monitoring qilish imkonini beradi. Hozirda dasturiy kompleks joriy etilgan va mijoz moduli sinov bosqichida.

Qo‘shimcha ravishda Bank hamkor to‘lov tizimlari bilan integratsiyani kengaytirish maqsadida texnik topshiriqlar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu avtomatlashtirilgan nazoratni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sanksion skrining

SQBda xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya etish bo‘yicha ichki siyosat amal qiladi. Mazkur hujjat sanksiya rejimlarini bajarishning asosiy maqsadlari, bazaviy tamoyillari va majburiy talablarini belgilaydi. U sanksion risklarni boshqarish vazifalari, ularni aniqlash, baholash va minimallashtirish mexanizmlari, Bankning barcha darajalarida jarayonlarning tartibga solinishi hamda xodimlar o‘rtasida javobgarlik taqsimotini qamrab oladi.

Sanksion nazorat bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari har chorakda Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etiladi, bu esa korporativ boshqaruv darajasida shaffoflik va nazoratni ta’minlaydi.

Bank mijozlar va kontragentlarni har kuni sanktsion skriningdan o‘tkazadi. Bu jarayonda Refinitiv (World-Check) xalqaro ma’lumotlar bazasidan foydalaniladi. Sanksiya ro‘yxatlari real vaqt rejimida yangilanadi, jumladan iABS tizimi ma’lumotlari va Bankning xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya etish siyosatiga muvofiq xalqaro sanksiya ro‘yxatlari integratsiya qilingan. Bank O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan hamkorlikda tranzaksiyalar monitoringi bo‘yicha belgilangan tartibda axborot taqdim etadi.

Sanksion nazorat jarayonlari doirasida Bank mijozlar, kontragentlar va operatsiyalarni asosiy identifikatsiya parametrlariga ko‘ra tekshiradi:

- Jismoniy shaxslar bo‘yicha: mijoz va uning vakillari (mavjud bo‘lsa) familiyasi, ismi va otasining ismi, fuqaroligi, tug‘ilgan mamlakati va doimiy yashash joyi, tug‘ilgan sana va joyi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari hamda ism yozilishining muqobil variantlari tekshiriladi.
- Yuridik shaxslar bo‘yicha: rasmiy nomi va muqobil nomlari, vakillar ma’lumotlari, benefitsiar egalar, ta’sischilar va rahbariyat to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ro‘yxatdan o‘tgan yurisdiksiya va amaldagi joylashuv, shuningdek ro‘yxatga olish va soliq identifikatsiya ma’lumotlari (mavjud bo‘lsa) tahlil qilinadi.
- Operatsiyalarni amalga oshirishda: mijoz va kontragent rekvizitlari, to‘lov maqsadi, bitim ishtirokchilarining ro‘yxatdan o‘tgan mamlakatlari, hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi vositachi va korrespondent banklar tekshiriladi.
- Valyuta operatsiyalarida qo‘shimcha ravishda: bitim ishtirokchilari, tomonlarning ro‘yxatdan o‘tgan mamlakatlari, tovarning kelib chiqish va yetkazib berish mamlakati, jo‘natilgan mamlakat hamda yakuniy qabul qiluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (mavjud bo‘lsa) tahlil qilinadi.

Ushbu jarayonlar Bankka sanksion risklarni o‘z vaqtida aniqlash va minimallashtirish imkonini beradi hamda faoliyatning xalqaro sanksion komplayens talablariga muvofiqligini ta’minlaydi.

Bank ichki operatsiyalar bo‘yicha KYC, CDD va EDD jarayonlarini Refinitiv World-Check xalqaro bazasi orqali amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarni tekshirish SWIFT Transaction Screening Service (TSS) tizimi orqali Dow Jones sanksiya ro‘yxatlaridan foydalangan holda, har kuni yangilanadigan ma’lumotlar asosida bajariladi.


Departament xodimlari sanksion tartibga solish bo‘yicha Buyuk Britaniya va Chexiya Respublikasida ixtisoslashtirilgan o‘quv dasturlarini tamomlagan. Shuningdek, xodimlarni doimiy o‘qitish va xabardorligini oshirish jarayoni uzluksiz davom etadi, jumladan Bank filiallari xodimlari uchun onlayn treninglar o‘tkaziladi. Bu esa barcha tarkibiy bo‘linmalarda xalqaro sanksiya rejimlariga rioya etish bo‘yicha yagona bilim va amaliy ko‘nikmalar darajasini ta’minlaydi.

2026-yil uchun rejalar

Axborot texnologiyalari departamenti bilan hamkorlikda AML jarayonlari hamda yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha sanksion skrining jarayonlariga ML/AI texnologiyalarini joriy etish loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu tizim quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- ML/TF (pul mablag‘larini legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish) risklarini takomillashtirilgan onlayn rejimda baholash;
- qo‘shimcha risklarga moyil bo‘lgan operatsiyalar turlari va sektorlarini aniqlash;
- ichki nazorat jarayonlaridagi zaifliklarni tahlil qilish.

Mazkur instrumentlarni joriy etish risklarni aniqlash aniqligini oshirish, operatsion yuklamani kamaytirish hamda Bankning sanksion komplayens tizimini yanada mustahkamlashga qaratilgan.



Soliq shaffofligi va byudjetga hissa

GRI 207-1, 207-2, 207-3, 207-4

SQB soliq mas’uliyatini yaxshi anglaydi hamda soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishni barqaror rivojlanish va korporativ boshqaruvning muhim elementi sifatida ko‘radi. Bankning soliq yondashuvi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Soliq kodeksi talablariga, shuningdek xalqaro hisobot standartlarida mustahkamlangan shaffoflik va halollik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bankning tasdiqlangan soliq strategiyasi mavjud bo‘lib, u biznes strategiyasi va barqaror rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilingan. Soliq solish bo‘yicha yondashuv moliyaviy faoliyat shaffofligini ta’minlash, biznes-model barqarorligini mustahkamlash hamda normativ talablarning to‘liq bajarilishiga qaratilgan.

Bankning soliq siyosati soliqlarni to‘g‘ri hisoblash, majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash va ma’lumotlarni shaffof oshkor qilish tamoyillarini belgilaydi. Bu esa davlat hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv va soliqlar ustidan nazorat

Soliq strategiyasiga rioya etish uchun javobgarlik Bankning moliyaviy bloki zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, unga Moliya bo‘yicha bosh direktori hamda Bosh buxgalter — Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori rahbarlik qiladi.

Departament tarkibida soliq to‘lovlarini amalga oshirish, soliq hisobotlarini tayyorlash hamda qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qiluvchi ixtisoslashtirilgan xizmat faoliyat yuritadi.

Soliq risklarini boshqarish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlarni muntazam monitoring qilish;
- soliq maslahatchilari va auditorlar bilan hamkorlik qilish;
- ichki nazorat va soliq komplayensi baholash jarayonlarini amalga oshirish.

Soliq hisobotlarining ishonchliligi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan kameral tekshiruvlar, shuningdek ichki va tashqi audit jarayonlari orqali tasdiqlanadi.

SQB soliq masalalari bo‘yicha davlat organlari va manfaatdor tomonlar bilan ochiq va konstruktiv hamkorlik tamoyiliga amal qiladi. Hisobotlar My.soliq.uz elektron tizimi orqali tayyorlanadi va yuboriladi, bu esa soliq ma’muriyatchiligining shaffofligini oshiradi.

Soliq amaliyotini takomillashtirish doirasida Bank:

- soliq siyosati va Soliq kodeksiga o‘zgartirishlar bo‘yicha muntazam takliflar taqdim etadi;
- tashqi auditorlar xulosalarini ko‘rib chiqadi va asoslantirilgan javoblar beradi;
- qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda biznes amaliyotining shaffofligini ta’minlaydi.

GRI 207-4

Bankning soliq ko‘rsatkichlari moliyaviy hisoboti tarkibida ochiqlanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyat bo‘yicha asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Mavjudlik mamlakatlari bo‘yicha hisoboti, mln AQSH dollari

	Nomlanishi	O‘zbekiston Respublikasi
1.	Yuridik shaxslar (rezidentlar) nomi	SQB
2.	Tashkilotning asosiy faoliyat turlari	Bank faoliyati
3.	Xodimlar soni (hisoblash yondashuvi ko‘rsatilgan holda)	6 011
4.	Soliqdan oldingi foyda	184,9
5.	Foyda solig‘i hisoblangan va to‘langan summa	28,6
6.	Xodimlar uchun umumiy mukofot puli (mehnat haqi)	83,22
7.	Xodimlar bo‘yicha soliqlar va majburiy to‘lovlar	10,4
8.	Mijozlardan undiriladigan soliqlar	4,05
9.	Tarmoq soliq yig‘imlari va boshqa to‘lovlar	6,91

Bankda noaniq soliq pozitsiyalari mavjud emas, shuningdek hisoblangan soliq summasi va amaldagi stavkaga muvofiq hisob-kitob o‘rtasidagi farqlar O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan alohida xususiyatlar bilan izohlanadi.

Ilovalar

1-ilova. Hisobot haqida

Hisobotni tayyorlashga yondashuv

GRI 2-3

SQBning 2025-yil uchun Integratsiyalashgan yillik hisoboti (keyingi o‘rinlarda — Hisobot) Bankning barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni 2025-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Shuningdek, Hisobotda Bankning 2026-yil va o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan maqsadlari hamda rejalari aks ettirilgan.

Hisobot davri Bankning Xalqaro moliyaviy hisoboti standartlari (IFRS) asosida tayyorlangan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti hisobot davriga to‘liq mos keladi.

Hisobot yillik asosda tayyorlanadi va IFRSga muvofiq yillik moliyaviy hisobotlar bilan bir vaqtda nashr etiladi.

Hisobot barqaror rivojlanish sohasidagi hisobotlar bo‘yicha Global tashabbusning (GRI Standards) Standartlariga, shuningdek, SASB (Sustainability Accounting Standards Board)ning bank sektori uchun tarmoq standartlari talablariga, Moliyaviy hisobotining xalqaro standarti IFRS S2 “Iqlimga oid ma’lumotlarni ochib berish” (Climate-related Disclosures) talablariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qoidalariga muvofiq tayyorlangan. Bundan tashqari, Hisobotda Bankning BMT Global kelishuvi tamoyillariga rioya etish bo‘yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari hamda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo‘shayotgan hissasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqlanadi.

SQB shuningdek, Barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi kengash (ISSB) tavsiyalarini ham hisobga oladi. 2025-yil bo‘yicha tarmoq ko‘rsatkichlari ro‘yxati ushbu Hisobotning 3-ilovasida keltirilgan.

GRI 2-14

Hisobotni tayyorlash jarayonini tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun javobgarlik Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti zimmasiga yuklatilgan.

Hisobotni tayyorlashda Bankning tegishli funksional yo‘nalishlardagi tarkibiy bo‘linmalari xodimlari ham ishtirok etadi.

Hisobotni ko‘rib chiqish va tasdiqlash Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. 2025-yil uchun barqaror rivojlanish bo‘yicha hisoboti Kuzatuv kengashining Risklarni nazorat qilish va komplayens nazorati bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan oldindan ko‘rib chiqilgan hamda 2026/10/KQ-sonli bayonnoma asosida 2026-yil 5-iyun sanasida tasdiqlangan.

GRI 2-2

Hisobot chegaralari

Mazkur Hisobotda axborotni oshkor etish chegaralari Bankning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini tayyorlashda qo‘llaniladigan chegaralar bilan mos keladi.

SQB har yili Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini e’lon qiladi va ushbu hisoboti mustaqil auditor tomonidan tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Bankning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari Bankning korporativ rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

GRI 3-1, 3-2, 3-3

Dolzarb mavzularni aniqlash

2025-yilda SQB barqaror rivojlanish bo‘yicha dolzarb mavzularni baholashni amalga oshirdi. Ushbu jarayon Bank faoliyati, uning strategiyasi va uzoq muddatli qiymat yaratishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan hamda manfaatdor tomonlar uchun eng muhim va dolzarb bo‘lgan masalalarni aniqlashga qaratildi.

Dolzarb mavzularni aniqlash jarayoni Global Reporting Initiative (GRI Standards) standartlari hamda barqaror rivojlanish sohasidagi ilg‘or xalqaro amaliyotlarga muvofiq amalga oshirildi. Baholash Bankning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarga ta’siri, shuningdek manfaatdor tomonlarning kutishlarini hisobga olgan holda o‘tkazildi.

Dolzarb mavzularni aniqlash jarayoni uch bosqichdan iborat bo‘ldi:
potentsial mavzularni aniqlash, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mavzularni ustuvorlashtirish.

1-bosqich. Mavzularni aniqlash

Birinchi bosqichda Bank faoliyati uchun dolzarb bo‘lishi mumkin bo‘lgan barqaror rivojlanish mavzularining dastlabki ro‘yxati shakllantirildi. Ro‘yxatni shakllantirish jarayonida quyidagilar inobatga olindi:

- GRI Standards talablari va tavsiyalari;
- bank sektori uchun SASB tarmoq standartlari;
- BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda BMT Global kelishuvi tamoyillari;
- yetakchi xalqaro ESG reyting agentliklarining barqaror rivojlanishni baholash yondashuvlari;
- xalqaro moliyaviy institutlar va banklar tomonidan axborotni oshkor etish amaliyotlari tahlili.

Mavzularni aniqlash jarayonida Bankning qiymat yaratish zanjiri bo‘ylab, jumladan mijozlar, yetkazib beruvchilar va hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlar doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ta’sirlar ham hisobga olindi. Natijada Bank faoliyatining iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini aks ettiruvchi potensial dolzarb mavzular ro‘yxati shakllantirildi.

2-bosqich. Manfaatdor tomonlar so‘rovi

Ikkinchi bosqichda ichki va tashqi manfaatdor tomonlarning fikrini inobatga olgan holda mavzularning dolzarbligi baholandi.

Dolzarblikni baholash doirasida onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. Unda manfaatdor tomonlarning asosiy guruhlari vakillari ishtirok etdi, jumladan:

- Bank aksiyadorlari;
- Kuzatuv kengashi a’zolari;
- Boshqaruv a’zolari;
- Bank xodimlari;
- Pudratchilar;
- Davlat organlari vakillari;
- Moliyaviy tashkilotlar;
- Reyting agentliklari;
- Ommaviy axborot vositalari vakillari.

Respondentlarga Bank tomonidan axborotni oshkor etish nuqtayi nazaridan quyidagi barqaror rivojlanish mavzularining ahamiyatini baholash taklif etildi:

- 1-mavzu — “Iqlim o‘zgarishi”
- 2-mavzu — “Bioxilma-xillik”
- 3-mavzu — “Resurslardan foydalanish”
- 4-mavzu — “Energiya menejmenti”
- 5-mavzu — “Moliyaviy imkoniyatlar va inklyuzivlik”
- 6-mavzu — “Mijozlar maxfiyligi va ma’lumotlar xavfsizligi”
- 7-mavzu — “Mahalliy hamjamiyatlar”
- 8-mavzu — “Diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va teng imkoniyatlar”
- 9-mavzu — “Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi”
- 10-mavzu — “Xodimlarni boshqarish, rivojlantirish va motivatsiya”
- 11-mavzu — “Barqaror moliyalashtirish”
- 12-mavzu — “Iqtisodiy samaradorlik”
- 13-mavzu — “Korrupsiyaning oldini olish va moliyaviy jinoyatlar”
- 14-mavzu — “Raqobatga zid xatti-harakatlar”
- 15-mavzu — “Davlat siyosati”
- 16-mavzu — “Risklarni boshqarish”
- 17-mavzu — “Mas’uliyatli biznes etikasi”

So‘rovda jami 662 nafar ichki va tashqi manfaatdor tomon vakillari ishtirok etdi, jumladan Bank xodimlari, davlat organlari vakillari, moliyaviy tashkilotlar, yetkazib beruvchilar va boshqa hamkorlar.
Ularning ichida 502 nafar ichki va 160 nafar tashqi respondentlar mavjud edi.

Noto‘g‘ri to‘ldirilgan yoki to‘liq bo‘lmagan javoblar tahlildan chiqarib tashlandi.

3-bosqich. Mavzularni ustuvorlashtirish


So‘rov natijalari asosida har bir mavzuning ahamiyatlilik darajasi ichki va tashqi manfaatdor tomonlar uchun alohida hisoblab chiqildi.

Olingan qiymatlar asosida muhimlik (materiallik) matritsasi shakllantirildi. Ushbu matritsa quyidagilarni aks ettiradi:

- manfaatdor tomonlar uchun mavzularning dolzarblik darajasi;
- mavzularning Bank faoliyatiga ta’sir darajasi.

Matritsaning gorizontal o‘qida ichki manfaatdor tomonlar tomonidan mavzularning dolzarblik bahosi, vertikal o‘qida esa tashqi manfaatdor tomonlar tomonidan dolzarblik bahosi ifodalangan.

Dolzarb mavzular matritsasi



Dolzarb mavzular chegarasini aniqlash uchun so‘rov natijalari asosida olingan baholarning median qiymatlari chegara ko‘rsatkichlari sifatida qo‘llanildi. Bunday yondashuv manfaatdor tomonlar kutishlarini ifodalovchi eng muhim mavzularni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi, ya’ni median qiymatdan yuqori baho olgan mavzular eng dolzarb yo‘nalishlar sifatida ajratiladi.

Har ikkala o‘q bo‘yicha median qiymatdan yuqori joylashgan mavzular eng ustuvor deb belgilandi va mazkur Hisobotda ularga alohida e’tibor qaratilgan holda ochib berildi.

Median chegara qo‘llanilishi tahlilning xolisligini ta’minlaydi hamda respondentlar baholarining taqsimotini hisobga olish imkonini beradi, shu bilan birga alohida ekstremal qiymatlarning ta’sirini kamaytiradi.

Dolzarb mavzular matritsasi Bank faoliyatiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan va manfaatdor tomonlar uchun eng yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini vizual tarzda aks ettirish imkonini beradi.

Dolzarblikni baholash natijalari Bank tomonidan strategik ustuvor yo‘nalishlarni shakllantirish, ESG-risklarni boshqarish hamda nomoliyaviy axborotni oshkor etishda qo‘llaniladi.

O‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra 10 ta eng ustuvor mavzu aniqlandi va ularga ushbu Hisobotda alohida e’tibor qaratildi:

1. 5-mavzu — “Moliyaviy imkoniyatlar va inklyuzivlik”
2. 6-mavzu — “Mijozlar maxfiyligi va ma’lumotlar xavfsizligi”
3. 9-mavzu — “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”
4. 10-mavzu — “Xodimlarni boshqarish, rivojlantirish va motivatsiya”
5. 11-mavzu — “Barqaror moliyalashtirish”
6. 12-mavzu — “Iqtisodiy samaradorlik”
7. 13-mavzu — “Korrupsiyaning oldini olish va moliyaviy jinoyatlar”
8. 15-mavzu — “Davlat siyosati”
9. 16-mavzu — “Risklarni boshqarish”
10. 17-mavzu — “Mas’uliyatli biznes etikasi”

Ushbu mavzular Bank faoliyatining iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini qamrab oladi hamda barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish, risklarni boshqarish va Hisobot doirasida axborotni oshkor etishda asosiy rol o‘ynaydi. Ustuvor ro‘yxatga kirmagan mavzular ham Bankning risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv va barqaror rivojlanish jarayonlari doirasida hisobga olinadi.



2-ilova. Glossariy

ABK	Aktivlarni boshqarish kompaniyasi
ADM	Avtomatlashtirilgan depozit mashinasi
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
AML/CFT	Daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash
AMVNI (OFAC)	AQSh moliya vazirligi nazorat idorasi
AR	Aktivlar rentabelligi
ASK (KPI)	Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari
AST	Asosiy sabablarni tahlil qilish
AT	Axborot texnologiyalari
BBM (MBA)	Biznes boshqaruvi magistri
BCF	Barqarorlik va chidamlilik fondi
BHM	Bazaviy hisoblash miqdori
BHSK	Barqarorlik hisoboti standartlari kengashi
BID (CEO)	Bosh ijrochi direktor
BJB	Biznes jarayonlarini boshqarish
BJV (FRT)	Birinchi javob vaqti
BMRM (SDG)	BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari
BOA	Birlamchi ommaviy aksiyalar
BRM (SDG)	Barqaror rivojlanish maqsadlari
BXM	Bank xizmatlari markazi
BXO	Bank xizmatlari ofisi
BYBP (YAPS)	Barqarorlik bo'yicha yoshlar paneli
ChBB	Chakana bank biznesi
CISA	Axborot tizimlari auditori
COBIT IT	Boshqaruv metodologiyasi
EIB	Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv
EIRBT	Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi
EIS	Ekologik va ijtimoiy standart
EKA	Eksport kredit agentligi
FM	Fuqarolik muhofazasi
FTA	Fransiya taraqqiyot agentligi
GHT (GRI)	Global hisoboti tashabbusi
GJ	Gigajoul
GP	Grafik protsessor
HSOKT (BNPL)	Hozir sotib ol, keyin to'la
IES	Issiqlik elektr stansiyasi
IG	Issiqxona gazlari
IGP (GHG Protocol)	Issiqxona gazlari protokoli
IOEG (IPCC)	Iqlim o'zgarishi bo'yicha ekspertlar guruhi
IR	Inson resurslari
ITTKI	Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari
JBH (WHR)	Jahon baxt hisoboti
KIM	Korporativ ijtimoiy mas'uliyat
KR	Kapital rentabelligi
KTM (LLM)	Katta til modeli
MBX	Masofaviy bank xizmatlari
MChJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
MK (NPL)	Muammoli kredit
MKB	Mikro va kichik biznes
MMB	Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish
MMIX	Mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish xavfsizligi
ML	Machine Learning — mashinaviy o'qitish
MQI (CSI)	Mijozlar qoniqish indeksi
MTI (NPS)	Mijozlar tavsiya indeksi
NTTB (NRT)	Normativ tartibga ta'sirni baholash
OBT (OCR)	Optik belgilarni tanish
OD	Operatsion direktor
OFU	Oylik faol foydalanuvchilar
OIIB	Osiyo infratuzilma investitsiya banki
OQIV (AHT)	O'rtacha qayta ishlash vaqti
OTB	Osiyo taraqqiyot banki
QOYD (LCR)	Qo'ng'iroqlarning o'tkazib yuborilishi darajasi
QQQQSB (REPO)	Qimmatli qog'ozlarni majburiy qayta sotib olish bilan sotish bitimi
QSO (M&A)	Qo'shilish va sotib olish
QTEM	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari
RB	Raqamli biznes
SFM (NIM)	Sof foiz marjasi
SI	Sun'iy intellekt
SIA (CIA)	Sertifikatlangan ichki auditor
SNT	Savdo nuqtasi terminali
SQJ	Sho'ba va qaram jamiyatlar
SYD	Savdoni yengillashtirish dasturi
TAQI	To'liq avtomatlashtirilgan qayta ishlash
TIF	Tashqi iqtisodiy faoliyat
TK	Tomonlar konferensiyasi
TM	Terrorizmni moliyalashtirish
TMXIT	Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi
TTXI (FDI)	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar
XBD (CRO)	Risklar bo'yicha direktor
XDN (CIR)	Xarajat daromad nisbati
XMHS	Xalqaro moliyaviy hisoboti standartlari
XMI	Xalqaro moliyaviy institutlar
XMK	Xalqaro moliya korporatsiyasi
XST (ISO)	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti
YAIM	Yalpi ichki mahsulot
YIMD (GEFF)	Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish dasturi
GGGI	Global Green Growth Institute — Global yashil o'sish instituti
YuSh	Yuridik shaxs
YSRA (EWRA)	Yevrosiyo suv resurslari assotsiatsiyasi
YaTT	Yakka tartibdagi tadbirkor
YTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

3-ilova. GRI ko‘rsatkichlari jadvali

Qo‘llash bo‘yicha bayonot	SQB 2025-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrgacha gacha bo‘lgan hisobot davri uchun GRI standartlariga muvofiq Hisobotni tayyorladi.
Qo‘llanilgan standart GRI 1	GRI 1: Tamoyillar 2021
Sohaviy standart	Qo‘llanilmaydi (Bank 2026-yildan boshlab GRI saytida yakuniy versiya e’lon qilingandan so‘ng sohaga oid standartni qo‘llashni rejalashtirmoqda)

GRI standarti	Ko‘rsatkich raqami va nomi	Hisobot bo‘limi	Istisnolar		
			Istisno	Sabab	Sharh
GRI 2 Umumiy oshkor etishlar 2021	**1. Tashkilot va uning hisoboti amaliyoti**				
	2-1 Tashkilot tafsilotlari	Bank profili			
	2-2 Barqarorlik bo‘yicha hisobotga kiritilgan tashkilotlar	Korporativ boshqaruv tizimi Ilova 1. Hisobot haqida			
	2-3 Hisobot davri, hisobot berish davriyligi va aloqa shaxsi	Ilova 1. Hisobot haqida			
	2-4 Ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish	Ilova 1. Hisobot haqida			
	2-5 Tashqi tasdiqlash		2025-yil uchun tashqi tasdiq-lash rejalashtiril-magan		
	2. Faoliyat va xodimlar				
	2-6 Faoliyat, qiymat yaratish zanjiri va boshqa biznes aloqalari	Bank profili Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish			
	2-7 Xodimlar	Xodimlar tarkibi			
	2-8 Xodim bo‘lmagan xodimlar	Xodimlar tarkibi			
	3. Korporativ boshqaruv				
	2-9 Boshqaruv tuzilmasi va tarkibi	Korporativ boshqaruv tizimi Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati Boshqaruv tuzilmasi va faoliyati			
	2-10 Oliy boshqaruv organini tayinlash va tanlash	Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati			
	2-11 Oliy boshqaruv organi raisi	Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati Boshqaruv tuzilmasi va faoliyati			
	2-12 Oliy boshqaruv organining ta’sirlarni boshqarish ustidan nazoratdagi roli	Korporativ boshqaruv tizimi Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish			
	2-13 Ta’sirlarni boshqarish bo‘yicha javobgarlikni delegatsiya qilish	Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish			
	2-14 Oliy boshqaruv organining barqaror rivojlanish bo‘yicha hisoboti berishdagi roli	Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati Ilova 1. Hisobot haqida			
	2-15 Manfaatlar to‘qnashuvi	Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati			
	2-16 Muhim masala-larni (dolzarb) yuqori boshqaruv organiga yetkazish	Boshqaruv tuzilmasi va faoliyati			
	2-17 Oliy boshqaruv organining jamoaviy bilimlari	Kuzatuv kengashining tuzilmasi va faoliyati			
	2-18 Oliy boshqaruv organi samaradorligini baholash	Korporativ boshqaruv organlari a’zolarini rag‘batlantirish			
	2-19 Mukofotlash siyosati	Korporativ boshqaruv organlari a’zolarini rag‘batlantirish			
	2-20 Mukofotlashni belgilash jarayoni	Korporativ boshqaruv organlari a’zolarini rag‘batlantirish			
	2-21 Yillik umumiy mukofotlash nisbati	Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlash			
	4. Strategiya, siyosat va amaliyotlar				
	2-22 Barqaror rivojlanish strategiyasi bo‘yicha bayonot	Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish			
	2-23 Siyosiy majburiyatlar	Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish Xodimlarni boshqarish siyosati Korrupsiyaga qarshi kurash			

GRI standarti	Ko‘rsatkich raqami va nomi	Hisobot bo‘limi	Istisnolar		
			Istisno	Sabab	Sharh
GRI 2 Umumiy oshkor etishlar 2021	2-24 Siyosiy majburiyatlarni amalga oshirish	Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish			
	2-25 Salbiy ta’sirlarni bartaraf etish jarayonlari	Xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlar qoniqishini oshirish			
	2-26 Konsultatsiya olish va tashvish bildirish mexanizmlari	Xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash			
	2-27 Qonun va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish	Komplayens-nazorat			
	2-28 Assotsiatsiyalarga a‘zolik	Xalqaro hamkorlik Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish			
	5. Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar				
	2-29 Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar yondashuvi	Xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash			
	2-30 Kollektiv shartnomalar	Xodimlar tarkibi			
Dolzarb mavzularni aniqlash					
GRI 3: 3 Dolzarb mavzular 2021	3-1 Dolzarb mavzularni aniqlash jarayoni	Ilova 1. Hisobot haqida			
	3-2 Dolzarb mavzular ro‘yxati	Ilova 1. Hisobot haqida			
	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Barqaror moliyalashtirish Korporativ boshqaruv Xodimlar va tashkiliy rivojlanish Bankning jamiyat oldidagi mas’uliyati Biznesni etik yuritish			
Iqlim o‘zgarishi va ekologik ko‘rsatkichlar					
GRI 3: 3 Dolzarb mavzular 2021	Boshqaruv yondashuvi (Management approach)	Ekologik barqarorlik			
GRI 302: Energiya 2016	302-1 Tashkilot ichida energiya iste’moli	Energiya resurslariga mas’uliyatli yondashish			
	302-3 Energiya sig‘imi (energiya intensivligi)	Energiya resurslariga mas’uliyatli yondashish			
	302-4 Energiya iste’molini kamaytirish	Energiya resurslariga mas’uliyatli yondashish			
GRI 305: Chiqindilar (Emissiyalar) 2016	305-1 To‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqxona gazlari emissiyalari (Scope 1)	Chiqindilar (emissiyalar)			
GRI 305: Chiqindilar (Emissiyalar) 2016	305-2 Energiya iste’moli natijasidagi bilvosita emissiyalar (Scope 2)	Chiqindilar (emissiyalar)			
	305-3 Boshqa bilvosita issiqxona gazlari emissiyalari (Scope 3)	Chiqindilar (emissiyalar)			
	305-4 Issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi	Chiqindilar (emissiyalar)			
	305-5 Issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish	Chiqindilar (emissiyalar)			
Atmosfera emissiyalari va bioxilma-xillik					
GRI 305: Chiqindilar (Emissiyalar) 2016	305-7 Azot oksidlari (NOx), oltingugurt oksidlari (SOx) va boshqa muhim ifloslantiruvchi mod-dalar emissiyalari	Chiqindilar (emissiyalar)			
Bioxilma-xillik					
GRI 3 Dol-zarb mav-zular 2021	3-3 3 Dolzarb mavzular boshqarish	Ekologik barqarorlik			
GRI 304-1: Bioxilma-xillik	304-1 Tashkilotga tegishli, ijaraga olingan yoki boshqariladigan hamda muhofaza etiladigan hududlar yoki yuqori bioxilma-xillik qiymatiga ega hududlarda joylashgan ishlab chiqarish obyektlari	Bioxilma-xillik			
GRI 304-2: Bioxilma-xillik	304-2 Faoliyat, mahsulot va xizmatlarning bioxilma-xillikka sezilarli ta’sirlarini tavsiflash	Bioxilma-xillik			
GRI 304-3: Bioxilma-xillik	304-3 Yashash muhitlarini saqlash yoki tiklash	Bioxilma-xillik			
Chiqindilar bilan muomala					
GRI 3 Dol-zarb mav-zular 2021	3-3 Dolzarb mavzular boshqarish	Chiqindilar bilan oqilona yo‘l tutish			
GRI 306: Chiqindilar (Emissiya-lar) 2020	306-1 Chiqindilar hosil bo‘lishi va ularning sezilarli ta’siri	Chiqindilar bilan oqilona yo‘l tutish			

GRI standarti	Ko‘rsatkich raqami va nomi	Hisobot bo‘limi	Istisnolar		
			Istisno	Sabab	Sharh
GRI 306: Chiqindilar (Emissiyalar) 2020	306-2 Chiqindilarning sezilarli ta’sirini boshqarish	Chiqindilar bilan oqilona yo‘l tutish			
	306-3 Hosil bo‘lgan chiqindilar	Chiqindilar bilan oqilona yo‘l tutish			
	306-4 Chiqindilarni utilizatsiya qilish	Chiqindilar bilan oqilona yo‘l tutish			
Suv resurslari					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Suv iste’moli			
GRI 303: Suv va oqova suvlar 2018	303-1 Suv umumiy resurs sifatida undan foydalanish bo‘yicha yondashuv	Suv iste’moli			
	303-2 Oqova suvlarni chiqarish bilan bog‘liq ta’sirlarni boshqarish	Suv iste’moli			
	303-3 Suvni chiqarish	Suv iste’moli			
	303-4 Suv chiqarish (suvni tashlash)	Suv iste’moli			
	303-5 Suv iste’moli	Suv iste’moli			
Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
GRI 403: Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi 2018	403-1 Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-2 Xavflarni aniqlash, risklarni baholash va hodisalarni tekshirish	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-3 Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha xizmatlar	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-4 Mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha xodimlarning ishtiroki, maslahatlashuvlar va kommunikatsiya	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-5 Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha xodimlarni o‘qitish	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-6 Xodimlar salomatligini mustahkamlash dasturlari	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-7 Biznes aloqalar bilan bog‘liq mehnat xavfsizligiga ta’sirlarni oldini olish va kamaytirish	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
GRI 403: Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi 2018	403-8 Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi tizimi bilan qamrab olingan xodimlar	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
	403-9 Ishlab chiqarish jarohatlari	Mehnat va sog‘liqni muhofaza qilish			
Bandlik amaliyoti					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Xodimlar va tashkiliy rivojlanish			
GRI 401: Bandlik 2016	401-1 Yangi xodimlar va kadrlar almashinuvi	Xodimlarni tanlash			
	401-2 Doimiy xodimlarga beriladigan, ammo vaqtinchalik yoki qisman band xodimlarga berilmaydigan imtiyozlar	Xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash			
	401-3 Bola parvarishi bo‘yicha ta’til	Xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash			
GRI 402: Mehnat munosabatlari 2016	402-1 Operatsion o‘zgarishlar haqida oldindan xabardor qilishning minimal muddati	Xodimlar tarkibi			
GRI 404: Ta’lim va rivojlanish 2016	404-1 Bir xodimga to‘g‘ri keladigan yillik o‘rtacha o‘qitish soatlari	Rivojlanish va o‘qitish			
	404-2 Xodimlar malakasini oshirish va kasbiy moslashuv dasturlari	Rivojlanish va o‘qitish			
	404-3 Samaradorlik va karyera rivojlanishini davriy baholashdan o‘tadigan xodimlar ulushi	Bankda samaradorlik va karyera rivojlanishini baholash amalga oshirilmagan			
Diskriminatsiyasiz muhit va teng imkoniyatlar					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlash			
GRI 405: Turli xillik va teng imkoniyatlar 2016	405-1 Boshqaruv organlari va xodimlar tarkibining turli xilligi	Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlash			

GRI standarti	Ko'rsatkich raqami va nomi	Hisobot bo'limi	Istisnolar		
			Istisno	Sabab	Sharh
GRI 406: Diskriminatsiyani oldini olish 2016	406-1 Diskriminatsiya holatlari va ko'rilgan tuzatish choralari	Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash			
GRI 408: Bolalar mehnati 2016	408-1 Sho'ba tashkilotlar va yetkazib beruvchilarda bolalar mehnatidan foydalanish riski yuqori bo'lgan holatlar	Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash			
GRI 409: Majburiy mehnat 2016	409-1 Sho'ba tashkilotlar va yetkazib beruvchilarda majburiy yoki majburiylashtirilgan mehnatdan foydalanish riski yuqori bo'lgan holatlar	Xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash			
Mahalliy hamjamiyatlar					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Bankning jamiyat oldidagi mas'uliyati			
GRI 413: Mahalliy hamjamiyatlar 2016	413-1 Mahalliy hamjamiyatlar bilan o'zaro aloqalarni amalga oshiruvchi shu'ba tashkilotlar soni	Bankning ijtimoiy tashabbuslari			
Iqtisodiy ta'sir					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Iqtisodiy qiymat yaratish			
GRI 201: Iqtisodiy faoliyat 2016	201-1 Yaratilgan va taqsimlangan to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy qiymat	Iqtisodiy qiymat yaratish			
GRI 202: Bozordagi ishtirok	202-1 Turli jinsdagi boshlang'ich darajadagi xodimlarning standart ish haqi bilan belgilangan eng kam ish haqi o'rtasidagi nisbat	Iqtisodiy qiymat yaratish			
GRI 203: Bilvosita iqtisodiy ta'sirlar 2016	203-1 Infratuzilmaga investitsiyalar va qo'llab-quvvatlanayotgan xizmatlar	Respublika hududlarida biznes rivojiga ko'maklashish			
	203-2 Muhim bilvosita iqtisodiy ta'sirlar	Respublika hududlarida biznes rivojiga ko'maklashish			
GRI 415: Jamoat siyosati 2016	415-1 Siyosiy badallar	Bank profili			
Barqaror ta'minot zanjiri					
GRI 204: Xarid amaliyotlari 2016	204-1 Mahalliy yetkazib beruvchilarga to'g'ri keladigan xarajatlar ulushi	Iqtisodiy qiymat yaratish			
Korrupsiyaga qarshi kurash					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Biznesni etik yuritish			
GRI 205: Korrupsiyaga qarshi kurash 2016	205-1 Korrupsiya risklari bo'yicha baholangan operatsiyalar	Korrupsiyaga qarshi kurash Komplayens-nazorat			
	205-2 Korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillar bo'yicha kommunikatsiya va o'qitish	Korrupsiyaga qarshi kurash Komplayens-nazorat			
	205-3 Tasdiqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan choralar	Korrupsiyaga qarshi kurash			
Soliq shaffofligi					
GRI 3 Dolzarb mavzular 2021	3-3 3 Dolzarb mavzularni boshqarish	Soliq shaffofligi va byudjetga hissa			
GRI 207: Soliqlar 2019	207-1 Soliq siyosatiga yondashuv	Soliq shaffofligi va byudjetga hissa			
	207-2 Soliq boshqaruvi, nazorat va risklarni boshqarish	Soliq shaffofligi va byudjetga hissa			
	207-3 Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar va soliqqa oid masalalarni hal etish	Soliq shaffofligi va byudjetga hissa			
	207-4 Mamlakatlar kesimida hisoboti	Soliq shaffofligi va byudjetga hissa			

4-ilova. SASB ko‘rsatkichlari jadvali

Metrikalar	Kategoriya	Kod	Axborot ochib berilgan hisobot bo‘limi
Ma’lumotlar xavfsizligi			
Ma’lumotlar sizib chiqish holatlari soni, shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlari (PII) sizib chiqish ulushi, hamda sizib chiqishdan zarar ko‘rgan hisob egalari soni	Miqdoriy	FN-CB-230a.1	Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik
Ma’lumotlar xavfsizligi risklarini aniqlash va bartaraf etish yondashuvi tavsifi	Tahlil va sharh	FN-CB-230a.2	Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik
ESG omillarini kredit tahliliga integratsiya qilish			
Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini kredit tahliliga kiritish yondashuvi tavsifi	Tahlil va sharh	FN-CB-410a.2	Risklarni boshqarish
Moliyalashtirilgan emissiyalar (chiqindilar)			
Aktivlar toifasi bo‘yicha har bir tarmoq uchun umumiy risk ekspozitsiyasi	Miqdoriy	FN-CB-410b.2	Chiqindilar (emissiyalar)
Moliyalashtirilgan emissiyalarni hisoblashda qo‘llaniladigan metodologiya tavsifi	Miqdoriy	FN-CB-410b.4	Chiqindilar (emissiyalar)
Biznes etikasi			
Firibgarlik, insayder savdosi, monopoliyaga qarshi qonunbuzarliklar, bozorni manipulyatsiya qilish, suiiste’mol qilish yoki moliyaviy qonunlarning boshqa buzilishi bilan bog‘liq sud jarayonlari natijasida kelib chiqqan pul yo‘qotishlarining umumiy miqdori.	Miqdor	FN-CB-510a.1	Korporativ etika
“Whistleblowing” (huquqbuzarliklar haqida xabar berish) siyosati va tartib-taomillari tavsifi	Tahlil va sharh	FN-CB-510a.2	Korporativ etika
Tizimli risklarni boshqarish			
Bankning tizimli ahamiyatga molikligi (G-SIB score), kategoriya bo‘yicha	Bazis ballari (BPS)	FN-CB-550a.1	Anderrayting
Majburiy va ixtiyoriy stress-testlar natijalarini kapital yetarliligi rejalashtirish, uzoq muddatli strategiya va boshqa biznes jarayonlariga integratsiya qilish yondashuvi	Tahlil va sharh	FN-CB-550a.2	Risklarni boshqarish

5-ilova. IFRS S2 ko‘rsatkichlari jadvali

IFRS S2 standarti	IFRS S2 standarti bandi	IFRS S2 standarti kichik bandi		Oshkor etish mazmuni	Bet/ varaq
Bankda iqlim risklari va imkoniyatlarini korporativ boshqarish					
IFRS S2-6(a)-i	6a. Iqlim risklari va imkoniyatlarini boshqarish uchun mas’ul boshqaruv organi to‘g‘risida ma’lumot	i.	iqlimga oid risklar va imkoniyatlarni boshqarish bo‘yicha vazifalar tegishli organ yoki shaxs(lar)ning nizomlari, vakolatlari va lavozim yo‘riqnomalarida qanday aks ettirilgani	“Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish” bo‘limi	
IFRS S2-6(a)-ii		ii.	mazkur organ yoki shaxs(lar) iqlim risklari va imkoniyatlarini boshqarish uchun zarur kompetensiyalarni aniqlash va rivojlantirish ehtiyojini qanday belgilashi	“Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish” bo‘limi	
IFRS S2-6(a)-iii		iii.	iqlim risklari va imkoniyatlari bo‘yicha axborot taqdim etish tartibi va davriyligi	Iqlim risklari bo‘yicha axborot Bankning barqaror moliyalashtirish departamenti tomonidan muntazam ichki hisobotlar orqali taqdim etiladi	
IFRS S2-6(a)-iv		iv.	iqlim risklari va imkoniyatlarini Bank strategiyasi, yirik bitimlar qaror qabul qilish jarayonlari va risk boshqaruv tizimiga integratsiya qilish jarayoni	“Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish” bo‘limi	
IFRS S2-6(a)-v		v.	iqlimga oid maqsadlarni belgilash va ularni bajarilishini nazorat qilish mexanizmi, jumladan KPI’larni mukofot tizimiga integratsiya qilish	“Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish” bo‘limi	
IFRS S2 6(b)-i	6b. Rahbariyatning iqlim risklarini boshqarishdagi roli	i.	funksiyalar alohida lavozim yoki qo‘mita zimmasiga yuklatilganligi va ularning nazorati qanday amalga oshirilishi	“Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish” bo‘limi	
IFRS S2 6(b)-ii		ii.	rahbariyat tomonidan iqlim risklarini boshqarish uchun nazorat mexanizmlaridan foydalanilishi va ularning ichki funksiyalar bilan integratsiyasi	“Bankda barqaror rivojlanishni boshqarish” bo‘limi	

IFRS S2 standarti	IFRS S2 standarti bandi	IFRS S2 standarti kichik bandi	Oshkor etish mazmuni	Bet/ varaq
Strategiya				
IFRS S2-9(a)	9. Strategiya	a. Bank faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan iqlim risklari va imkoniyatlari	Bank hozirda iqlim risklarini aniqlash va metodologiyani ishlab chiqish bosqichida	
IFRS S2-9(b)		b. iqlim risklari va imkoniyatlarining biznes modeli va qiymat zanjiriga ta'siri	Hozirgi bosqichda baholash amalga oshirilmayapti	
IFRS S2-9(c)		c. strategiya va qaror qabul qilish jarayonlariga iqlim risklarining ta'siri	Metodologiya va iqlim stress-testlari yakunlangach (2026-yilda) aniqlanadi	
IFRS S2-9(d)		d. moliyaviy holat va pul oqimlariga ta'siri	Dastlabki baholashga ko'ra, pul oqimlariga ta'sir taxminan +0,1%, batafsil tahlil stress-testdan so'ng amalga oshiriladi	
IFRS S2-9(e)		e. strategiya va biznes modelining iqlim o'zgarishlariga chidamliligi	Rasmiy baholash amalga oshirilmagan	
IFRS S2-10(a)	10. Iqlim risklari va imkoniyatlari	a. Bank rivojlanish istiqbollariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan iqlim risklari va imkoniyatlar tavsifi	Bank potentsial iqlim risklari va imkoniyatlarini (jismoniy va o'tish davri risklari) baholash jarayonida	
IFRS S2-10(b)		b. Har bir aniqlangan iqlim risklarining turi (jismoniy yoki o'tish davri)	Metodologiya yakunlangach, 2026-yilda tasniflanadi	
IFRS S2-10(c)	10. Iqlim risklari va imkoniyatlari	c. Har bir iqlim riski uchun vaqt gorizontlari (qisqa, o'rta, uzoq muddat)	Metodologiya va ssenariy tahlili asosida belgilanadi	
IFRS S2-10(d)		d. Qisqa, o'rta va uzoq muddat tushunchalarini aniqlash yondashuvi	Metodologiya ishlab chiqilgach rasmiylashtiriladi	
IFRS S2-13(a)	13. Biznes modeli va qiymat zanjiri	a. Iqlim risklari va imkoniyatlarining biznes modelga ta'siri	Hozircha baholanmagan	
IFRS S2-13(b)		b. Iqlim risklari va imkoniyatlarining geografik va aktivlar bo'yicha joylashuvi	Hozircha baholanmagan	

IFRS S2 standarti	IFRS S2 standarti bandi	IFRS S2 standarti kichik bandi	Oshkor etish mazmuni	Bet/ varaq
IFRS S2-14(a)	14. Strategiya va qaror qabul qilish	a. Bank tomonidan iqlim bilan bog'liq risklar va imkoniyatlarga javoban strategiya hamda qaror qabul qilish jarayoni doirasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan belgilangan iqlim maqsadlariga erishish hamda qonunchilik yoki normativ-huquqiy talablarni bajarish bo'yicha rejalarni o'z ichiga olgan holda:		
IFRS S2-14(a)-i		i. Iqlim bilan bog'liq risklar va imkoniyatlarni boshqarish uchun resurslarni qayta taqsimlashni o'z ichiga olgan holda biznes modeldagi joriy va kutilayotgan o'zgarishlar (masalan, uglerod intensiv, energiya intensiv yoki suv intensiv operatsiyalarni boshqarish yoki ularni bosqichma-bosqich tugatish rejalari; talab yoki ta'minot zanjiridagi o'zgarishlarga javoban resurslarni qayta taqsimlash; kapital qo'yilmalar yoki ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga qo'shimcha xarajatlar orqali biznesni rivojlantirishga investitsiyalar):	Qisman oshkor etilgan — Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi va "Barqaror moliyalashtirish sohasidagi yondashuv va mahsulotlar" bo'limlari	
IFRS S2-14(a)-ii		ii. To'g'ridan-to'g'ri ta'sirni kamaytirish va moslashish bo'yicha joriy va kutilayotgan choralar (masalan, ishlab chiqarish jarayonlari yoki uskunalardagi o'zgarishlar, obyektlarni ko'chirish, xodimlar sonini moslashtirish, mahsulot xususiyatlarini o'zgartirish):	Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi	
IFRS S2-14(a)-iii		iii. Bilvosita ta'sirni kamaytirish va moslashish bo'yicha joriy va kutilayotgan choralar (masalan, mijozlar va ta'minot zanjiri ishtirokchilari bilan hamkorlik):	Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi hamda "Barqaror moliyalashtirish sohasidagi yondashuv va mahsulotlar" bo'limlari	
IFRS S2-14(a)-iv		iv. Iqlim bilan bog'liq o'tish rejasi, jumladan uni ishlab chiqishda qo'llangan asosiy taxminlar va ushbu rejaning amalga oshirilishi bog'liq bo'lgan omillar:	Qisman oshkor etilgan — Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi	
IFRS S2-14(a)-v		v. Iqlim maqsadlariga erishish mexanizmlari, jumladan issiqxona gazlari (parnik gazlari) chiqindilarini kamaytirish bo'yicha maqsadlar:	Qisman oshkor etilgan — Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi	
IFRS S2-14(b)		b. (a-bandda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun resurslarni ajratish va rejalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar):	Qisman oshkor etilgan — Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi	

IFRS S2 standarti	IFRS S2 standarti bandi	IFRS S2 standarti kichik bandi	Oshkor etish mazmuni	Bet/ varaq
IFRS S2-14(c)	14. Strategiya va qaror qabul qilish	c. (a bandda ko'rsatilgan ilgari oshkor qilingan rejalarni amalga oshirish bo'yicha erishilgan taraqqiyot to'g'risida miqdoriy va sifatli ma'lumotlar):	Hisobotning "Chiqindilar (emissiyalar)" bo'limi	
IFRS S2-15(a)	15. Moliyaviy holat, moliyaviy natijalar va pul oqimlari	a. Hisobot davrida iqlim bilan bog'liq risklar va imkoniyatlarning Bankning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlariga ta'siri (joriy moliyaviy oqibatlar):	Hisobot davrida iqlim risklarining moliyaviy ta'siri aniqlanmadi, chunki baholash tartib-taomillari ishlab chiqish jarayonida.	
